

MILLIY SHARH

2025

O'ZBEKISTONDA KATTA YOSHDAGILARNI O'QITISH VA ULARGA TA'LIM BERISH: BUGUNGI HOLATI VA RIVOJLANISH SSENARIYLARI



DVV International

Education for Everyone. Worldwide
Lifelong.



TA'LIM SIFATINI
TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI



unesco
Uzbekistan
National Commission

ANNOTATSIYA

Hayot davomida ta'lim olish (Lifelong Learning) konsepsiyasiga integratsiyalashgan katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (KYO' va UTB) tizimining Milliy sharhi ushbu sohaning hozirgi holatini tahlil qilish va uni yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotdir.

Sharh Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, Nemis Xalq universitetlari Assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi Filiali (DVV International Uzbekistan), shuningdek, mahalliy hamkor tashkilotlar ekspertlari Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Federal vazirligining (BMZ) moliyaviy ko'magida tayyorlandi. Bu O'zbekistonda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish holati to'g'risidagi sharh shaklidagi ikkinchi hujjatdir. Birinchi sharh 2022-yilda turli tashkilotlar mutaxassislari tomonidan tuzilgan va "Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishga oid Milliy Sharh"¹ deb nomlangan. Ushbu Sharh birinchi Hisobot asosida tuzildi, kengaytirildi, qayta ishlandi va yangilandi. Sharh keng doiradagi manfaatdor tomonlarga, shuningdek, kattalar ta'limi va o'qishi sohasida davlat siyosatini shakllantiruvchi shaxslar uchun mo'ljallangan.

YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

Komissiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan bo'lib, turli vazirlik va idoralar bilan idoralararo hamkorlikni olib boruvchi, shuningdek, mamlakatda CONFINTEA jarayonlarini hamda turli milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan faoliyatni muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti hisoblanadi. U ta'lim sohasida barqaror rivojlanish yo'lida ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil etilgan ushbu agentlik — o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda malakalarni baholash sohalarida kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi orqali ta'lim sifatini tashqi nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan maxsus davlat organi hisoblanadi.

Nemis Xalq universitetlari Assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi Filiali

DVVning O'zbekistondagi Filiali (DVV International Uzbekistan), 2002-yildan boshlab Markaziy Osiyo hududida o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Mintaqada olib borilayotgan ishlar Bishkek (Qirg'iz Respublikasi) shahrida joylashgan Markaziy Osiyo ofisi orqali muvofiqlashtiriladi. DVV International - bu Nemis Xalq universitetlari Assotsiatsiyasining Xalqaro hamkorlik instituti - Deutscher Volkshochschul-Verband (DVV) bo'lib, u 900 dan ortiq kattalar ta'lim markazlari yoki Germaniyada nomlanganidek — Xalq universitetlari (VHS) va ularning davlat birlashmalari — Germaniyadagi qo'shimcha ta'limning eng yirik provayderlari manfaatlarini ifodalaydi. DVV

¹National Report on Adult Learning and Education, 2022 <https://surl.li/czcxjh>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7513052>

International kattalar ta'limi va o'qishi sohasidagi hamkorlik bo'yicha yetakchi professional tashkilotlardan biri sifatida 50 yildan ortiq vaqt mobaynida hamkor mamlakatlarda hayot davomida ta'lim olishning milliy tizimlarini, shuningdek, har bir insonning hayot davomida ta'lim olish huquqlarini qo'llab-quvvatlashni o'z vazifasi deb biladi.

Ushbu sharhning matnini yaxshilash bo'yicha fikr-mulohazalar va qimmatli tavsiyalar uchun DVV Internationalning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ofisiga minnatdorchilik bildiramiz.

Nusxa olish yoki qayta bosishga ruxsatnoma olish uchun quyidagi manzilga to'liq ma'lumotlarni kiritib so'rovnoma jo'natishingiz mumkin: dvviuz@dvv-international.uz

Bo'linmalar boshidagi muqova va rasmlar neyrotarmoq yordamida yaratilgan.

© DVVning O'zbekistondagi Filiali, 2025.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	3
Abbreviaturalar va ingliz tilidagi atamalar ro'yxati	6
ASOSIY TUSHUNCHALAR VA YONDASHUVLAR	
Milliy sharhning maqsadlari va axborot to'plash usullari	7
Xalqaro kontekstda va O'zbekiston ta'lim tizimida KYO' va UTBning chegaralari	8
Zamonaviy dunyoda KYO' va UTB ning dolzarbligi	15
1. O'ZBEKISTONNING XALQARO TA'LIM MAKONIGA INTEGRATSIYALASHUVI	
1.1. O'zbekistonning KYO' va UTB sohasidagi davlat siyosati va unda xalqaro trendlarni aks ettirishi	18
1.2. KYO' va UTB sohasidagi siyosatni shakllantirishda nodavlat sektorining ishtiroki	30
1.3. Ta'lim xizmatlarining eksport va importi	31
1.4. KYO' va UTB sohasi bo'yicha xalqaro hamkorlik	33
2. O'ZBEKISTONDA KATTALAR TA'LIM TIZIMINING TUZILISHI VA FAOLIYAT KO'RSATISHI	
2.1. KYO' va UTB tizimining asosiy elementlari	36
2.2. KYO' va UTB sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi	38
2.3. Ta'lim tizimini boshqarish	41
2.4. KYO' va UTBning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish istiqbollari	46
2.5. O'zbekiston ta'lim sxemasi (2025-yildan)	49
2.6. KYO' va UTB xizmatini taqdim etuvchilar	50
2.7. KYO' va UTB xodimlari va institutlarini professionallashtirish	53
2.8. Katta yoshdagi aholini KYO' va UTB bilan qamrab olish	58
3. O'ZBEKISTON KYO' VA UTB TIZIMINING SAMARADORLIGI	
3.1. Katta yoshdagi aholining bazaviy va funksional savodxonlik darajasi	64
3.2. KYO' va UTBning ochiqqligi	65
3.3. KYO' va UTBning sifati	67
3.4. KYO' va UTBning mehnat bozori, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi	69
3.5. Katta yoshdagilar uchun dasturlar bitiruvchilarini ishga joylashtirish	71
3.6. E'tirof, validatsiya va akkreditatsiya	72
3.7. KYO' va UTB tizimini moliyalashtirish	74
3.8. Monitoring va statistika	78
3.9. KYO' va UTB sohasidagi jadal va mo'tadil rivojlanish zonalarini tahlil qilish	79
4. O'ZBEKISTONDA NORASMIY KYO' VA UTBNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
4.1. O'zbekiston taraqqiyotida norasmiy sektorning roli	81
4.2. Norasmiy ta'limning afzalliklari	83
4.3. KYO' va UTBning norasmiy sektor faoliyati uchun qonunchilik asosi	84
4.4. Pandemiya o'zgarishlar katalizatori sifatida	58
4.5. Nodavlat tashkilotlarning aholi ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi	87
5. ASOSIY TRENDLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR	
5.1. Raqamli va media-axborot savodxonligi (MAS)	90
5.2. KYO' va UTBni raqamlashtirish	95
5.3. Barqaror rivojlanish uchun "yashil" ko'nikmalar	100
5.4. Global fuqarolik ruhidagi ta'lim	102
5.5. KYO' va UTB sohasidagi tadqiqotlar	106
6. O'ZBEKISTONDA KYO' VA UTBNI RIVOJLANTIRISHNING MUMKIN BO'LGAN SSENARIYLARI VA TAVSIYALAR	
6.1. O'zbekistonda kattalar ta'limini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	108
6.2. O'zbekistonda KYO' va UTBni boshqa mamlakatlar bilan qiyoslash	110
6.3. KYO' va UTBni rivojlantirishning ehtimoliy ssenariylari	113
6.4. Xulosalar va tavsiyalar	114
6.5. Xulosa	116
FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI	117

Abbreviaturalar va ingliz tilidagi atamalar ro'yxati

AOKA	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
BA	Bosh Assambleya
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
MOI/MOM	Malaka oshirish instituti/ Malaka oshirish markazi
MAS	Media-axborot savodxonligi
MHR	Marokash harakatlar ramkasi
MRM	Mahalliy rivojlanish markazi
NNT	Nodavlat notijorat tashkiloti
NTT	Nodavlat ta'lim tashkiloti
NKTO'	Norasmiy kattalar ta'limi va o'qishi
BAA	Birlashgan Arab Amirliklari
KYO' va UTB	Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
IHTT	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi
f. p.	Foiz punkti
QARM	Qishloq axborot-resurs markazi
TKO'T	Texnik va kasbiy ta'lim va tayyorgarlik
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
ADB	Asian Development Bank (Osiyo taraqqiyot banki))
APCEIU	Osiyo-Tinch okeani xalqaro hamjihatlik ta'lim markazi
CG	Curriculum globALE (KYO' va UTB global dasturi)
CONFITEA	Kattalar ta'limi bo'yicha xalqaro konferensiya
DVV	Nemis Xalq universitetlari Assotsiatsiyasi
DSc	Doctor of Science (fan doktori)
GPA	Grade Point Average (Barcha fanlar bo'yicha o'rtacha ball)
GRALE	KYO' va UTB bo'yicha Global hisobotlar
IFLA	International Federation of Library Associations and Institutions (Xalqaro kutubxona uyushmalari va muassasalari federatsiyasi)
IMRS	Institute for Macroeconomic and Regional Studies (Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti)
MHTI	
KOICA	Korea International Cooperation Agency (Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi).
LLL/HDT	Lifelong learning/ Hayot davomida ta'lim olish
MYK	Turkiya malaka oshirish qo'mitasi
PhD	Doctor of Philosophy (falsafa fanlari doktori)
SDSN	Sustainable Development Solutions Network (Barqaror rivojlanish sohasidagi yechimlarni ishlab chiqish tarmog'i, BMT)



Milliy sharhning maqsadlari va axborot to'plash usullari

Milliy sharhning asosiy maqsadi - muhim muammolarni aniqlash va KYO' va UTB sektorini mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga hissa qo'shadigan vositaga aylantirish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat. Mazkur hujjat tadqiqotchilar, amaliyotchilar va O'zbekistonda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish hamda hayot davomida ta'lim olish tizimini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan barcha shaxslar uchun manba sifatida xizmat qiladi. Sharhni tuzishda qonunchilik hujjatlari, mavjud statistik axborotlar, xalqaro tashkilotlar ma'ruzalari, ilmiy maqolalar, sotsiologik tadqiqotlar natijalari, DVVning O'zbekistondagi Filiali ko'magida hamkor tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan turli loyihalar materiallari tahlil qilindi.

KYO' va UTBning joriy holatini tahlil qilish quyidagi jihatlarni qamrab oldi:

- so'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni.
- qonunchilik bazasini tahlil qilish.
- tizimni rivojlantirishda davlat organlari, ta'limning norasmiy sektori va boshqa manfaatdor tomonlarning rolini o'rganish.
- katta yoshdagi aholini o'qitish va ularga ta'lim berish ko'lamini (qamrovini) aniqlash.
- ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlari va ta'lim oluvchilarning kutgan natijalariga muvofiqligi.
- ta'lim dasturlarining tematik yo'nalishlari va xilma-xilligi.
- tashkiliy shakllar va foydalaniladigan texnologiyalar.
- aholi uchun ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoiyati darajasini aniqlash.

Umumlashtirish va xulosalar asosida KYO' va UTBni yanada rivojlantirishning mumkin bo'lgan ssenariylari ishlab chiqilib, ushbu sohadagi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tanlash bo'yicha tavsiyalar taqdim etilmoqda. Taklif etilgan ssenariylar umumiy xususiyatga ega bo'lib, ularning vazifasi barcha manfaatdor tomonlar bilan bahs-munozarani rag'batlantirish, ekspertlar tomonidan doimiy asosda KYO' va UTBni rivojlantirish tendensiyalarini muhokama qilish tashabbusi bilan chiqishdir. Shundan keyin ssenariylarni aniqlashtirish va yanada batafsillashtirish mumkin bo'ladi. Milliy sharh - bu milliy KYO' va UTB tizimini davriy yangilash va tahlil qilishni takomillashtirish vositasi hisoblanadi.

Sharhning yana bir maqsadi - keng jamoatchilik xabardorligini oshirish, shaxsiy va milliy rivojlanish uchun kattalar ta'limi va hayot davomida ta'lim olishning ahamiyati haqida axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Milliy sharh xalqaro hamjamiyat va mintaqadagi qo'shni davlatlar uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki u taqqoslash va tajriba almashish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.



KYO' va UTB chegaralarini belgilash muhim masala, chunki kattalar uchun qanday ta'lim dasturlari mavjud bo'lishi va davlat ushbu sohani qanday moliyalashtirishi bevosita unga bog'liqdir. Xalqaro nuqtai nazardan, KYO' va UTB ko'pincha maktab, professional va oliy ta'limdan so'ng hayot davomida ta'lim olishning "to'rtinchi ustuni" sifatida qaraladi³. Biroq har bir milliy tizimda KYO' va UTB chegaralari mamlakatning o'ziga xos sharoitlari va qonunchiligiga bog'liq bo'lib, bu boradagi milliy siyosatni tahlil qilishda buni hisobga olish zarur.

Ta'lim turlari kontekstidagi KYO' va UTB chegaralari

KYO' va UTBga ikki yondashuv mavjud: tor (an'anaviy) va keng (zamonaviy). Tor yondashuv tarixan shakllangan bo'lib, KYO' va UTB rasmiy ta'limni istisno qilgan holda norasmiy va informal ta'limni cheklaydi. Afzalliklari – ustuvor yo'nalishlar va aniq maqsadlarga yo'naltirish, xavf-xatarlar esa – inson kapitalining rivojlanishini sekinlashtirishi va ko'nikmalarning tez eskirishi hisoblanadi. Keng yondashuv KYO' va UTBni hayot davomida ta'lim olishning bir qismi sifatida ko'rib, kattalar ta'limining barcha turlarini o'z ichiga oladi. Afzalliklari – kattalarning har tomonlama rivojlanishi, xavf-xatarlar – resurslarni tarqalishi va boshqaruvning murakkabligi sanaladi.

Keng (zamonaviy) ma'noda talqin etish KYO' va UTB chegaralarini kengaytiradi, bunday hollarda hayot davomida ta'lim olishning asosiy tarkibiy qismi sifatida uning kattalar davriga nisbatan (asosan majburiy rasmiy tizimda o'qishni tugatgandan so'ng va odatda voyaga yetgan paytdan boshlab) ko'rib chiqiladi. Asosan bazaviy ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka ustuvor ahamiyat beriladigan, resurslari cheklangan rivojlanayotgan mamlakatlar o'z yondashuvlarida ko'proq an'anaviy KYO' va UTB talqiniga e'tibor qaratadilar. Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, Kanada, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar KYO' va UTBni hayot davomida ta'lim olishning ajralmas qismi deb bilishadi va bu tushunchaning keng talqinidan foydalanadilar.

YuNESKO va O'zbekistonning KYO' va UTBni ta'riflashga yondashuvi

KYO' va UTB global tushunchasini shakllantirishda YuNESKO muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotning tavsiyalarida ushbu tushunchaning keng ma'nodagi talqini keltirilgan va quyidagi muhim jihatlar ta'kidlanadi:

- **Qamrovlilik** - ta'limning barcha shakllari - rasmiy, norasmiy va informal shakllari hisobga olingan.
- **Maqsadga muvofiqlik** - kattalarni o'qitish ham individual ehtiyojlarni (shaxsiy rivojlanish, ishga joylashish), ham jamoatchilik ehtiyojlarini (jamiyat hayotida ishtirok etish) qondirishga qaratilgan.
- **Uzluksizlik** - kattalarni o'qitish hayot davomidagi uzluksiz jarayon ekanligi ta'kidlanadi.
- **Moslashuvchanlik** - ta'rif madaniy farqlarni hisobga oladi va qat'iy belgilangan yoshga bog'lanmaydi.

³Curriculum institutionALE, 2021, 3-bet. https://www.dvv-international.de/fileadmin/files/Inhalte_Bilder_und_Dokumente/Microsite_ALE_Toolbox/Curriculum_institutionALE/Curriculum_institutionALE_russ.pdf

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (YuNESKO ta'rifi)

KYO' va UTB hayot davomida ta'lim olishning markaziy tarkibiy qismidir. U barcha kattalarning o'z jamiyatlari hayotida va mehnat faoliyatida ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim olish va o'qishning barcha shakllarini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha rasmiy, norasmiy va informal ta'lim jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi, ular orqali o'zlari yashaydigan jamiyatlarda katta yoshda deb hisoblanadigan shaxslar ham o'z manfaatlarini, ham o'z jamoalari, tashkilotlari va jamiyatlari manfaatlarini yo'lida hayot va mehnat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantiradilar va boyitadilar. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish asosiy ko'nikmalarini egallash, tan olish va qo'llashga, shuningdek, ularni almashishga qaratilgan barqaror faoliyat va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aksariyat madaniyatlarda yoshlik va kattalar o'rtasidagi chegaralar har xil bo'lishi mumkinligi sababli, "kattalar" atamasi qonunda ko'zda tutilgan yoshga yetmagan bo'lsa ham, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishga jalb qilingan barcha shaxslarni anglatadi⁴.

Bugungi kunda KYO' va UTBni tushunishni kengaytirishda barqaror tendensiya kuzatilmoqda. Bunda KYO' va UTBni "tor" va "keng" talqin qilish o'rtasidagi chegaralar sezilmas bo'lib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlar KYO' va UTB doirasini kengaytirib, Hayot davomida ta'lim olishning muhimligini e'tirof etmoqda. Shu bilan birga, KYO' va UTB qadriyatlarini targ'ib qiluvchi ko'plab xalqaro tashkilotlar KYO' va UTBni talqin qilishga "keng" yondashilganda, uning roli va ahamiyati jamiyat va hukumatlar uchun noaniq ya'ni bunday vaziyatlarda KYO' va UTB "hamma joyda, lekin hech joyda aniq emas"dek bo'lib qolishi mumkinligidan xavotir bildirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 19-moddasi KYO' va UTBga bag'ishlangan bo'lib, unda YuNESKO ta'rifining birinchi qismi deyarli bir xil talqin qilinadi:

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunidagi ta'rif)

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun hayot davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi⁵.

KYO' va UTB keng tushunchada katta yoshli insonlar ishtirok etadigan O'zbekiston milliy ta'lim tizimining barcha turi, shakli va ko'rinishlarini⁶ qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, KYO' va UTBga quyidagilar kirishi mumkin:

- rasmiy ta'lim (tan olingan malaka (diplom, sertifikat) olishga olib boradigan va oliy o'quv yurtlari, texnikumlar kabi ta'lim muassasalarida taklif etiladigan dasturlarni o'z ichiga oladigan tarkibiy ta'lim (ikkinchi oliy yoki kasbiy ta'lim olish, oliy o'quv yurtlari/texnikumlarda malaka oshirish dasturlari va boshqalar).
- norasmiy ta'lim rasmiy malaka olishga olib kelmaydigan va aniq ko'nikmalar, bilim yoki kompetensiyalarga ega bo'lishga yo'naltirilgan tashkillashtirilgan ta'lim dasturlari (xorijiy

⁴Рекомендация 38-ой сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО «Об обучении и образовании взрослых», 2015 г., Париж https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245179_rus

⁵O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>

⁶Turlari – kasbiy ta'lim, oliy ta'lim va boshqalar. Ko'rinishi - rasmiy, norasmiy, informal. Shakllari - kunduzgi, sirtqi, masofaviy, dual va boshqalar. O'zbekiston ta'lim turlari va shakllari to'g'risida 2.4-bo'linmasida o'qing.

tilar kurslari, kompyuter savodxonligi, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha treninglar, ish joyida malaka oshirish kurslari).

- informal ta'lim (kundalik hayotda, ish joyida, oilada yoki jamiyatda o'tkaziladigan ta'lim). U aniq tuzilmaga ega emas, rasmiy malaka olishga olib kelmaydi (ish joyida o'qish, hamkasblar bilan muloqot qilish, kitob va maqolalarni o'qish, ta'lim videolarini ko'rish, o'z-o'zini o'rganish).

Shunday qilib, O'zbekistonda KYO' va UTB tushunchasini keng ma'noda talqin qilish qonuniy ravishda mustahkamlangan. KYO' va UTB doirasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari va KYO' va UTB chegaralarini belgilashga "keng" yondashuv tavakkalchiliklarini bartaraf etish va yumshatish bo'yicha takliflar mazkur sharhning "KYO' va UTBning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish istiqbollari" nomli 2.4-bo'linmasida batafsil keltirilgan.

Maqsadli guruhlar va ta'lim beruvchi tashkilotlar kontekstida KYO' va UTB chegaralari

"Tor" yoki "keng" talqin bilan belgilanadigan KYO' va UTB chegaralari tegishli ravishda ushbu sektorga jalb etilgan tashkilotlar va katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning turli doiralarini belgilaydi. "Katta yoshdagi o'quvchi"ning barcha mamlakatlar va barcha ta'lim tizimlari uchun rasmiy, yagona ta'rifi yo'q. Bu tushuncha ancha keng va ma'lum bir mamlakatga, ta'lim tizimiga va hatto o'ziga xos ta'lim muassasasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va Mehnat qonunchiligiga muvofiq, voyaga yetganlik yoshi 18 yoshni tashkil etadi. Biroq, KYO' va UTB nuqtai nazaridan, "kattalar" tushunchasi vaziyatga qarab farq qilishi va shu jumladan 18 yoshga to'lmagan, lekin turli ta'lim dasturlarida ishtirok etayotgan shaxslarni ham hisobga olgan holda yanada moslashuvchan bo'lishi mumkin. Masalan, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quvchilari o'zlarining sog'lig'i va ma'naviy kamolotiga zarar yetkazmaydigan, ta'lim jarayonini buzmaydigan o'qishdan bo'sh vaqtda - ota-onalaridan birining (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan o'n besh yoshga to'lgandan keyin yengil ishlarni bajarishga ruxsat beriladi ⁷.

"Katta yoshlilik/voyaga yetganlik"ni aniqlashning qo'shimcha mezonlari - fiziologik, psixologik, ijtimoiy, axloqiy yetuklikka, iqtisodiy mustaqillikka va mas'uliyatli o'zini o'zi boshqaradigan xulq-atvor uchun yetarli bo'lgan ong darajasiga erishishdir. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning bolalar va o'smirlardan asosiy farqlari motivatsiya, tajriba, tanqidiy fikrlash, mustaqillik, mas'uliyat, ta'limning amaliy xususiyatiga qaratilganligidan iboratdir.

Kattalar ta'limi to'g'risidagi Namunaviy qonunning yangi tahririda ⁸ katta yoshdagi ta'lim oluvchiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Kattalar ta'limi to'g'risidagi Namunaviy Qonun

Ushbu Qonun fuqarolik muomala layoqati yoshiga yetgan va haq to'lanadigan mehnat sohasiga jalb etilgan ta'lim faoliyati subyektlarini kattalar sifatida ko'rib chiqadi ⁹.

⁷O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 119-moddasi. 30.04.2023-y. <https://lex.uz/docs/-6257288>

⁸"Namunaviy qonun" - qonun normalarining tavsiyalari va namunalarini taklif etadigan, lekin majburiy yuridik kuchga ega bo'lmagan hujjat. Namunaviy qonun boshqa mamlakatlar yoki mintaqalar tomonidan o'z qonun hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan namunani yoki shablonni ifodalaydi. Mamlakatlar uning qoidalarini o'z milliy xususiyatlari va huquqiy tizimlariga moslashtirishi mumkin.

⁹Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning Parlamentlararo Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Kattalar ta'limi to'g'risidagi namunaviy qonun (25.11.2016-y.45-5-son qaror). https://iacis.ru/baza_dokumentov/modelnie_zakonodatelnie_akti_i_rekomendacii_mpa_sng/modelnie_kodeksi_i_zakoni

Ushbu Qonunda ta'lim olayotgan katta yoshli o'quvchilar jumlasiga quyidagi ijtimoiy guruhlar vakillari kiritilgan:

- odatda ta'lim olishga kiritilmagan aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlari (ishsizlar; nogironlar; zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar; ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslar; migrantlar);
- ta'lim markazlarining ish bilan band bo'lgan o'quvchilari;
- o'rta va oliy kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarning kechki va sirtqi bo'limlari talabalari;
- pedagogik ma'lumoti bo'lgan mutaxassislar va pedagogika mutaxassisliklar talabalari;
- izlanuvchilar;
- masofaviy shaklda u yoki bu kursni o'tayotgan shaxslar;
- ish joyida ta'lim oluvchilar (o'quvchilar);
- malaka oshirish kurslari va institutlari tinglovchilari;
- mehnat funksiyalari mazmuni o'zgarishi munosabati bilan qayta tayyorlash yoki malaka oshirishdan o'tayotgan shaxslar;
- yangi kasbni kurs yoki boshqa shaklda o'zlashtirayotgan shaxslar;
- rolli ta'lim dasturlari ishtirokchilari;
- havaskorlik yo'nalishidagi norasmiy ta'lim dasturlari ishtirokchilari;
- yo'naltirilgan o'z-o'zini o'qitish bilan shug'ullanuvchi shaxslar;
- haq to'lanadigan xodim maqomini biron-bir sababga ko'ra yo'qotgan shaxslar;
- boshqa ijtimoiy guruhlar vakillari.

Oliy o'quv yurtlarining kunduzgi ta'lim talabalari odatda KYO' va UTB tizimiga kirmaydi, ular ta'limning bir-biriga bog'liq bo'lgan kichik sektorini ifodalaydi, ammo ushbu Sharhda ular qisman ko'rib chiqiladi, chunki KYO' va UTB O'zbekiston qonunchilik hujjatlarida keng doirada talqin etilgan. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlari KYO' va UTBni rivojlantirishda tobora katta rol o'ynay boshladi. Bu ikki sektorning umumiy jihatlari bor – ikkalasi ham kattalar uchun mo'ljallangan, o'xshash o'qitish usullaridan foydalanishlari mumkin, ba'zan esa ular o'rtasida dasturlar va loyihalar bo'lishi mumkin, biroq oliy ta'limning o'ziga xos maqsad va vazifalari bor, bu esa uni kattalar ta'limidan ajratib turadi. Shu bilan birga, universitet va oliy o'quv yurtlari negizida ko'pincha kattalar uchun turli kurslar o'tkaziladi, demak, ularning kadrlar salohiyati va jihozlanishi KYO' va UTB sifatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'limni raqamlashtirish tajribasi KYO' va UTB sohasida ham qo'llanilishi mumkin. Oliy ta'limni KYO' va UTBni hayot davomida ta'lim olish (HDT) bilan integratsiyalash nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini tushuntiradigan boshqa sabablar ham mavjud:

- 2019-yildan boshlab O'zbekistonda oliy o'quv yurtiga kirishda yoshga oid cheklolar olib tashlandi ya'ni 40-70 yosh va undan katta yoshda ham talaba bo'lish mumkin.
- Ayrim yoshlar o'rta ma'lumotga ega bo'lganidan bir necha yil o'tib, ish stajiga ega bo'lib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishadi.
- Ikkinchi oliy ta'lim olayotgan talabalar ham mavjud (mehnat faoliyatidan keyin).
- Oilasi va bolalari bo'lgan talabalar katta yoshdagi ta'lim oluvchilar jumlasiga kiritilishi mumkin.
- O'zbekistonda sirtqi va masofaviy ta'lim shakli mavjudligi o'qishni ish bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.
- Aksariyat universitet talabalari o'zlarining o'qish maqsadlari to'g'risida aniq tasavvurga ega.
- Maktab o'quvchilariga qaraganda talabalar o'quv jarayonida mas'uliyatliroq va mustaqildirlar.

- Ko'pgina talabalar o'z o'qishlarida foydalanishlari mumkin bo'lgan hayotiy va kasbiy tajribaga ega.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, kelgusida oliy o'quv yurtlari o'z negizida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan yanada faol shug'ullanishini hamda butun hayot davomida o'qitish doirasida katta yoshdagi aholi uchun ma'rifiy va tushuntirish ishlarini olib borishini taxmin qilish mumkin.

O'zbekiston KYO' va UTB chegaralarini kengaytirar ekan, ba'zan ushbu sektorga kunduzgi ta'lim talabalarini qamrab oladi va kam ta'minlangan talabalarga, ayniqsa, qizlarga imtiyozlar beradi, bu esa jahon statistikasi uchun xos emas, chunki bu butun dunyo bo'ylab ma'lumotlarning taqqoslanishiga to'sqinlik qiladi, lekin oliy yoki kasbiy ta'limdan foydalanish milliy siyosatiga mos keladi. Hukumat bu borada salmoqli sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Masalan, o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishgan (kamida 80%) texnikum va oliy o'quv yurtlari talabalari foizsiz ta'lim krediti olishlari mumkin. Bu katta moliyaviy yuklamasiz ta'lim xarajatlarini qoplash imkonini beradi. Texnikum yoki oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishda grant olish uchun zarur bo'lgan ballning 80% ni to'plagan muhtoj oilalardagi bolalar uchun qo'shimcha grantlar ajratiladi. Bundan tashqari, moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalarining har biri grantlar ajratadi, ular hisobidan kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini kontrakt asosida o'qitish qiymatining 20% dan 80% gacha, fanlarni o'zlashtirish darajasiga qarab qoplanadi. 2025/2026-o'quv yilidan boshlab kam ta'minlangan oilalarning 3,5 ming nafar farzandlari "Kambag'allikdan farovonlikka" dasturi doirasida O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga bepul kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir kambag'al oilada, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida kamida bir kishi oliy ta'lim olishi uchun sharoit yaratish rejalashtirilgan¹⁰.

O'zbekistonning KYO' va UTB sohasidagi siyosatini shakllantirishdagi yana bir o'ziga xos xususiyat kasbiy ta'limga jiddiy e'tibor qaratilishidir. Ishsizlikni kamaytirish, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va texnologik o'zgarishlarga moslashish maqsadida davlat siyosatining ustuvorligi ushbu sohaga qaratilmoqda. O'zbekiston tomonidan KYO' va UTB bo'yicha muntazam Global hisobotlar (GRALE) uchun taqdim etiladigan katta yoshdagi aholining KYO' va UTBga jalb etilishi haqidagi statistik ma'lumotlar texnikumlar va oliy o'quv yurtlari talabalari kabi katta yoshdagi o'quvchilar toifalarini o'z ichiga oladi¹¹. Shunga ko'ra, O'zbekiston KYO' va UTB tizimi turli xil ta'lim tashkilotlarini o'z ichiga oladi:

- Davlat ta'lim muassasalari (birinchi va keyingi oliy ta'lim dasturlari, magistratura, doktorantura, shuningdek, kattalar uchun malaka oshirish dasturlarini taklif etuvchi oliy ta'lim muassasalari).
- Yangi ko'nikmalarni egallash yoki malaka oshirish istagida bo'lgan yoshlar va kattalar uchun kasbiy ta'lim va tayyorgarlikni ta'minlovchi texnikumlar (TVET).
- Ishsiz va ish qidiruvchilar uchun kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini tashkil etuvchi Kasbiy ko'nikmalar markazlari ("Ishga marhamat" monomarkazlari hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kasb-hunarga o'qitish markazlari negizida).

¹⁰Газета.UZ "O'zbekistonda kambag'al oilalar a'zolariga oliy ta'lim olish uchun shart-sharoitlar yaratiladi", 11.09.2024 <https://www.gazeta.uz/ru/2024/09/11/higher-education-for-everyone/>

¹¹Первый Глобальный отчет по обучению и образованию взрослых, стр. 60. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000186431> 5-й Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых: гражданское образование: расширение прав и возможностей взрослых для перемен, стр.

- KYO' va UTB sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik va idoralar.
- Kattalar uchun turli kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) va nodavlat ta'lim tashkilotlari (NTT).
- Kattalarning madaniy va ta'lim ehtiyojlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va tadbirlarini taklif etuvchi kutubxonalar va madaniyat markazlari.
- Ish joyida o'z xodimlari uchun o'qitish va malaka oshirishni tashkil etuvchi korxona va tashkilotlar.
- KYO' va UTB ni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi hamda xalqaro loyihalar va dasturlarni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Shunday qilib, O'zbekistonda KYO' va UTBga "keng" yondashish va bu atamaning qonunchilikda ta'lim turi (alohida tarmoq) sifatida emas, balki ta'lim shakli ¹² sifatida mustahkamlanishi deyarli barcha katta yoshdagi o'quvchilarni (odatda 18 yoshdan keyin) va u yoki bu darajada kattalarga qaratilgan ta'lim faoliyatida ishtirok etuvchi barcha tashkilotlarni qamrab oladi.

KYO' va UTBda gender chegaralari

O'zbekistonda gender tengligiga erishish va xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi¹³ qonunning qabul qilingani bu boradagi muhim qadam bo'lib, mamlakatda jinslar tengligini ta'minlashga, xususan, ta'lim va kasbiy rivojlanish sohasi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Shu munosabat bilan O'zR Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"¹⁴ gi qaroriga muvofiq ayollar uchun taqiqlangan kasblarning tarixan mavjud ro'yxati qayta ko'rib chiqildi. Ilgari taqiqlovchi xususiyatga ega ushbu ro'yxat tavsiyanomaga aylantirildi va ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kasblarga e'tibor qaratildi. Ushbu o'zgarish ayollar uchun KYO' va UTB doirasida kasbga o'qitish va keyinchalik malaka oshirish uchun yanada keng imkoniyatlar ochadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi ish beruvchilarga noqulay deb topilgan sharoitlarda ayollar mehnatini qo'llashga cheklovlar qo'yish huquqini beradi. Shu bilan birga, belgilangan me'yorlardan oshib ketadigan og'irliklarni ko'tarish va harakatlantirishni taqiqlash o'z kuchida qoladi ¹⁵. Bunday yondashuv ayollar salomatligini muhofaza qilish va ularga kasb tanlashda erkinlik berish o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash imkonini beradi. Bu turli tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan va ayollarga o'z kasbiy mahoratini oshirish, jumladan, o'qitish va malaka oshirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish imkonini beruvchi yanada moslashuvchan tizimni yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatimiz tomonidan og'ir va xavfli mehnat sharoitlarida (g'avvoslar, parashyutchi-o't o'chiruvchilar, buldozerchilar va boshqalar)¹⁶ mehnat qilayotgan ayollar salomatligini muhofaza qilishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

¹²Ta'lim turlari va shakllari to'g'risida batafsil 2.4-bo'linmasida o'qing.

¹³"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 02.09.2019-y. O'RQ-562-son. <https://lex.uz/docs/-4494849?ONDATE=12.04.2023>

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>

¹⁵O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktabr. <https://lex.uz/docs/-6257288>

¹⁶Ayollar mehnati to'liq yoki qisman qo'llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar (2019-yilda o'z kuchini yo'qotdi). <https://lex.uz/docs/-815783>

Mehnat sohasida ayollar duch keladigan ayrim cheklovlar ildiz otgan stereotiplarga borib taqaladi. Masalan, jamiyatda hali ham texnika fanlari ayollardan ko'ra erkaklarga ko'proq mos keladi, degan fikr mavjud. Ushbu g'oyalar ta'siri ostida qizlarda yoshligidan texnologiya sohasi ular uchun emas, degan ishonch paydo bo'ladi, shuning uchun ham, masalan, IT (axborot texnologiyalari) ga qiziqish erkaklar orasida ayollarga qaraganda yuqori. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham, garchi hech qanday institutsional taqiqlar bo'lmasa-da, hozirda bu sohada ayollar kamchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston ayollarning IT-sohadagi ishtirokini oshirish, turli dastur va loyihalarni, jumladan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish ustida faol ish olib bormoqda. Masalan, Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan birinchi IT Park ¹⁷ bir qancha muhim loyihalarni ¹⁸ ishga tushirdi:

- **IT Women-Karakalpakstan** (USAID bilan birgalikda Raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida). Ushbu dastur Qoraqalpog'istonda xotin-qizlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rgatadi. Loyiha doirasida 60 nafar ayol grafik dizayn va SMM bo'yicha bepul ta'lim oldi.
- **Ayollar Gap IT-klubi**. Ushbu munozara klubi IT-sohada xotin-qizlarning yetarli emasligi muammosini hal etishga qaratilgan. Klub ekspertlar va mehmonlar bilan uchrashuvlar tashkil etadi.
- **Digital Internship Program**. Ushbu amaliyot dasturi IT-bitiruvchilari va boshlang'ich darajadagi mutaxassislariga IT kompaniyalarida ishlash tajribasiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Amaliyotni 53 nafar qiz tugatdi, shundan 23 nafari ishga joylashtirildi, qolganlari esa amaliyotni davom ettirdilar.
- **YeXHT dasturi Astrum IT-akademiyasi bilan birgalikda** IT-ko'nikmalar va raqamli marketing sohasida tadbirkor ayollarning malakasini oshiradi. 150 nafar ayol axborot texnologiyalari va kompyuter savodxonligi bo'yicha o'qitildi, 90 nafar ishtirokchi esa elektron tijorat va raqamli marketingda IT-vositalar bo'yicha malaka oshirishning ikkinchi bosqichiga qo'yildi.

Ushbu tashabbuslar O'zbekistonning gender stereotiplarini yengib o'tish va xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish istagini namoyon etadi. Bunday dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat IT-sohada ayollar sonini ko'paytirishga xizmat qiladi, balki mamlakatning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga ham salmoqli hissa qo'shadi. KYO' va UTB sohasidagi ta'lim tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ayollarning kasbiy o'sishi, shu jumladan, texnologiya sohasida ham malakasini oshirishga qulay muhit yaratadi.

O'zR Prezidentining 2025-yil mart oyida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹⁹ 2025-yilda ayollarni qo'llab-quvvatlashning quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarini belgilaydi: 2 mln. nafar xotin-qizning bandligini ta'minlash; 250 000 ayolni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish; 250 000 ayolni oliy ta'lim bilan qamrab olish; sanatoriylarda sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlashga muhtoj 50 ming ayolning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha motivatsion seminarlar tashkil etish.

¹⁷Axborot-texnologiya parki <https://it-park.uz/uz/itpark/about>

¹⁸Women in tech — лучший способ решить проблему нехватки IT-специалистов. Как с этим обстоят дела в Узбекистане? <https://it-park.uz/uz/itpark/news/women-in-tech-it-mutaxassislar-yetishmovchiligi-muammosini-hal-qilishning-eng-samarali-usuli-o-zbekistonda-bu-bo-yicha-holat-qanday>

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-103-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-7433397>

KYO' va UTBning tematik chegaralari

Tematik jihatdan O'zbekistonda KYO' va UTB chegaralari YuNESKO tavsiyalariga javob beradi, unga muvofiq ushbu ta'lim sektori kamida uchta muhim yo'nalishni qamrab olishi kerak: savodxonlik va tayanch ko'nikmalari; uzluksiz kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish; shuningdek, keng dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar, fuqarolik javobgarligi, madaniyatlararo muloqot, ijodkorlik, innovatsiyalar va atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatni rivojlantirishni nazarda tutuvchi liberal ta'lim. Liberal ta'lim kattalarga dunyoni yaxshiroq tushunishga, asosli qarorlar qabul qilishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. O'zbekistonda uchta yo'nalish ham KYO' va UTB tizimida mavjud, ammo bunda ma'lum bir o'ziga xoslik bor - mamlakatda savodxonlik deyarli 100% ko'rsatkichga yetganligi sababli (o'qish, sanash, yozish va boshqalar)²⁰, bu sohada asosiy e'tibor kompyuter, moliya, til va boshqa turdagi savodxonlikka qaratiladi. KYO' va UTBning barcha uchta yo'nalishi hayot davomida ta'lim olish kontekstida ko'rib chiqiladi.

Shu tariqa, O'zbekiston xalqaro standartlarga mos va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda KYO' va UTB tizimini rivojlantirishga intilayotganini namoyish etmoqda. KYO' va UTBni yanada samarali rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, barcha toifadagi fuqarolar, jumladan, xotin-qizlar uchun ta'lim resurslaridan foydalanishni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Bunday kompleks yondashuv hayot davomida ta'lim olishning asosiy tarkibiy qismi sifatida KYO' va UTB salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shish imkonini beradi.

Zamonaviy dunyoda KYO' va UTBning dolzarbligi



Zamonaviy muammolar va KYO' va UTB

KYO' va UTB jamiyat, iqtisodiyot va shaxsni rivojlantirishda tobora muhim tarkibiy qismga aylanib bormoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, iqlim muammolari va mehnat bozoridagi tez o'zgarishlar sharoitida kattalarni o'qitish barqaror rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan holda bugungi kun talablariga javob beradi. Raqobatbardosh bo'lish uchun ko'nikma va bilimlarni doimiy ravishda yangilab borish zarur.

Globallashuv jahon mehnat bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Muvaffaqiyat uchun nafaqat asosiy bilim, balki kasbiy ko'nikmalarni doimiy ravishda takomillashtirish, chet tillarni bilish, xalqaro jamoalarda ishlash qobiliyati ham zarur.

Dasturlash, axborot texnologiyalari, kompyuter grafikasi, veb-dizayn, tibbiyot, amaliy ilmiy-tadqiqotlar va boshqa ko'plab sohalarda bilimlar bir necha oy yoki hatto hafta davomida eskirishi mumkin. Mehnat bozoridagi o'zgarishlar ham tezlashdi - an'anaviy ish o'rinlari yo'qolib, yangi kasblar va bandlik shakllari paydo bo'lmoqda.

Kattalarni o'qitish malakalakasini oshirish, yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish va bu o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi. Yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish o'zini o'zi qadrlash, martaba o'sishi uchun yangi istiqbollar ochadi hamda ish haqini oshirish, hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'lim dunyoqarashni kengaytiradi, intellektual faollikni rag'batlantiradi, tanqidiy fikrlash, yangi ko'nikma va qiziqishlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'zini va atrofdagi olamni chuqurroq tushunishga olib keladi.

Umumiy umr ko'rish davomiyligi ortib borayotgan bir paytda o'qitish tufayli faol mehnat faoliyati davri ham ortib bormoqda. Onlayn kurslarning paydo bo'lishi kattalarga qulay vaqtda va qulay muhitda ta'lim olish imkonini beradi. KYO' va UTB XXI asrning quyidagi global muammolariga javob berish imkonini yaratadi:

- kambag'allik;
- ekologik muammolar;
- mahalliy nizolar, beqarorlik, radikallashuv;
- migratsiya;
- ijtimoiy tengsizlik;
- raqamlashtirish va texnologik o'zgarishlar;
- ishsizlik va mehnat xususiyatining o'zgarishi;
- pandemiya va inson salomatligiga tahdid soluvchi global inqirozlar.

Ushbu muammolar mamlakatlarni xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga, KYO' va UTB va hayot davomida ta'lim olishni davlat siyosatining muhim tarkibiy qism sifatida kiritishga undaydi. KYO' va UTB YuNESKO, IHTT, Jahon banki, DVV International kabi xalqaro tashkilotlar uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, ular dunyo bo'ylab zamonaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va demokratik institutlarni mustahkamlash uchun ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashmoqda va doimiy o'zgarishlarga moslashishni ta'minlamoqda.

Raqamlar va faktlar

KYO' va UTBga qilingan investitsiyalar iqtisodiyot o'sishini malaka va bandlikni oshirish, ishsizlikni qisqartirish, mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish kabi ko'rsatkichlar orqali rag'batlantiradi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kattalar ta'lim darajasi va mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Jahon banki ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, o'qitishning har bir yili uchun ta'limning o'rtacha "o'zini qoplash" ko'rsatkichlari dunyo bo'yicha o'rtacha 10% ni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, oliy o'quv yurtlarida o'qish davrida (bakalavriat va magistratura) ish haqi 40-60% ga oshiriladi.

O'zbekistondagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) xodimlari Jizzax viloyatida o'tkazilgan o'rganish natijalariga asosanib, oliy ta'limning "o'zini oqlashi"ni ekonometrik tahlil qilib, quyidagi natijalarga erishdilar:

- oliy ta'lim ish haqini 50% gacha oshirishni ta'minlaydi;
- ish tajribasiga ega bo'lish ish haqini 5% gacha oshiradi;
- ayollarda olingan ta'limni qaytarish darajasi erkaklarnikiga nisbatan yuqori – 73% ga 42% nisbatda.

Ekspertlar kelgusi avlodlar daromadini oshirishning muhim ustuvor yo'nalishi sifatida oliy ta'limni ommalashtirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur, degan xulosaga keldi²¹.

²¹Как высшее образование влияет на зарплату (2022). Н. Ибрагимова, руководитель проекта ИПМИ. <https://imrs.uz/files/publications/en/970983.pdf>

O'zbekiston uchun KYO' va UTBning ahamiyati

KYO' va UTB quyidagi omillar tufayli mamlakat rivojlanishining muhim yo'nalishi hisoblanadi:

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi;
- iqtisodiyotning bir qator tarmoqlarida mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi;
- ta'lim dasturlari har doim ham mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob bermaydi;
- hududlarning rivojlanish darajasidagi farqlar manzilli o'qitish va malaka oshirish dasturlariga ehtiyoj tug'diradi;
- aholining bir qismi, ayniqsa qishloq joylarida ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan;
- umr ko'rish davomiyligining oshishi va tug'ilishning kamayishi bilan katta yoshdagi aholi ulushi ortadi ²² ;
- ichki va tashqi migratsiya²³ yangi yashash va mehnat sharoitlariga moslashishni talab qiluvchi yangi ijtimoiy guruhlarni yaratadi;
- raqamlashtirish va masofaviy ta'lim faol rivojlanadi, raqamlashtirish hayot davomida ta'lim olishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Ayniqsa, mamlakat oldida turgan zamonaviy global tendensiyalar va vazifalar fonida hayot davomida ta'lim olish konsepsiyasi nuqtai nazaridan O'zbekiston uchun KYO' va UTBning rolini ortiqcha baholash qiyin. Tez o'zgarib borayotgan dunyo, texnologik va iqtisodiy taraqqiyot sharoitida hayot davomida ta'lim olish raqobatbardoshlikni saqlash zaruriyatiga aylanib bormoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib, davlatning ustuvor e'tiboriga loyiqdir.

Xalqaro hamjamiyat KYO' va UTBning roli to'g'risida

2022-yil iyun oyida Marokash shahrida bo'lib o'tgan Yettinchi xalqaro kattalar ta'limi konferensiyasida (CONFINTEA VII) qabul qilingan Marokash harakatlar ramkasi (MHR)²⁴, KYO' va UTB quyidagi muammolarni hal qila oladigan harakatlar uchun kuch ekanligini ta'kidlaydi:

- ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash;
- ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishni takomillashtirish;
- tinchlikni ta'minlash va demokratiyani mustahkamlash;
- madaniy o'zaro anglashuvni yaxshilash;
- kamsitishning barcha turlarini bartaraf etish;
- tinch-totuv yashashni rag'batlantirish;
- faol va global fuqarolik.

O'zbekiston uchun ham, boshqa mamlakatlar uchun ham MHR 2030-yilgacha KYO' va UTB sohasida milliy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

²²UPL.UZ. «В Узбекистане начала падать рождаемость», 30.01.2025. Население Узбекистана продолжает расти, но темпы его роста замедляются из-за снижения рождаемости. <https://upl.uz/obshestvo/48583-news.html> Согласно международным критериям, Узбекистан входит в число стран, «находящихся на грани демографического старения». <https://www.uzembassy.org.tr/news/3699>

²³Emigrantlarga ham, immigrantlarga ham yangi mehnat va turmush sharoitlariga (til o'rganish, huquqiy savodxonlik, kasbiy, ijtimoiy-madaniy, moliyaviy ta'lim va boshqalar) muvaffaqiyatli moslashish uchun kompleks ta'lim talab etiladi).

²⁴Марракешские рамки действий CONFINTEA VII «Использование трансформационного потенциала обучения и образования взрослых» (2022) Коллективный автор: Институт ЮНЕСКО по обучению на протяжении всей жизни https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382306_rus

«We are ale!» Butunjahon kampaniyasi



«We are ale!» kampaniyasi (Biz hammamiz - bu KYO' va UTBmiz!)²⁵ butun dunyo bo'ylab KYO' va UTBning sheriklari, shu jumladan KYO' va UTBni yanada ko'zga ko'rinadigan, tushunarli va jahon hamjamiyati uchun qadrli qilishga birlashgan tarmoqlar, uyushmalar va tashkilotlarning ochiq ittifoqidir. Besh yillik kampaniyaning ochilish marosimi 2021-yil 22-mart kuni bo'lib o'tdi. U amaliyotchi mutaxassislar, o'quvchilar va fuqarolik jamiyati vakillarini birlashtiradi, bu ularga butun dunyoda KYO' va

UTBni ommalashtirish uchun yagona front vazifasini bajarish imkoniyatini beradi. Alyans KYO' va UTBning adolat, farovonlik va o'zgarishlar uchun asosiy ahamiyatini e'tirof etadi.

Kampaniya doirasida KYO' va UTB ushbu tushunchaning keng ma'nosida tushuniladi va ta'limning barcha (rasmiy, norasmiy va informal) ²⁶ shakllarini o'z ichiga oladi. Kampaniya ushbu maqsadga erishish uchun aniq qadamlarni taklif qiluvchi harakatga chorlaydi. DVV International bu kampaniyaga qo'shildi va hukumatlar, donorlar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar tomonidan KYO' va UTBda ishtirok etish va sarmoyalarni oshirishni targ'ib qilish uchun butun dunyo bo'ylab boshqa tarafdorlari bilan ittifoq tuzdi.

Shunday qilib, KYO' va UTB nafaqat muhim, balki zamonaviy jamiyat, iqtisodiyot va shaxslarning barqaror rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir va shuning uchun milliy rivojlanish strategiyalarida asosiy o'rinni egallaydi, hayot davomida ta'lim olish va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu barcha uchun barqaror, adolatli va farovon kelajakni qurishning yagona yo'lidir.

1. O'ZBEKISTONNING XALQARO TA'LIM MAKONIGA INTEGRATSIYALASHUVI

1.1. O'zbekistonning KYO' va UTB sohasidagi davlat siyosati va unda xalqaro trendlarni aks ettirishi

O'zbekistonning dunyoga ochiqligi, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va barqaror rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish O'zbekiston siyosatining doimo ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan ta'limni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishish imkonini berdi. Hukumat ta'lim tizimini, jumladan, KYO' va UTBni har tomonlama rivojlantirish uchun katta kuch va resurslarni yo'naltirmoqda. Bu boradagi dolzarb vazifalar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi kabi konseptual va strategik hujjatlarda o'z aksini topgan.

²⁵«We are ale!» kampaniyasi sayti www.we-are-ale.org

Видеоролик «We are ale» на русском языке

https://www.youtube.com/watch?v=pl1A1EmZEJc&list=PL_O93zRgKpY23ZmLDjfsXNjIcamrjZce&index=2

²⁶O'zbek tilidagi «We are ale!» videoroligi

https://www.youtube.com/watch?v=dNSTB_3GTOY&list=PL_O93zRgKpY23ZmLDjfsXNjIcamrjZce&index=4

ingliz tilida: https://www.youtube.com/watch?v=jsnXieDxF6U&list=PL_O93zRgKpY23ZmLDjfsXNjIcamrjZce&index=1

Davlat KYO' va UTBning barcha ko'rinishlari, shakllari va turlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun zarur shart-sharoit yaratish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. 2023-yildan boshlab mamlakatning har bir mintaqasida kamida bitta texnikumda kasbiy ta'limining Yevropa standartlari joriy etiladigan dastur amalga oshirilmoqda. Kelgusi besh yilda bu tizim barcha texnikumlarni qamrab oladi. 2025-yil fevral oyidan boshlab Samarqand viloyati va Toshkent shahrida kam ta'minlangan oilalar a'zolarini o'qitish uchun vaucher tizimini sinovdan o'tkazish boshlandi. Yil mobaynida mazkur tizim respublikaning barcha hududlarida joriy etiladi²⁷. Uning afzalligi ishsiz fuqarolarga "pul ta'lim oluvchilarga ergashadi" tamoyili asosida o'quv yurtini mustaqil tanlash huquqini berishdir. Ushbu dasturda ishtirok etish uchun xususiy va nodavlat ta'lim tashkilotlari ham taklif etilgan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining kasbiy ko'nikmalari markazlarida 2025-yil fevral oyidan boshlab ish beruvchilarning arizalari asosida ishsizlar, jumladan, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi joriy etildi. Moliyalashtirish Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, 2025-yil fevral oyidan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar reestriga kiritilgan va 3 oydan ortiq davom etadigan o'quv kurslariga o'qishga kirgan kam ta'minlangan oilalar a'zolari uchun kasb-hunar o'rgatish uchun stipendiyalar ajratilmoqda.

O'zbekiston ijtimoiy siyosatida kambag'allikni qisqartirishga, jumladan, KYO' va UTB orqali kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi faol ishlar 2020-yilda, O'zbekiston ushbu muammoni ochiq tan olib, uni hal etish bo'yicha dasturlarni ishga tushirgandan so'ng boshlandi. Bugungi kunda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sifatida faoliyat yuritayotgan kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha maxsus davlat boshqaruvi organi tashkil etildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" nomli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

2021-yildan boshlab kam ta'minlangan shaxslarni **"Ijtimoiy himoya yagona reestri"** axborot tizimiga kiritish orqali hisobga olish mexanizmi joriy etildi, bu esa oilalarga qo'shimcha byurokratik tartib-qoidalarsiz avtomatik tarzda o'zlariga tegishli ijtimoiy yordam olish imkonini beradi ²⁸.

"Temir daftar" - muhtoj oilalar va fuqarolarni hisobga olish va ularga yordam ko'rsatish, shu jumladan ta'lim berish tizimi.

"Yoshlar daftari" - og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizim. Qo'llab-quvvatlash dasturi zarur hollarda o'qitishni ham o'z ichiga oladi.

"Ayollar daftari" - og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizim. Ushbu daftarlarga kiritilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orasida moddiy yordam ajratishdan tashqari, ta'lim olish, iqtisodiy va huquqiy yordam ko'rsatish, o'qish va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish amaliyotga tatbiq etilmoqda.

²⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda Aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7327821>

²⁸Гулноза Саттарова, главный научный сотрудник Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, кандидат юридических наук «Обеспечение конституционных прав граждан - основной вектор реализации социальной политики Узбекистана» <https://uzembassy.uk/news/1013?language=uz>

Mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO) bilan hamkorligi O'zbekistonda KYO' va UTB hamda hayot davomida ta'lim olishni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston 1992-yilda BMTga yangi suveren va mustaqil davlat sifatida a'zo bo'lgan bo'lsa, 1993-yilda Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Hamkorlik, birinchi navbatda, barcha uchun inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BRM 4 ga erishish kontekstida amalga oshiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston taraqqiyotiga ko'maklashish bo'yicha doiraviy dasturi (YuNDAF) O'zbekiston hukumati va BMT o'rtasida o'rta muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik vositasidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) O'zbekistonda ta'limni, jumladan, kattalar ta'limi kontekstida kasbiy ta'limini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda. Mazkur loyihalar xodimlarning malakasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan.

1993-yildan buyon O'zbekiston YuESKOning to'laqonli a'zosi bo'lib, mamlakatning tashkilot dastur va tashabbuslarida faol ishtirok etishini ta'minlab kelmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston CONFINTEA kabi kattalar ta'limiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya va forumlarda ishtirok etadi va KYO' va UTB bo'yicha muntazam Global hisobotlari (GRALE) uchun KYO' va UTBga oid statistik ma'lumotlarni taqdim etadi.

YuNESKO madaniy merosni asrab-avaylashda O'zbekistonni qo'llab-quvvatlaydi, bu ham ta'lim dasturlarida muhim o'rin tutadi. BMT va YuNESKO bilan hamkorlik O'zbekistonda Milliy ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi, uni yanada inklyuziv, sifatli va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beradi.

1995-yilda O'zbekiston Fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasidagi Xalqaro Paktga²⁹ qo'shildi. Shunday qilib, hukumat yuqorida qayd etilgan hujjatda mustahkamlangan huquq va erkinliklarni, shu jumladan ta'lim olish huquqini himoya qilish va ilgari surish bo'yicha xalqaro majburiyatini tan oldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning kafolatidir

2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasida³⁰ ta'lim to'g'risidagi modda, jumladan, kattalar ta'limi nazarda tutilgan qismi (garchi bu atama ishlatilmasa ham) sezilarli darajada kengaytirildi. Konstitutsiyada birinchi marta uzluksiz ta'lim haqida so'z yuritiladi. Konstitutsiya oliy ta'limning tanlov asosida mavjudligini kafolatlaydi. Davlat fuqarolarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi va rag'batlantiradi.

²⁹Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt. 28.12.1995. <https://lex.uz/docs/-2686000>

³⁰O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023-y. <https://lex.uz/docs/-6445145>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi. **43-modda.**

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, **50-modda.**

Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. **51-modda.**

Ana shu va boshqa muhim o'zgarishlar Konstitutsiyaning yangi tahriri KYO' va UTB sohasidagi huquq va imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytirganini ko'rsatadi.

2030-yil Kun tartibi. KYO' va UTB BRM 4 nuqtai nazaridan



O'zbekiston hukumati 16 ta milliy BRMni qabul qilish orqali milliy rivojlanish ustuvorliklarini Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan birlashtirish niyatini tasdiqladi. 125 ta milliy maqsad va 190 ta ko'rsatkich aniqlangan bo'lib, ulardan 128 tasi bo'yicha ma'lumotlar Statistika agentligi portalida e'lon qilingan³¹.

Ikkita Ixtiyoriy Milliy Sharh (Birinci³² – 2020-yilda va Ikkinchi³³ – 2023-yil iyul oyida) Hukumatning milliy BRMni mamlakat va tarmoq taraqqiyot dasturlariga integratsiyalashuvini davom ettirish va islohotlarni amalga oshirishdagi rivojlanishni monitoring qilish va baholashda BRMga tayanish niyatini tasdiqlaydi.

2030-yil Kun tartibining maqsadlaridan biri (BRM 4) ta'lim, jumladan, kattalar ta'limi sohasidagi muammolarni hal etishga qaratilgan.

2030-yil Kun tartibi - BRM 4

“Har tomonlama adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va har bir inson uchun hayot davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish”

O'zbekistonda BRMni amalga oshirish 2017-2021-yillarga mo'ljallangan milliy Harakatlar strategiyasi³⁴ doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga to'g'ri keldi, uning beshta ustuvor yo'nalishi global BRMga mos deb topildi. Hozirda amalga oshirilayotgan “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”³⁵ ham barcha BRMlarga mos keladi va ular bilan o'zaro uyg'un bog'liqdir.

³¹O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. <https://nsdg.stat.uz/uz>

³²Первый Добровольный Национальный обзор о реализации Повестки дня до 2030 года в области устойчивого развития. 2020.

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/26381VNR_2020_Uzbekistan_Report_Russian.pdf

³³Второй Добровольный Национальный Обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года https://api.mf.uz/media/document_files/DNO_IPMI_ru.pdf

³⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida” PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3107036>

³⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturu to'g'risida”gi PF-27-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6396146>


BMT Bosh Assambleyasining 2022-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan 77-sessiyasida "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiya qabul qilinib, O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan tashabbus qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston parlamenti huzurida BRMning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha maxsus Parlament komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi, unga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, ilmiy muassasalar, mutaxassislar va olimlar, shuningdek, BMT agentliklari vakillari va mas'ul xodimlari taklif etiladi.

2019-yilda BMT Taraqqiyot dasturining texnik ko'magida Respublikada BRM yutuqlarini monitoring qilish va joriy vaziyat to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni tarqatish uchun BRMga erishish ko'rsatkichlari bo'yicha Milliy³⁶ veb-sayt ishlab chiqildi. Veb-sayt konsepsiyasi ilg'or texnologik va metodologik ishlanmalar hamda ushbu sohadagi so'nggi innovatsiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. U har qanday darajadagi tafsilotlarga ega bo'lgan yangi ko'rsatkichlarni, shuningdek, ular uchun uslubiy ma'lumotlarni hech qanday dasturiy ta'minotdan foydalanmasdan yuklab olish imkonini beruvchi qulay interfeysga ega. BRM veb-sayti O'zbekistonda BRMga erishishdagi yutuqlarni tahlil qiluvchi va kuzatuvchi milliy va xalqaro foydalanuvchilar uchun ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

2022-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha monitoring va jamoatchilikni xabardor qilish borasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha eng ilg'or tajribaga ega 87 mamlakat qatoriga kirdi. Bu haqda ma'lumot Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limining rasmiy veb-sahifasida joylashtirildi³⁷.

2019-2023-yillar uchun axborot va statistik monitoring natijalari, asosan, KYO' va UTBda gender tengligi bilan bog'liq BRM 4 ko'rsatkichlarining ijobiy o'sish dinamikasini ko'rsatadi (BRM 5). So'nggi yillarda yosh ayollarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi oshdi, lekin hali ham erkaklarnikidan past (1,9 f.p.).

1-diagramma.



* "O'zbekiston Respublikasida Barqaror rivojlanish maqsadlari" Statistik to'plami manbasi asosida tuzilgan, 2024-yil³⁸.


³⁶<https://nsdg.stat.uz/uz>

³⁷Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi veb-sayti. <https://unstats.un.org/wiki/display/sdgGoodPractices/Countries%3A+SDG+platform+-+2022#Countries:SDGplatform2022-Uzbekistan>


³⁸"O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish maqsadlari" statistik to'plami. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024-yil. - 68 b. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining veb-portalida quyidagi manzilda e'lon qilindi: <https://nsdg.stat.uz/publications/28>

2021-yildan boshlab har yili 3 mingdan ziyod qizga alohida grantlar ajratilmoqda. Xotin-qizlarni oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun banklarga davlat budjetidan mablag' ajratishning yangi tizimi joriy etildi. Shu bilan birga, har ikki jinsdagi yoshlarning o'rta, maxsus ta'limdagi ishtiroki kamaygani 2024-yilda ushbu ta'lim turini isloh qilishni, shu jumladan texnikumlarning yagona tarmog'ini yaratish orqali isloh qilishni taqozo etdi.

2-diagramma.



3-diagramma.



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'nikmalariga ega bo'lgan aholi ulushi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'rtacha 3-4 f.p.ga oshdi.

Ko'rsatkichlarning ozgina pasayishi (0,4 f.p.) "davlat va nodavlat umumta'lim muassasalarida talab etiladigan eng kam malakaga (pedagogik ma'lumot) ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi" indikatori bo'yicha kuzatilmoqda. O'zR Prezidentining bir qancha farmonlari o'qituvchilar malakasini oshirishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy natijasi ushbu natijalarni xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishidir. Masalan, SDSN³⁹ xalqaro mustaqil tashkiloti tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan reytingda O'zbekiston 71,1 ko'rsatkich bilan 166 mamlakat orasida 69-o'rinni egallab, 8 pog'onaga ko'tarildi (2022-yilda 77-o'rin)⁴⁰. Bu shuni ko'rsatadiki, mamlakat "barcha BRM bo'yicha eng yaxshi natijaga erishish yo'lining" o'rtacha 71,1 foizini bosib o'tdi. Sharhda 11 ta BRM, shu jumladan BRM 4 bo'yicha ko'rsatkichlarning ijobiy o'sishi qayd etildi.

BRM samaradorligini ta'minlash boshqa xalqaro reyting va indekslar bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. 2024-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi⁴¹. Farmonda "ta'lim" xalqaro reyting va indekslarining ustuvor sohalaridan biri sifatida belgilangan. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda takomillashtirilgan "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona portalini ishga tushirish va kelgusida uning barqaror ishlashini ta'minlash topshirig'i berildi.

³⁹Sustainable Development Solutions Network (Barqaror rivojlanish sohasida yechimlar ishlab chiqish tarmog'i)

⁴⁰Sustainable Development Report 2024. The SDGs and the UN Summit of the Future Includes the SDG Index and Dashboards. <https://s3.amazonaws.com/sustainabledevelopment.report/2024/sustainable-development-report-2024.pdf>

⁴¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-91-son Farmoni, 20.06.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6975276>

Portalda ustuvor xalqaro reyting va indekslarning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni shakllantirish, ularning ijrosini monitoring qilish va tahlil qilish tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

O'zbekistonning ayrim xalqaro reytinglardagi o'rni

(yil; O'zbekistonning egallagan o'rni; reytingda ishtirok etuvchi davlatlar soni)

- Barqaror rivojlanish maqsadlari 2023 – 69/166
- Korruptsiyani idrok etish indeksi 2023 – 121/180
- Iqtisodiy erkinlik indeksi 2023 – 109/176
- Jahon innovatsiyalar indeksi 2023 – 82/132
- BMT Inson taraqqiyoti indeksi 2022 – 101/190
- Gender rivojlanish indeksi 2021 – 101/191
- Globallashuv indeksi 2023 – 132/196
- Demokratiya indeksi 2023 – 148/167
- Matbuot erkinligi indeksi 2023 - 137/180
- Internetga ulanish tezligi 2023 - 91/144
- Butunjahon baxt to'g'risidagi ma'ruza 2023- 54/137
- Yalpi ichki mahsulot bo'yicha mamlakatlar ro'yxati 2022 - 58/200
- Qonun ustuvorligi reytingi 2023 - 78/142
- Internet erkinligi reytingi 2023- 25/100
- Elektron hukumatning xalqaro reytingi 2022- 69/193

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan BRM 4 maqsadlaridan faqat ikkitasi (maktabgacha va maktab ta'limi bo'yicha KYO' va UTBga tegishli emas. Qolganlarning hammasi u yoki bu tarzda katta yoshdagi o'quvchilarning manfaatlariga ta'sir qiladi. 1-jadvalda BRM 4 ning KYO' va UTBga taalluqli vazifalari va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsadlari taqqoslanadi. Amalda BRM 4 ning barcha vazifalari ushbu Strategiya bilan qamrab olingan (1-jadval).

BRM 4 ning KYO' va UTB sohasidagi maqsad va vazifalari va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi maqsadlarini taqqoslash

1-jadval.

4-Milliy maqsad “Har tomonlama va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va hayot davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish”	
KYO' va UTB sohasidagi milliy vazifalar	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi maqsadlari
4.3-vazifa. 2030-yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklar uchun arzon va sifatli o'rta maxsus, oliy, kasb-hunar va qo'shimcha ta'limdan teng foydalanishni ta'minlash.	37-maqsad. Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 mln. nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.
4.4-vazifa. 2030-yilgacha, ishga joylashtirish, munosib ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik uchun mehnat bozorida yuqori talabga ega ko'nikmalarni, shu jumladan kasbiy va texnik ko'nikmalarni egallagan, yoshlar va kattalar sonini sezilarli darajada oshirish.	37-maqsad. Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 mln nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.

4.5-vazifa. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim va kasb-hunar ta'limining barcha darajalaridan teng foydalanishini, shuningdek, nogiron bolalarning manfaatlarini hisobga olgan holda ta'lim muassasalari sharoitlarini yaxshilash orqali barcha uchun xavfsiz va samarali ta'lim muhitini ta'minlash.	66-maqсад: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish
4.7-vazifa. 2030-yilgacha barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun barcha o'quvchi va talabalar zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash. 4.a-vazifa. Barcha uchun xavfsiz va samarali ta'lim muhitini ta'minlaydigan ta'lim muassasalari sharoitlarini yaxshilash. 4.b-vazifa. 2030-yilgacha oliy ta'lim muassasalarida o'qish uchun ajratiladigan kreditlar va grantlar, jumladan, xalqaro kreditlar va grantlar miqdorini oshirish choralarini ko'rish.	70-maqсад: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.
4.c-vazifa. 2030-yilgacha malakali o'qituvchilar sonini, jumladan, o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi xalqaro hamkorlik orqali sezilarli darajada oshirish.	44-maqсад: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

* Ikkinchi “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ixtiyoriy milliy Sharh” (“2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ikkinchi ixtiyoriy milliy Sharh”) materiallari asosida tuzilgan. https://api.mf.uz/media/document_files/DNO_IPMI_ru.pdf

Barqaror rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishga nafaqat xalqaro hujjatlar, balki mamlakatda qabul qilingan boshqa strategik hujjatlar ham yordam bermoqda. 2020-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya tasdiqlandi⁴². Hujjat 2030-yilgacha bo'lgan davrda BRMga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, BMTning «Hech kimni ortda qoldirmaslik» tamoyiliga muvofiq nogironlar va kam ta'minlangan aholi toifalari huquqlarini himoya qilishni ta'minlashni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri quyidagicha shakllantirilgan:

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi

Hayot davomida ta'lim olish imkoniyatlarini rag'batlantirish, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'rta maxsus, oliy, kasb-hunar va qo'shimcha ta'limning barchaga ochiqiligini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida o'qish kvotalari oshirish

Ushbu strategiyaning asosiy qoidalarini amalga oshirish maqsadida Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga, shu jumladan, har bir insonning hayot davomida ta'lim olish huquqiga rioya etilishini monitoring qilish bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etildi.

“CONFINTEA” KYO' va UTB bo'yicha xalqaro konferentsiyalari

Global miqyosda KYO' va UTB rivojlanishining umumiy tendentsiyalari YuNESKO homiyligida o'tkaziladigan va kattalar ta'limini rag'batlantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan kattalar ta'limi bo'yicha CONFINTEA⁴³, xalqaro konferentsiyalari tomonidan belgilanadi. Ushbu

⁴²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6012-son Farmoni, 22.06.2020-y. <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

⁴³CONFINTEA (fransuzcha – CONFérence INternationale sur l'Education des Adultes) – kattalar ta'limi bo'yicha xalqaro konferensiya Birinchi konferensiya 1949-yilda Elsinorda (Daniya); 1960-yilda Monrealda (Kanada); 1972-yilda - Tokioda (Yaponiya); 1985-yilda - Parijda (Fransiya); 1997-yilda - Gamburgda (Germaniya); 2009-yilda - Belenada (Braziliya); 2022-yilda Marakeshda (Marokash)) bo'lib o'tdi.



konferentsiyalar har 10–12 yilda bir marta o'tkaziladi va hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar vakillarini KYO' va UTB bo'yicha global kun tartibini ishlab chiqish uchun birlashtiradi, keyinchalik u milliy va xalqaro strategiyalar rivojlanishini belgilaydi.

Oxirgi CONFITEA VII konferensiyasi 2022-yilda Marokash Qirolligining Marokach shahrida bo'lib o'tdi⁴⁴, unda 142 davlat, jumladan, O'zbekiston ham ishtirok etdi. O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi vakillari bor edi⁴⁵.

Anjumanda O'zbekistonlik ishtirokchilar KYO' va UTBni rivojlantirishga alohida o'rin ajratilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga bag'ishlangan ma'ruza bilan chiqdilar.

Masalan, Strategiyaning 37-maqsadi kattalarning professional ta'limiga taalluqlidir: "Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 mln. nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish"⁴⁶. Anjuman davomida O'zbekiston vakillari ikki tomonlama rasmiy uchrashuvlarning ayrimlarida ishtirok etib, KYO' va UTB va hayot davomida ta'lim olish sohaslarida tajriba almashdilar.

Anjumanda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish Kun tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda hayot davomida ta'lim konsepsiyasi doirasida KYO' va UTB sohasida istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Konferensiya yakunlari bo'yicha Marokash Harakatlar Ramkasi (MHR)⁴⁷, qabul qilindi, unda kattalar ta'limini milliy strategiyalarga integratsiya qilish muhimligi ta'kidlandi. MHRda "hukumatlarning mexanizmlar va qoidalarini yaratishdagi, KYO' va UTB tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va inson resurslarini ajratishdagi, shuningdek, kuchaytirilgan davlat ta'limi doirasida KYO' va UTB ni tartibga solish, ko'maklashish, rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va monitoring qilishdagi rolini kuchaytirish zarurligi" e'lon qilindi.

Marokash Harakatlar Ramkasi – kamida keyingi o'n yil davomida KYO' va UTB siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha qo'llanmadir. Quyida MHR tavsiyalarini mavzular bo'yicha oxirgi qonunlar bilan qiyosiy jadvali keltiriladi (2-jadval). Aksariyat hollarda taqqoslash davri faqat oxirgi 2 yilni - Marokash Harakatlar Ramkasi qabul qilinganidan keyingi davrni qamrab oladi.

⁴⁴CONFITEA VII konferensiya sayti – <https://www.uil.unesco.org/en/seventh-international-conference-adult-education>

⁴⁵Professional ta'limni rivojlantirish instituti sayti https://ipitvet.uz/uz/yangilik_detail/63/

⁴⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁴⁷Marokash harakat Ramkasi CONFITEA VII «Kattalar uchun ta'lim va ta'limning transformatsion salohiyatidan foydalanish» CONFITEA VII "Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning transformatsion salohiyatidan foydalanish" https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382306_rus

**MHR tavsiyalarining O'zbekiston Respublikasining
qonun hujjatlari bilan qiyosiy jadvali**

2-jadval

MHR moddasi raqami va tavsiya mavzusi	KYO' va UTB mavzusiga oid qonun hujjatlari raqami va mavzusi
22. Tarmoqlararo platformalarning ahamiyati	https://nsdg.stat.uz/ axborot portali
23. KYO' va UTB tuzilmalarini qollab-quvvatlash	"Talab yuqori bo'lgan kasblar va xorijiy tillarni o'qitishga davlat buyurtmasini shakllantirish" (PQ-347, 04.10.2024) https://lex.uz/ru/docs/-7131782
24. Institutsional salohiyatni kuchaytirish	"Mehnat vazirligining hududiy bo'linmalarida aholini kasbga o'rgatish bo'yicha tadbirlar loyihaviy yondashuv tamoyili asosida tashkil etiladi" (PQ-347, 04.10.2024) https://lex.uz/ru/docs/-7131782
25. Oldingi ta'limni tan olish, norasmiy va informal ta'limni tasdiqlash va akkreditatsiyadan o'tkazish muhimligi	Norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish ("Recognition of Prior Learning") tizimini joriy qilish; (PQ-345, 30.09.2024). https://lex.uz/ru/docs/-7132752
26. O'qituvchilarning asosiy roli va ularning malakasini oshirish	O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-901, 01.02.2024 https://lex.uz/ru/docs/-6786401
27. Moliyalashtirishni xalqaro standartlar darajasiga etkazish (YalMning kamida 4-6% va/yoki ta'limga ajratilgan budjet umumiy xarajatlarning kamida 15-20%).	O'zbekiston Respublikasining 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun loyihasi. Ijtimoiy xarajatlarni 20 % ga oshirish. https://api.mf.uz/media/filestore/qonun_loyiha.pdf
28. Dolzarb, kamsitilmaydigan va gender-sezgir ta'lim dasturlarini ilgari surish	O'zR Prezidenti Farmoni PF-158-son, 16.10.2024. Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida. https://lex.uz/ru/docs/-7166588
29. KYO' va UTB dasturlarini ishlab chiquvchilar, o'qituvchilar va ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shma tadqiqotlar.	
30. Global moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash sohasini kengaytirish	Ta'lim masalalari bo'yicha mamlakat platformasi faoliyat ko'rsatmoqda ⁴⁸ .
31. Himoyaga muhtoj guruhlar va jamoalarning KYO' va UTBdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish	O'zR Prezidentining qarori №PQ-330, 24.09.2024 "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida https://lex.uz/ru/docs/-7109778
32. Ta'lim imkoniyatlari haqida xabardorlikni oshirish uchun axborotni tarqatish	https://geekbrains.uz/ , https://yoshlardaftari.uz/ , https://kursi24.uz/ platformalari
33. KYO' va UTB uchun ishonchli va shaffof axborot tizimlarini joriy etish	01.09.2025 dan "Kasbiy ta'lim" platformasiga ochiq va bepul kirish (№PF-158, 16.10.2024). https://lex.uz/ru/docs/7166625
34. Aholi savodxonligini oshirish	O'zR Prezidentining qarori PQ- 239, 28.06.2024 Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. https://lex.uz/docs/-6986619
35. Ish joyida uzluksiz ta'lim madaniyatini shakllantirish	2025-yil 1-martdan boshlab amaliy kasbiy ko'nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajribaning joriy etilishini (PQ-347, 04.10.2024). https://lex.uz/ru/docs/-7131782
36. Barqaror rivojlanish manfaatlarini ko'zlab ta'limni rag'batlantirish	O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 22.02.2022-y. "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" https://lex.uz/ru/docs/-5870397
37. Raqamli tafovutni qisqartirish va raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni ilgari surish	PF-6079 (2020), PF-6268 (2021) "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". 587 ming nafar kishini, shu jumladan "Bir million dasturchi" loyihasi Ramkasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtirish https://lex.uz/ru/docs/-5030957

⁴⁸O'zbekiston mamlakat platformasi 2024: Ta'lim, ko'nikmalarni rivojlantirish, texnik va kasbiy ta'lim va tayyorgarlik sohalaridagi taraqqiyotga strategik e'tibor. <https://asr.gov.uz/platforma-haqida/>

38. Ta'limning shaxsiy farovonlik va aholi salomatligi uchun ahamiyati.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 272-son, 05.07.2023. "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" https://lex.uz/ru/docs/-6522505
39. Kattalar uchun fuqarolik ta'limini mustahkamlash	
40. 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasi Kun tartibi 'Yo'l xaritasi' sifatida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 83-son, 22.02.2022 "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" https://lex.uz/ru/docs/-5870397

* MHR va KYO' va UTB masalalariga taalluqli O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining qiyosiy tahlili asosida tuzilgan.

O'zbekiston qonun hujjatlarining Marokash Harakatlar Ramkasi tavsiyalari nuqtai nazaridan tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunchilik ushbu tavsiyalarga murojaat qilmasa ham, ko'plab mavzuli yo'nalishlar mos keladi va ularning ijrosi bo'yicha BRM ning ijrosi kabi faoliyat yo'lga qo'yilmagan.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish bo'yicha Global hisobotlar (GRALE)



YuNESKO ning KYO' va UTB bo'yicha Global hisobotlari (GRALE) har uch yilda bir marta nashr etiladi va YuNESKO ga a'zo davlatlar KYO' va UTB bo'yicha xalqaro majburiyatlarini qay darajada bajarayotganini kuzatib boradi.

GRALE siyosatchilar va amaliyotchi - mutaxassislariga asosli tavsiyalar va muvaffaqiyatli tajriba namunalarini taqdim etish uchun so'rovlar, siyosiy tahlillar va amaliy tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi.

2009-yildan beri beshta GRALE⁴⁹ maruzasi nashr etildi. O'zbekiston barcha beshta ma'ruzada ishtirok etib, ushbu atamani so'zning keng ma'nosida tushunishga mos ravishda KYO' va UTB sohasidagi milliy statistikani taqdim etdi. Barcha ma'ruzalarda butun jamiyatning adolatli va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kattalar ta'limi

davlat darajasida ustuvor yo'nalish bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Beshinchi GRALE maruzasining asosiy g'oyasi shundaki, butun dunyo bo'ylab KYO' va UTB unga eng muhtoj bo'lganlarni qamrab olishi kerak. Afsuski, dunyodagi vaziyat hali bu istalgan tendentsiyaga mos kelmaydi: "Kattalar ta'limi aynan unga eng ko'p muhtoj bo'lganlar uchun mavjud emas".

Ushbu manbalardan tashqari xalqaro tendentsiyalar (konferentsiyalar, rezolyutsiyalar, hisobotlar, tavsiyalar) KYO' va UTB va hayot davomida ta'lim olish tushunchalarini amalga oshirishga bag'ishlangan turli nashrlarda o'z aksini topgan. Bular YuNESKO, IHTT, Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, DVV International va boshqa xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlaridir. Ushbu nashrlarni tahlil qilish mazkur sohani rivojlantirishning eng dolzarb yo'nalishlarini sanab o'tish imkonini beradi:

⁴⁹Beshta hisobot tayyorlandi: GRALE 1 (2009), GRALE 2 (2013), GRALE 3 (2016), GRALE 4 (2019), GRALE 5 (2022).

- **Hayot davomida ta'lim olishga bo'lgan haqiqiy ehtiyoj (Lifelong learning):** kattalar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lib qolishlari uchun doimiy ravishda iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslashish uchun yangi ko'nikmalarni o'rganishlari kerak.
- **KYO' va UTB ni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish siyosati:** kattalar ta'limi va hayot davomida ta'lim olishning barqaror tizimini yaratish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni, davlat-xususiy sherikchilik, xalqaro moliyalashtirish va boshqa qo'shimcha resurslarni kuchaytirish zarurati.
- **Mavjudlik va foydalanish imkoniyati:** barcha toifadagi kattalar uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish zarurati; qishloq va chekka hududlar aholisi uchun ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash; moliyaviy to'siqlarni kamaytirish ⁵⁰.
- **Ta'limda inklyuzivlik va tenglik:** aholining barcha guruhlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda gender va ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish.
- **Ta'lim dasturlarining sifati va dolzarbligi:** kattalar ehtiyojlari va ularning kasbiy maqsadlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga yuqori ehtiyoj; kattalarni samarali o'qitish uchun andragogik kompetensiyalarga ega o'qituvchilar va murabbiylarni tizimli tayyorlash.
- **Raqamlashtirish va raqamli tengsizlikni bartaraf etish:** barcha aholi uchun raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va raqamli ko'nikmalarni o'rgatishga hamda bilim olish va ishga joylashish uchun texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish.
- **Barqaror rivojlanish uchun ta'lim va ekologik savodxonlik:** aholining atrof muhitni saqlash va barqaror iste'mol qilish muhimligini anglashini shakllantirish uchun ta'lim dasturlariga barqaror rivojlanish tamoyillarini kiritish zarurligi.
- **XXI asr ko'nikmalarini ta'lim dasturlariga integratsiyalash:** tanqidiy fikrlash, hissiy ko'nikmalar, muloqot, ijodkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish; global, madaniyatlararo va ijtimoiy xabardorlikni rivojlantirish.

Shunday qilib, xalqaro miqyosda sa'y-harakatlar kattalarga jamiyatning yanada faol ishtirokchisi bo'lishga va XXI asr muammolariga moslashishga yordam beradigan inklyuziv, qulay va moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan. KYO' va UTB ijtimoiy rivojlanish, adolat va barqarorlik bilan bog'liq Global kun tartibining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu tamoyillar O'zbekistonda ham siyosatning asosini tashkil etadi.

⁵⁰Kattalar ta'limi kontekstida ta'limdan foydalanish ta'lim dasturlari mavjudligini anglatadi. a'limning qulayligi shuni anglatadiki, bu dasturlar nafaqat mavjud, balki turli kattalar guruhlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslar, chekka hududlardagi odamlar va kam daromadli odamlarning ehtiyojlarini ham hisobga oladi.

1.2. KYO' va UTB sohasidagi siyosatni shakllantirishda nodavlat sektorining ishtiroki



O'zbekiston hukumati turli sohalarda, jumladan, ta'limda fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish choralari ko'rmoqda. Nodavlat tashkilotlar turli sohalarda, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, kambag'allikni tugatish, inson huquqlari, gender tengligi va boshqa ko'plab sohalarda barqaror rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etishda faol ishtirok etmoqda.

NNT va NTT lar kattalar ta'limi sohasida siyosiy qarorlar qabul qilishda muayyan rol o'ynaydi. Ularning ishtiroki davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish kabi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi, bu esa KYO' va UTB sohasida davlat siyosatini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish fuqarolik jamiyatini qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etishga xizmat qiladi. Qaror qabul qiluvchilarga o'z pozitsiyangizni yetkazish uchun yana bir imkoniyat - bu KYO' va UTB ga bag'ishlangan turli forumlar va konferentsiyalarda ishtirok etishdir. Muvaffaqiyatli tajriba sifatida yuqorida aytib o'tilgan BRM larning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasini keltirish mumkin, uning tarkibiga turli idoralar ekspertlari, shuningdek, norasmiy ta'lim sektori va fuqarolik jamiyati vakillari kiradi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi ham keng jamoatchilik maslahatlashuvlari davomida ishlab chiqilgan bo'lib, ular O'zbekistonda taraqqiyot sohasidagi vaziyatni chuqur tahlil qilish va mamlakatni 7 strategik yo'nalish bo'yicha yanada rivojlantirishning 100 ta asosiy maqsad va vazifalarini belgilash imkonini berdi. Ushbu strategiyani amalga oshirish tajribasi asosida "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining 83-maqsadi "Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish" sifatida belgilangan. 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan ushbu maqsadning samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri esa davlat dasturlarida ishtirok etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari sonini kamida 80 taga yetkazishdir.

Biroq, umuman olganda, siyosiy qarorlar qabul qilishda norasmiy ta'lim sektorining salohiyati hozircha yetarlicha ishga solinmagan. O'zbekiston uchun KYO' va UTB ni rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazayotgan xalqaro va xorijiy tashkilotlar ushbu salohiyatni yanada to'liqroq ochib berishga harakat qilmoqdalar. Masalan, MHRda e'lon qilingan istiqbolli yo'nalishlardan kelib chiqqan holda bunday ustuvorliklar 2023-yil iyun oyida "Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning o'zgartiruvchi kuchi" Markaziy Osiyo vorkshopida muhokama qilingan edi. Vorkshop DVV International hamkorlari uchun CONFINTEA VII xalqaro konferensiyasidan keyingi tadbirlar doirasida uning tavsiyalarini ilgari surish maqsadida tashkil etildi.

Quyida 3-jadvalda ushbu vorkshop ishtirokchilari - O'zbekistonlik kattalar ta'limining norasmiy sektori hamkor tashkilotlari vakillari tomonidan bajarilgan ayrim ishlanmalar keltirilgan.

Muammolar	Resurslar va imkoniyatlar
Andragoglarni tayyorlash tizimi mavjud emas	Universitetlar, pedagogika oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish institutlari negizida andragoglarni o'qitishning ixtisoslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish Andragogika bo'yicha bakalavriat, magistratura va sertifikatlashtirish kurslari dasturlarini joriy etish. Xalqaro tajribani hisobga olgan holda andragoglarni tayyorlashning milliy standartini shakllantirish
Sektor sifatida KYO' va UTB statistikasi mavjud emas	Bunday statistikaga ehtiyojni tadqiqotlar, nashrlar, tadbirlar orqali ilgari surish. Monitoring va hisobot bo'yicha vazifalarni mavjud statistika organlari funksiyalariga kiritish (masalan, O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi)
KYO' va UTB ga ta'limning alohida sektori sifatida qaralmaydi	KYO' va UTB siyosatini ishlab chiqish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tuzilmalar ishtirokida idoralararo guruh tuzish. KYO' va UTB ni alohida yo'nalish sifatida barqaror rivojlanish strategiyasi, ta'lim islohotlari yoki bandlik rejalari kabi milliy strategiyalar va dasturlarga kiritish
Davlat organlari va aholining muqobil o'qitish usullaridan xabardorligi yetarli emas	Televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar va bosma ommaviy axborot vositalari orqali muqobil o'qitish usullarining afzalliklari va imkoniyatlari haqida milliy axborot kampaniyalarini tashkil etish. Onlayn ta'lim, o'yinlar orqali ta'lim olish, aralash ta'lim va loyihaviy yondashuv kabi usullarning mohiyatini tushuntiruvchi videolar, infografikalar va nashrlarni yaratish
Chekka qishloqlarda resurslardan (informal ta'limi uchun) foydalanish imkoniyati cheklangan	Qishloq joylarda norasmiy ta'limni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun subsidiyalar ajratish. O'quv materiallari, video darslar, audio kitoblar va testlardan foydalanish imkonini beruvchi mobil ilovalar va platformalarni ishlab chiqish. Masalan: kontentni yuklab olish uchun oflayn kirish funksiyasiga ega platforma

Nodavlat sektorining KYO' va UTB sohasidagi siyosatni shakllantirishda ishtirok etishi uchun quyidagilar asosiy to'siqlar hisoblanadi:

- Ushbu tashkilotlarni cheklangan ravishda moliyalashtirish
- Institutsional zaiflik
- Davlat boshqaruv organlari bilan yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi va boshqalar

Ushbu to'siqlar (chegaralar) batafsil 2.3. "Ta'lim tizimini boshqarish" bandida ko'rib chiqiladi. Norasmiy ta'lim provayderlarining qarorlar qabul qilishda ishtirok etishiga imkon beruvchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish, axborot kampaniyalari va moliyaviy yordam ushbu to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi, shu bilan zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan yanada samarali hayot davomida ta'lim olish tizimini yaratadi.

1.3. Ta'lim xizmatlarining eksport va importi



O'zbekistonning yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsiga ta'lim xizmatlari ko'rsatish (masalan, chet el fuqarolarini O'zbekistondagi o'quv yurtlarida o'qitish, chet el fuqarolari uchun treninglar va seminarlar o'tkazish, onlayn kurslar), ular ko'rsatiladigan joydan qat'i nazar, ta'lim xizmatlari eksporti hisoblanadi. Bu mamlakatga xorijiy valyutaning kirib kelishini ta'minlaydi, bu esa iqtisodiyotni mustahkamlash va to'lov balansini yaxshilashga yordam beradi. Ta'lim xizmatlarining muvaffaqiyatli eksporti ta'lim tizimi rivojlangan mamlakat

sifatida O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy talabalar bilan ishlash o'qituvchilardan malaka oshirish, xorijiy tillarni bilish va zamonaviy ta'lim uslublarini qo'llashni talab etadi. O'zbekiston hukumati ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlamogda. Oliy o'quv yurtlarini modernizatsiya qilish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'limga xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish choralari ko'rilmogda.

Ta'lim xizmatlari ko'rsatiladigan joydan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsidan ta'lim xizmatlari (masalan, O'zbekiston fuqarolarini chet eldagi o'quv yurtlarida o'qitish, xalqaro konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish, xorijiy ta'lim platformalarining onlayn kurslari) olish ta'lim xizmatlari importi hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari importi fan, texnologiya va ta'limning turli sohalarida mamlakatda mavjud bo'lmasligi mumkin bo'lgan so'nggi yutuqlardan foydalanish imkonini beradi. Xorijda o'qish O'zbekistonlik mutaxassislariga xalqaro miqyosda e'tirof etilgan malakalarni egallash va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi, xorijiy ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga ko'maklashadi, xorijiy tillarni tabiiy muhitda o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023/2024-yillarda O'zbekistonga 10,8 ming talaba o'qishga kelgan. Bu 2022/2023-yildagiga nisbatan 2 barobar ko'pdir. Xorijlik talabalarni eng ko'p qismini Hindistonlik o'quvchilar (5733 kishi) tashkil etdi. Ularning aksariyati tibbiyotni o'rganish uchun kelgan. Keyingi o'rinlarda 1358 nafar Pokistonlik va 904 nafar Turkmanistonlik talaba bor. 2024-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekistonga ta'lim olish maqsadida 6,4 ming nafar xorijiy fuqaro kirib keldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 2,4 mingga yoki 59,8% ga ortdi. 2024-yilning dastlabki 4 oyida ta'lim olish maqsadida O'zbekistonga kelgan fuqarolar soni bo'yicha yetakchi mamlakatlarning to'liq ro'yxati:

Hindiston - 290	Xitoy - 242
Turkmaniston - 1627	Pokiston - 237
Tojikiston - 758	Afg'oniston - 132
Qirg'iziston - 317	AQSh - 118
Janubiy Koreya - 249	Qozog'iston - 102
	Boshqa mamlakatlar - 535

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 30,4 ming nafar O'zbekiston fuqarosi xorijga o'qishga jo'nab ketdi⁵¹. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 3,2 foizga o'sib, 952 kishiga ortdi. O'zbekistondan talabalarni qabul qilgan yetakchi mamlakatlar uchligini Tojikiston (11 409 kishi), Rossiya (7301 kishi) va Qirg'iziston (2845 kishi) egalladi. To'rtinchi o'rinda Turkiya - 2195 kishi o'qishga jo'nab ketdi. Keyingi o'rinlarda Janubiy Koreya (1839 kishi) va Qozog'iston (1372 kishi). Uzoq xorijga o'qishga ketgan O'zbekiston fuqarolari quyidagicha taqsimlandi: Buyuk Britaniyada 693 nafar, Xitoyda 672 nafar, AQShda 486 nafar va BAAda 295 nafar talaba tahsil olmoqda. Dunyoning qolgan mamlakatlarida 1292 nafar O'zbekistonlik tahsil olmoqda.

YuNESKO Statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan talabalar soni bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallab turibdi.

Shuningdek, hukumatning yoshlarni xorijda o'qitish borasidagi tashabbusini ham alohida ta'kidlash lozim. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi⁵². Uning asosiy maqsadi - xorijda yuqori malakali mutaxassislarni

⁵¹Podrobno.uz «Более 30 тысяч граждан Узбекистана учатся за рубежом», 07.11.2024. <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/bole-30-tysyach-grazhdan-uzbekistana-uchatsya-za-rubezhom-statagentstvo/>

⁵²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "Эл-юрт умиди" Jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5545-son Farmoni 25.09.2018-y. <https://lex.uz/docs/-3920037>

tayyorlash va malakasini oshirishni qo'llab-quvvatlashdir. Jamg'arma yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarda stipendiyalar, amaliyot va ta'lim dasturlarini tashkil etadi. Bundan tashqari, jamg'arma O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun ularning bilim va tajribasini jalb etish maqsadida xorijda istiqomat qilayotgan O'zbekistonlik mutaxassislar va olimlar bilan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Har yili 500 ga yaqin talaba bakalavr, magistr yoki falsafa doktori (PhD) darajalarini olish uchun dunyoning eng yaxshi 300 taligiga kiruvchi yetakchi universitetlariga o'qishga yuboriladi.

Ishchi va muhandislik kasblariga o'qitish sohasida ham zarur bilimlarni egallash uchun xorijga chiqish amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 30 nafar usta-muhandis elektromobillarni ta'mirlash va dasturlash sohasida o'qish uchun Xitoyga yuborilgan. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi KOICA granti asosida Toshkent shahrida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi tashkil etilishi munosabati bilan O'zbekistondan 15 nafar mutaxassis Janubiy Koreyada amaliyot o'tashdi.

320 nafar tibbiyot xodimi Germaniyadagi tibbiyot klinikalariga ishga yuborilgan bo'lsa, 450 nafar hamshira ushbu dastur bo'yicha nemis tilini o'rganmoqda, 170 nafari viza olish jarayonida. Ushbu loyihani kengaytirish maqsadida O'zbekistonda Nemis tibbiyot akademiyasi tashkil etiladi. O'zbekistonda professional standartlar va malakalarni baholash tizimini joriy etish bo'yicha Turkiya Malakalarni rivojlantirish qo'mitasi (MYK) bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Ta'lim xizmatlari eksporti va importi madaniy almashinuvga ko'maklashadi, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, KYO' va UTB sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

1.4. KYO' va UTB sohasi bo'yicha xalqaro hamkorlik



O'zbekiston KYO' va UTB ni rivojlantirish sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi uslub va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mutaxassislar malakasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada O'zbekistonni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar:

YuNESKO kattalar ta'limi siyosatini ishlab chiqish, norasmiy ta'limni rivojlantirish, savodxonlikni oshirish va hayot davomida ta'lim olish konsepsiyasini ilgari surishda yordam beradi.

BMTTD barcha darajalarda, shu jumladan rasmiy va norasmiy ta'limda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, shu jumladan kattalarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini qo'llab-quvvatlashga, bandlikka ko'maklashishga va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi.

DVV International (Nemis xalq universitetlari Assotsiatsiyasining xalqaro hamkorlik bo'yicha instituti – Deutscher Volkshochschul-Verband (DVV). O'zbekistonda 2002-yildan buyon faol faoliyat yuritib kelmoqda, kattalar ta'limi va norasmiy ta'limni rivojlantirishga ko'maklashmoqda, hamkor tashkilotlarni qo'llab-quvvatlamogda, treninglar va seminarlar o'tkazmoqda, qishloq joylarda ta'limni rivojlantirish va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berib, tajriba almashish va hayot davomida ta'lim olish konsepsiyasini tarqatishga ko'maklashmoqda.

Jahon banki ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, infratuzilmani yaxshilash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim sohasidagi loyihalarni moliyalashtirmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) ta'lim sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda, jumladan, professional KYO' va UTB da moliyaviy va texnik yordam ko'rsatadi.

AQShning O'zbekistondagi elchixonasi O'zbekistonlik mutaxassislarga Amerika universitetlarida malaka oshirish imkonini beruvchi Fulbrayt dasturi kabi turli ta'lim almashinuvi dasturlarini taklif etmoqda.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) mutaxassislarning malakasini oshirish, ta'limda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish, zamonaviy professional ta'lim markazlarini tashkil etish va jihozlash, mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beradigan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qituvchilar va murabbiylarni yangi o'qitish usullariga o'rgatishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mehnat munosabatlari, bandlik va ijtimoiy himoya sohasida tadqiqotlar olib boradi va dasturlar ishlab chiqadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YuNIDO) sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirishga, shu jumladan professional ta'lim dasturlari orqali rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

YuNESKO va DVV International ko'pincha o'z sa'y-harakatlarini birlashtiradi va mahalliy hamkorlar, shu jumladan davlat tuzilmalari, fuqarolik sektori va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda KYO' va UTB hamda "Lifelong learning" (HDTO) konsepsiyasini targ'ib qilishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni o'tkazadi. Quyida ulardan ba'zilari keltirilgan:

- 2003-yil 4-5-iyun kunlari Toshkent shahrida "**Barcha uchun ta'lim - Markaziy Osiyoda hayot davomida ta'lim olish**" mavzusida mintaqaviy konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda Osiyo mintaqasi, MDH va Yevropadan 180 ga yaqin mamlakat vakillari ishtirok etdi.
- 2011-yil 15-17-noyabr kunlari Toshkent shahrida "**Kattalar ta'limi**" milliy Forumi bo'lib o'tdi. Forum ishida 120 dan ortiq kishi - mamlakatimiz davlat, nodavlat va xususiy tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.
- 2017-yil 14-dekabr kuni Toshkent shahrida "**O'zbekistonda joriy islohotlar kontekstida ta'limni qayta ko'rib chiqish: siyosat, sifat va hayot davomida ta'lim**" mavzusida milliy konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda davlat hamkorlari, xususiy sektor vakillari va rivojlanish bo'yicha hamkorlar, xalqaro va mahalliy ekspertlar (120 ga yaqin kishi) ishtirok etdi.
- 2015-yil noyabr oyida Toshkent shahrida "**Norasmiy va informal ta'limi natijasida olingan kasb malakalarini tan olish va validatsiya qilish bo'yicha Yevropa tajribasi**" mavzusida milliy seminar bo'lib o'tdi. Seminar quyidagi 45 ishtirokchini qamrab oldi: a) bandlik va ta'lim sohasidagi siyosat va tartibga solish normalarini ishlab chiqishga jalb etilgan davlat vazirliklari va idoralari (Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Bandlik vazirligi va boshqalar); b) sektoral muloqotlarga jalb etilgan boshqa tomonlar (Savdo-sanoat palatasi, kasaba uyushmalari, tadbirkorlar uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari).

- 2018-yil 15-avgust kuni **“O‘zbekistonda hayot davomida ta’limni ilgari surish konsepsiyasi”** mavzusida seminar bo‘lib o‘tdi. Seminarda ta’lim sohasida asosiy qarorlar qabul qiluvchi davlat organlari vakillari, shuningdek, ilmiy hamjamiyat, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, biznes va boshqa tomonlarning ekspertlari ishtirok etdi. Uchrashuvda Germaniya va Janubiy Koreyaning yetakchi xalqaro ekspertlari, shuningdek, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilayotgan shaxslar (ishtirokchilarning umumiy soni - 50 kishi) ishtirok etdi.

2021-yil 13-sentabr kuni Toshkent shahrida “SABR” nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlangan **“Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda ijtimoiy yo‘naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyati”** mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchilar: davlat hokimiyati organlari, “Ishga Marhamat” mintaqaviy monomarkazlari⁵³ biznes tuzilmalar, xalqaro tashkilotlar, Mahalliy taraqqiyot markazlari vakillari, xorijiy hamkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV va boshqalar. Jami 176 kishi.

- 2022-yil 21-22-oktabr kunlari Samarqand shahrida **“O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ta’lim hududlarini yaratish va kattalar ta’limida innovatsiyalar”** festivali (konferensiya, hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmasi, fotoko‘rgazma, yarmarka, mahorat darslari, erkin munozaralar) bo‘lib o‘tdi (Festival tashkilotchisi – “SABR” NNT). Ishtirokchilar: Germaniya Federativ Respublikasidan xorijiy hamkorlar, hokimiyat va boshqaruv organlari, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi Parlamentlari hamda nodavlat sektorlari vakillari; davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, oliy o‘quv yurtlari, nodavlat ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, 16 ta “Ishga Marhamat” monomarkazlari, ijtimoiy yo‘naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari va xodimlari, Mahalliy Taraqqiyot Markazlari, OAV vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, jami: 160 kishi.

- 2024-yil 17-18-dekabr kunlari Toshkentda **“Markaziy Osiyoda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar”** mintaqaviy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchilar: Germaniya Federativ Respublikasining xorijiy hamkorlari, Qirg‘iziston Respublikasi va Tojikiston Respublikasining hokimiyat va nodavlat sektor vakillari; Armaniston Respublikasi va Gruziya Respublikasi ekspertlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari. Jami: 84 kishi.

Sanab o‘tilgan ko‘plab tadbirlar yakuniy hujjatlarni qabul qilish bilan yakunlanib, ularda kattalar ta’limi sohasidagi siyosatni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar taklif etildi. Ular davlat, nodavlat va xususiy tuzilmalar vakili bo‘lgan barcha tomonlarning bahs-munozaralarida erishilgan konsensusning ifodasi bo‘ldi.

Xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik tufayli O‘zbekistonda KYO‘ va UTB, shuningdek, hayot davomida ta’lim olishning ijobiy sur‘atlari kuzatilmoqda. Ta’lim oluvchilar soni ortib bormoqda, ta’lim xizmatlari sifati oshmoqda, ta’limning yangi shakl va usullari rivojlanmoqda. Xalqaro hamkorlik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitali sifatini oshirish va mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

⁵³Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi kasbiy ko‘nikmalar markazlari etib qayta tashkil etildi.

2. O‘ZBEKISTONDA KATTALAR TA’LIM TIZIMINING TUZILISHI VA FAOLIYAT KO‘RSATISHI

2.1. KYO‘ va UTB tizimining asosiy elementlari



O‘zbekistonning davlat siyosatida KYO‘ va UTB tobora muhim rol o‘ynamoqda, garchi har doim ham alohida strategiya sifatida aniq ifodalanmagan bo‘lsa-da, mamlakatni rivojlantirishning bir nechta asosiy yo‘nalishlari, u yoki bu tarzda, ushbu sektorni kengaytirish va kuchaytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday yo‘nalishlar qatorida inson kapitalini rivojlantirishga investitsiyalar, diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga o‘tish, raqamlashtirish, bandlik siyosati va boshqalar bor. Umumiy tendensiya kelajakda yanada keng ko‘lamli o‘zgarishlarga umid qilish imkonini beradi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda⁵⁴ milliy ta’lim tizimining asosiy elementlari keltirilib o‘tiladi:

- davlat ta’lim standartlari, talablari va o‘quv dasturlari;
- ta’lim tashkilotlari;
- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- davlat boshqaruvi organlari va ularga qarashli tashkilotlar.

Agar shunga o‘xshash yondashuvni KYO‘ va UTB tizimi elementlarini keng ma’noda talqin qilishni hisobga olgan holda aniqlash uchun qo‘llasak, O‘zbekistonda ushbu tizimning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

KYO‘ va UTB ning me‘yoriy-uslubiy ta‘minoti

- KYO‘ va UTB ni tartibga soluvchi va uni rivojlantirishga qaratilgan qonun hujjatlari;
- KYO‘ va UTB ni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va strategiyalari;
- uslubiy tavsiyalar;
- katta yoshlilar uchun o‘quv rejalari va dasturlari.

KYO‘ va UTB dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari

- kasbiy ta’lim markazlari va malaka oshirish markazlari;
- texnikumlar, universitetlar, oliy o‘quv yurtlari;
- NNT, NTT;
- xususiy ta’lim markazlari;
- madaniyat markazlari.

KYO‘ va UTB sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlar

- ta’lim sifatini nazorat qiluvchi davlat organlari;

⁵⁴O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni 23.09.2020-y.

- katta yoshlilar uchun ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish va sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi mustaqil tashkilotlar.

KYO' va UTB sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi ilmiy-pedagogik muassasalar

- andragogika, katta yoshlilar kasbiy ta'limi, uzluksiz ta'lim va KYO' va UTB ning boshqa jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari.

KYO' va UTB sohasidagi davlat boshqaruv organlari

- Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
- KYO' va UTB sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan boshqa idoralar;
- mintaqaviy darajada KYO' va UTB dasturlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan mahalliy hokimiyat organlari.

KYO' va UTB ning axborot tizimlari

- kattalarning ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlaydigan raqamli platformalar va resurslar;
- onlayn kurslar;
- ta'lim dasturlari ma'lumotlar bazasi;
- kompetensiyalarni baholash vositalari.

Ushbu elementlar birgalikda O'zbekistonda KYO' va UTB tizimini shakllantiradi, hayot davomida o'qishning qulayligi, sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

Xalqaro hamkorlik doirasidagi loyihalar keyingi paytlarda KYO' va UTB da katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, shuning uchun bu faoliyat sohasi milliy ta'lim tizimidan tashqarida bo'lishiga qaramay, KYO' va UTB tizimini tashkil etuvchi elementlar qatoriga kiritilgan (1-rasm).

1-rasm.

O'zbekistonda KYO' va UTB tizimi



*Manba: DVVning O'zbekistondagi Filiali.

Shunday qilib, O'zbekistonda KYO' va UTB ta'limning alohida kichik sektori bo'lmasada, katta yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan dasturlar mavjud bo'lgan boshqa barcha kichik sektorlarda ta'lim shakli sifatida mavjud.

2.2. KYO' va UTB sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi



O'zbekistonda KYO' va UTB sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi faol rivojlanish va takomillashtirish jarayonida. Asosiy qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasida⁵⁵, har kimning ta'lim olish huquqi mustahkamlab qo'yilgan va "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, shuningdek, bepul boshlang'ich professional va oliy ta'limni davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan olishni kafolatlaydi" (50-51 moddalar).

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida⁵⁶ (2020) ta'limning uzluksizligi va izchilligi, insonning butun hayoti davomida ta'lim olish prinsiplari (4-modda), jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi (5-modda) belgilab o'tilgan. Qonunda birinchi marta "Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun hayot davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi" (19-modda) deb e'tirof etildi. 2024-yil 7-sentabrdagi Qonunning yangi tahririga muvofiq unga 141-modda "Ma'rifiy faoliyat" qo'shildi. "Ma'rifiy faoliyat shaxsning shaxsiy, intellektual va ma'naviy jihatdan kamol topishi, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish, individual salohiyatini, imkoniyatlarini, muloqot qilish qobiliyatlarini yaxshilash uchun zarur ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan, davlat ta'lim standartlari bilan qamrab olinmaydigan faoliyat turi hisoblanadi". Qonunda kattalar ta'limi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, institutsional doiralar va tuzilmalarni tashkil etish, kattalar ta'limini zarur darajada moliyalashtirish uchun huquqiy asoslar belgilanmaganiga qaramay, u KYO' va UTB sektorini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqa qonun hujjatlarida "kattalar ta'limi" atamasi qo'llanilmaydi, lekin bu soha aniq qoidalar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" gi Qonuni (2024)⁵⁷ ish qidirayotgan shaxslar va ishsizlar uchun, ishlab chiqarishda kasbga tayyorlashni, qayta tayyorlashni va kasbga o'qitish malakasini oshirishni tashkil etish qoidalarini, Kasbga oid malaka va bilimlarni rivojlantirish milliy tizimining vazifalarini, Respublika malaka va bilimlarni rivojlantirish kengashining, shuningdek Malaka baholash markazlarining funksiyalarini belgilaydi. Ushbu Qonunning yangi tahririda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari - ishsizlar, ayollar, migrantlar, jismoniy imkoniyati cheklangan, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni o'qitish bo'yicha nodavlat sektor ishtirokidagi davlat dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar tavsifiga "oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslar" qo'shilgan.

⁵⁵O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023-y. <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁵⁶O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni 23.09.2020-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>

⁵⁷O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-967-son Qonuni. 27.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7124178>

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi (2023) ⁵⁸ “professional tayyorgarlik”, “xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish” kabi tushunchalarni mustahkamlaydi, xodimlarning qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi, shartlari, shakllari va turlarini, shuningdek, o‘qish bilan ishlashni birlashtirish, ish joyida o‘rtacha ish haqi saqlangan holda o‘quv, yillik mehnat va ijodiy ta‘tillar berish, kattalarga qisqartirilgan ish haftasi va boshqa ta‘lim oluvchilarga kafolatlar berish shartlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” gi Qonuni⁵⁹ “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun bilan bir qatorda asosiy faoliyat turi “shaxsning intellektual, ma‘naviy-axloqiy, madaniy va ta‘lim ehtiyojlarini qondirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish” bo‘lgan madaniyat markazlari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tashkilotlarning ta‘lim faoliyatini tartibga soladi. Madaniyat markazlari “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlariga muvofiq ta‘lim faoliyatini (madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, kurslar, mahorat darslari va boshqa ta‘lim dasturlarini tashkil etish) amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida” gi Qonuni ⁶⁰ “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun bilan bir qatorda NNT va NTT larining ta‘lim faoliyatini tartibga soladi. NNT va NTT larning ta‘lim faoliyati ta‘lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga, shu jumladan litsenziyalash va akkreditatsiyaga qo‘yiladigan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va Farmonlari ham katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta‘lim berish sohasini qonuniy tartibga soladi. Eng muhimlari orasida quyidagilarni qayd etish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-76-son qarori ⁶¹.

Ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash mexanizmlarini belgilash hamda ko‘rsatilayotgan ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida “Ta‘lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori ⁶².

Milliy malaka tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ta‘limning o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash, malakaga bo‘lgan talablarni huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish hamda barcha uchun hayoti davomida ta‘lim olish va mehnat faoliyatini izchil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida: Milliy malaka tizimini takomillashtirish; xalqaro standartlar asosida Mashg‘ulotlar, kasb va

⁵⁸O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, 30.04.2023-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

⁵⁹O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son Qonuni 20.01.2021-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5230682>

⁶⁰O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi 763-I-son Qonuni. 14.04.1999-y. <https://lex.uz/ru/docs/-11360>

⁶¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-76-son Qarori. 05.05.2025-y. <https://www.lex.uz/ru/docs/-751305262>

⁶²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-345-son Qarori. 30.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7132752>

lavozimlar milliy klassifikatorini ishlab chiqish; malaka ramkalari, kasbiy standartlar va malaka talablarini ish beruvchilar talablari asosida ishlab chiqish va joriy qilish; norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish ("Recognition of Prior Learning") tizimini joriy qilish; Loyiha ofisi huzurida Milliy malakalar tizimini rivojlantirish instituti tashkil etilishini ma'qullash; 2025-yil 1-noyabrga qadar Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi ishlab chiqilishi va amaliyotga kiritilishi ta'minlash; 2026-yil 1-dekabrga qadar ilg'or xorijiy tajriba asosida 1 800 ta kasbni qamrab oluvchi kasbiy standartlar ishlab chiqilishini va amaliyotga kiritilishini ta'minlash kabi vazifalar qayd etib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-son qarori ⁶³.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatining yo'nalishlaridan biri "Ishga marhamat» monomarkazlari va Vazirlik huzuridagi kasbga o'qitish markazlari negizida kasbga ko'nikmalar markazlarini tashkil etish"; kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, malakani baholash — xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo'lgan kasb va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malakani baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilishni boshlash; shuningdek Vazirlikka quyidagi huquqlar berildi: kasbiy ko'nikmalar markazlarini hamda vazirlik tasarrufidagi boshqa binolarni (inshootlarni) yoki ularning bir qismini jihozlari bilan birga ularda kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish kurslarini tashkil qilish sharti bilan ish beruvchilarga va ta'lim tashkilotlariga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida tekin foydalanishga yoki uzoq muddatli ijaraga berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmon ⁶⁴.

Mazkur Farmon bilan 2025/2026-o'quv yilidan boshlab texnikumlarga "turli yoshdagi va ishsiz fuqarolar uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kasbga o'qitish, xorijiy tillar va tadbirkorlik bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etishga" ruxsat beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni ⁶⁵.

"Barcha darajalarda ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qitish tizimining inklyuzivligi va hammaga ochiq bo'lishini ta'minlash",

⁶³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-son Qarori 04.10.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7131782>

⁶⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni 16.10.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7166588>

⁶⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni 22.06.2020-y. <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

shuningdek, “butun umr davomida o‘qitish imkoniyatlarini rag‘batlantirish, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta‘limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, o‘rta maxsus, oliy, professional va qo‘shimcha ta‘limning hammaga ochiq bo‘lishini ta‘minlash...” zarurligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni⁶⁶.

37-maqсад: “Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta‘lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Xotin-qizlarni o‘qitish, professional ko‘nikmalarni egallash va munosib ish bilan ta‘minlashda har tomonlama ko‘maklashish, xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli qizlar va xotin-qizlarning qobiliyatlarini aniqlash va to‘g‘ri yo‘naltirish”.

O‘zbekistonda keng qonunchilik maydoni mavjud bo‘lishiga qaramay, KYO‘ va UTB dasturlarining tuzilmasi, maqsad va mexanizmlarini belgilab beruvchi aniq hadli shartlari yetishmasligi sezilmoqda. Bu yondashuvlarning tarqoqligiga olib keladi va turli manfaatdor tomonlarning sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi.

KYO‘ va UTB sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi yagona sektorlararo boshqaruv organining yo‘qligi funksiyalarning takrorlanishiga, resurslardan samarasiz foydalanilishiga va ushbu sektorni rivojlantirishga tizimli yondashuvning yo‘qligiga olib kelmoqda.

Ta‘limning mustaqil quyi sektori sifatida KYO‘ va UTB maqomining qonuniy mustahkamlanmaganligi huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi va boshqaruv va moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi, markazlashtirilgan boshqaruv va KYO‘ va UTB bo‘yicha ma‘lumotlarni hisobga olishning yo‘qligi esa ehtiyojlarni baholash, dasturlarni rejalashtirish va natijalarni monitoring qilishni qiyinlashtiradi, bu esa ushbu sektorning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi salohiyatini amalga oshirish uchun bartaraf etish zarur bo‘lgan cheklovlarni yaratadi.

2.3. Ta‘lim tizimini boshqarish



Ta‘lim tizimini boshqarishga respublika, viloyat va mahalliy darajadagi bir nechta davlat organlari jalb etilgan. Budget mablag‘laridan samarali foydalanish, faoliyatni o‘zaro muvofiqlashtirishni yaxshilash va ta‘limning turli darajalarida uzviylikni ta‘minlash maqsadida 2023-yil 1-yanvardan boshlab uchta vazirlik: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, KYO‘ va UTB sohasida tizim ichida rahbarlik faoliyatini

⁶⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni 28.01.2022-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

tashkil etadi⁶⁷. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi o'z vakolatlariga muvofiq:

- kasbiy standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- talab yuqori bo'lgan kasblar va xorijiy tillar bo'yicha o'qitishga davlat buyurtmasini shakllantiradi;
- o'quv markazlarining pedagog kadrlarini professional ta'lim olishga (tayyorlash), qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
- mahalla, tuman (shahar) va viloyat markazlari darajasida kambag'al, ishsiz fuqarolarni kasbga va tadbirkorlikka o'qitishni tashkil etadi va moliyalashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 4-oktabrdagi** "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-347-sonli** qarori⁶⁸ bilan Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida professional standartlarni ishlab chiqish, kasblar va chet tillarni o'qitish, malakani baholash – xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda xorijda tan olinadigan professional standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo'lgan kasblar va chet tillarni o'qitishga davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malaka baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng jalb etish kabi sohalari belgilanagan.

Vazirlikka ishsiz va kam ta'minlangan fuqarolarni ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob beradigan ishchi kasblarga o'qitish tizimini yaratish maqsadida quyidagi vazifalar yuklatildi:

- Vazirlik huzuridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari va professional o'quv markazlari negizida kasb-hunar ko'nikmalari markazlarini tashkil etish;
- Vazirlikning professional ko'nikmalar markazlarida:
 - ✓ 2025-yil 1-yanvardan boshlab ish beruvchilar talablariga moslashtirilgan o'qitishning davomiyligi va muddatlarini nazarda tutuvchi ekspress-kurslarni tashkil etish;
 - ✓ 2025-yil 1-martdan boshlab bevosita ish joyida amaliy malakaviy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajribani joriy etish;
 - ✓ 2025-yil 1-maydan boshlab xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy etish;
 - ✓ bitiruvchilarga malakaviy ko'nikmalar markazlarini xalqaro baholash tashkilotlari tomonidan 2026-yil 1-yanvarga qadar akkreditatsiyadan o'tkazish yo'li bilan xorijda e'tirof etiladigan sertifikatlar (malaka pasportlari) berish.
- 2026-yil 1-iyulga qadar malakali xorijiy tashkilotni jalb etgan holda xalqaro standartlar asosida Professoinal malakalarni baholash markazini tashkil etish va ushbu markazda xorijiy davlatlarda tan olinadigan malaka sertifikatlarini berishni yo'lga qo'yish.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimini umumiy boshqarishni ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini olib boruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

⁶⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni. 21.12. 2022-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6324756>

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari:

- ta'lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- ta'lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga rahbarlik qiladi;
- attestatsiya, akkreditatsiya va litsenziyalash tartibini belgilaydi;
- ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning davlat namunalarini tasdiqlaydi;
- faqat davlat ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;
- davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi;
- ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;
- ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- mehnat bozori ehtiyojlarini prognoz qilish va tahlil qilish asosida ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi;
- boshqa faoliyatni amalga oshiradi⁶⁹.

Ta'lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida ikkita vazirlik: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilab qo'yilgan, ikkinchisi KYO' va UTB bilan bog'liq faoliyatni nazorat qiladi. Ikkala vazirlik:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ta'lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qiladi;
- ta'lim tashkilotlari tomonidan davlat ta'lim standartlari (shu jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti) hamda ta'lim darajasiga va kadrlarni malakaviy tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari bajarilishini nazorat qiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;
- ta'lim tashkilotlarida kadrlarni malakaviy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, o'quv dasturlarini takomillashtiradi;
- ta'lim tashkilotlarini (maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bundan mustasno) attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan, shuningdek ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazadi;
- ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayoni sifati monitoringini amalga oshiradi;

⁶⁹O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida to'liq ro'yxat keltirilgan. <https://lex.uz/docs/-5013007>

- maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasbiy va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlariga lavozimlar va malaka toifalari berish jarayonini nazorat qiladi, shuningdek, unda ishtirok etadi;
- oʻquv adabiyotlarini tayyorlash va nashr etishni tashkil etadi (moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy taʼlim tashkilotlari bundan mustasno);
- taʼlim oluvchilarning oʻzlashtirishini baholash, oʻquv jarayonini tashkil etish, yakuniy davlat attestatsiyasi boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek taʼlim oluvchilarning toifalarini eksternat tartibida belgilaydi;
- nodavlat taʼlim tashkilotlariga litsenziyalar beradi, faoliyatni xabardor qilish tartibida amalga oshiruvchi shaxslardan bildirishnomalar qabul qiladi va ularning reyestrini yuritadi;
- taʼlim tashkilotlarining reytingini belgilaydi;
- boshqa faoliyatni amalga oshiradi ⁷⁰.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi “Taʼlim sifatini taʼminlash milliy agentligi”

- oʻrta maxsus, professional, oliy va oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasini amalga oshiradi;
- taʼlim tashkilotlarining taʼlim va ilmiy-tadqiqot jarayonlari sifatini qiyosiy taqqoslash asosida ularning milliy reytingini yuritadi;
- ish beruvchilar va talabalar oʻrtasida milliy soʻrovlar oʻtkazadi ⁷¹.

Taʼlim sohasidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari

- davlat taʼlim muassasalari uchun moliyalashtirish hajmini belgilaydi;
- taʼlim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari boʻyicha fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi;
- oʻz vakolatlari doirasida taʼlim sohasida davlat-xususiy hamkorligini rivojlantiradi va nodavlat taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirishga koʻmaklashadi ⁷².

Shunday qilib, kattalar taʼlim sohasidagi vakolatlari asosan davlat tashkilotlari va idoralari tasarrufida jamlangan. Biroq, NNT va NTT larining bu sohadagi ishtiroki ham cheklangan darajadadir (1.2-bandga qarang. “Nodavlat sektorning KYOʻ va UTB sohasidagi siyosatni shakllantirishdagi ishtiroki”).

Koʻplab NNT va NTT lar katta yoshlilar ayniqsa, norasmiy taʼlim sohasi taʼlim dasturlari va oʻquv materiallarini ishlab chiqishda ishtirok etmoqdalar. Ular jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan dasturlarni ishlab chiqish uchun davlat organlari bilan tez-tez hamkorlik qiladilar. Nodavlat tashkilotlari taʼlim xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirgan holda katta yoshdagi taʼlim oluvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi sifatida ishtirok etishi, shuningdek KYOʻ va UTB sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishi, tadqiqotlar oʻtkazishi, jamoatchilik muhokamalarini tashkil

⁷⁰Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonunida toʻliq roʻyxat keltirilgan. <https://lex.uz/docs/-5013007>

⁷¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Taʼlim sifatini taʼminlash va taʼlim xizmatlari koʻrsatish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-76-son Qarori. 05.05.2025-y. <https://www.lex.uz/ru/docs/-7513052>

⁷²Toʻliq roʻyxat Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunida keltirilgan. <https://lex.uz/docs/-5013007>

etishi va ekspert tavsiyalarini berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni⁷³ asosida KYO' va UTB sohasidagi siyosiy masalalarni qabul qilishda nodavlat sektorning ishtiroki uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, O'zbekistonda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari instituti faol rivojlanmoqda. Bu NNT lariga muhokamalar va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkonini beradi.

NNT ishtirok etishi uchun to'siqlar:

- Cheklangan moliyalashtirish. Ko'pgina NNT lar cheklangan moliyalashtirishga duch kelishadi, bu esa ularning yirik ta'lim dasturlarida ishtirok etishini qiyinlashtiradi.
- Muvofiqlashtirishning etarli emasligi. Davlat organlari va NNT lari o'rtasida samarali muvofiqlashtirishning yo'qligi sa'y-harakatlarning takrorlanishiga va resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.
- Qaror qabul qilishda ishtirokning cheklanganligi. NNT lari ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishlariga qaramay, ularning KYO' va UTB sohasida siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki cheklanganligicha qolmoqda.
- Huquqiy asoslarning yetishmasligi. KYO' va UTB sohasidagi NNT lari faoliyatini tartibga soluvchi aniq huquqiy bazaning yo'qligi ularning ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.
- Moliyaviy barqarorlik. Barqaror moliyalashtirish manbalarining mavjud emasligi va davlat grantlaridan foydalanishning cheklanganligi.
- Institutsional zaiflik. KYO' va UTB sohasida tashkiliy salohiyat, malakali kadrlar va ish tajribasining yetishmasligi.

Ushbu to'siqlarni bartaraf etish, davlat organlari, ta'lim muassasalari va NNT lari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, NNT lari salohiyatini oshirish hamda ularning KYO' va UTB sohasidagi ishtirokini yanada rivojlantirish O'zbekistonda kattalar uchun ta'lim xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishga, shuningdek fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ta'limni boshqarish tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, KYO' va UTB siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda davlat muhim rol o'ynaydi, bu ta'lim sohasida davlat nazoratini kuchaytirishga bo'lgan umumjahon tendensiyasini aks ettiradi. Biroq jamiyatning zamonaviy talab va ehtiyojlariga javob beradigan ushbu sohaning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash uchun davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu jarayon sheriklik, o'zaro hurmat va ochiqlik tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak.

Barcha manfaatdor tomonlar (davlat idoralari, ilmiy doiralar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, xususiylar sektor va boshqalar) vakillari ishtirokida KYO' va UTB bo'yicha milliy kengash kabi tarmoqlararo organning tashkil etilishi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, tajriba va resurslar almashishni ta'minlash, shuningdek, kattalar uchun ta'lim xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish imkonini beradi. Bunda nafaqat rasmiy ishtirok etish, balki qarorlar qabul qilishda haqiqiy ishtirok etish ham muhim ahamiyatga ega.

⁷³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021—2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni. 04.03.2021. <https://lex.uz/docs/-5319756>

Kengash tarkibiga turli ijtimoiy guruhlar vakillarini, shu jumladan katta yoshdagi ta’lim oluvchilarni jalb etish ularning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu, o’z navbatida, inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kengash faoliyati samaradorligini muntazam baholash mexanizmlarini yaratish va uning moslashuvchanligi va o’zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta’minlash uchun kerakli tuzatishlar kiritish zarur.

2.4. KYO’ va UTB me’yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish istiqbollari



O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”⁷⁴gi Qonunida ta’lim turlari va shakllari sanab o’tiladi (4-jadval). Qonunda ilk bor 2020-yilda KYO’ va UTB ni tan olish yo’lidagi muhim voqea sifatida tilga olingan, ammo u alohida ta’lim turiga ajratilmagan, balki ta’lim shakli sifatida taqdim etilgan, bu esa uning umumiy ta’lim tizimidagi roli va ahamiyatini kamaytiradi. Bundan tashqari, boshqa barcha ta’lim shakllari ham KYO’ va UTB ni nazarda tutadi, bu esa ma’lum bir chalkashlikni keltirib chiqaradi. Masalan, “ishlab chiqarishdan ajralgan ta’lim” yoki “masofaviy ta’lim” ni ham KYO’ va UTB bilan bog’lash mumkin. Ta’lim shakllari o’rtasidagi bunday noaniq chegara asosiy atamalarni aniq talqin qilishga yordam bermaydi. Qonundagi “katta yoshdagilarni o’qitish va ularga ta’lim berish” atamasi ta’lim va ta’limning barcha shakllarini o’z ichiga olgan ma’lum bir mantiqiy tafovutni o’z ichiga oladi. Demak, “shakl” barcha “shakllarni” o’z ichiga oladi.

4-jadval.

Ta’lim turlari	Ta’lim shakllari
Maktabgacha ta’limva tarbiya Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim Professional ta’lim Oliy ta’lim Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Maktabdan tashqari ta’lim Ma’rifiy faoliyat (2024-yil 9-sentabrdan yangi tur sifatida rang bilan ajratilgan)	Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi) Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy) Dual ta’lim Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish Katta yoshdagilarni o’qitish va ularga ta’lim berish Inklyuziv ta’lim Eksternat tartibida ta’lim olish Xavfsizlik mudofaasi va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash

Qonunda “Katta yoshdagilarni o’qitish va ularga ta’lim berish” iborasi kontekstida rasmiy, norasmiy va informal ta’lim turlarining ta’riflari keltiriladi. Bu ta’lim turlarini boshqa ta’lim turlariga ham kiritish mumkin. Masalan, kasbiy ta’lim ham rasmiy, ham norasmiy bo’lishi mumkin. Rasmiy, norasmiy va informal ta’limga bo’linishni butun ta’limga taalluqli deb hisoblash va tasniflashning eng yuqori darajasiga olib chiqish qonuniydir, chunki rasmiy, norasmiy yoki informal nafaqat KYO’ va UTB, balki ta’limning boshqa turlari ham bo’lishi mumkin.

⁷⁴O’zbekiston Respublikasi “Ma’muriy islohotlar doirasida ta’lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’RQ-957-son Qonuni 07.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7093724>

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda KYO' va UTB "qo'shimcha ta'lim", "lifelong learning", "further education" va boshqa nomlar ostida alohida ta'lim turi sifatida tushuniladi. Qonun hujjatlarida KYO' va UTB maqomini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Kattalar ta'limiga ajratiladigan mablag'lar hajmi, kattalar ta'lim tizimining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi (muvofiqlashtiruvchi organing mavjudligi) tasnifga bog'liq.

KYO' va UTB alohida ta'lim turiga ajratilgan mamlakatlarda (har qanday nom ostida) ushbu sektorni moliyalashtirish va tashkil etishda davlat muhim rol o'ynaydi. O'qitish shakli sifatida taqdim etilgan KYO' va UTB O'zbekiston ta'lim tizimida ikkinchi darajali, "noaniq" o'ringa ega. Qonunning keyingi tahriri ushbu terminologik jihatlarni inobatga olishi mumkin.

Mamlakatimizda aholining turli qatlamlari o'rtasida ma'rifiy faoliyatni takomillashtirish, jumladan, aholining ongi, madaniyati va his-tuyg'ulariga, shu jumladan, yoshlarning turli yot qarashlari va g'oyalariga ta'sir etuvchi nosog'lom ma'rifiy ishlarga to'sqinlik qiluvchi keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunga 2024-yil sentabr oyida ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilashga qaratilgan qo'shimcha kiritildi.

Shaxsning shaxsiy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, intellektual va ijodiy salohiyatini namoyish etish, individual salohiyati, mahorati, kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirish uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan, davlat ta'lim standartlari bilan qamrab olinmaydigan faoliyat turi ma'rifiy faoliyat hisoblanadi. Ma'rifiy faoliyat respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qonunda "ma'rifiy faoliyat" atamasining paydo bo'lishini katta yoshdagi aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, atrof-muhitni muhofaza qilish va h.k.larni targ'ib qiluvchi turli NNT lari faoliyati nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin. Shu ma'noda ma'rifiy faoliyat nodavlat muassasalarida o'tkaziladigan norasmiy ta'limga o'xshaydi, lekin ma'rifiy faoliyatda ta'lim dasturi yo'qligi sababli u hisoblanmaydi.

2025-yildan boshlab joriy etiladigan yangilangan O'zbekiston ta'lim sxemasi (3-rasm) O'zbekistonda ta'lim tizimida KYO' va UTB ning poli va o'rni haqida umumiy tasavvurni beradi. Sxemada ta'lim turlari ta'lim oluvchilarning yoshi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ta'lim turlari (ularga KYO' va UTB ni kiritgan holda rasmiy va norasmiy) bo'yicha bo'lingan va asosan kasbiy ta'limga ta'sir ko'rsatgan so'nggi o'zgarishlar aks etgan. Ilgari u kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar tomonidan taqdim etilgan bo'lsa, endilikda ularning barchasi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus ta'limi dasturlari amal qiladigan texnikumlar tarmog'iga birlashtirilib, ta'lim xalqaro va milliy standartlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni⁷⁵ texnikumlarga o'quv soatlarini har bir fan bo'yicha 30 % doirasida birlashtirishga yoki qayta taqsimlashga ruxsat beradi. Joriy o'quv yilida (2024/2025) texnikumlar xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma dasturlar ochish huquqiga ega bo'ladi. Davlat namunasidagi diplomdan tashqari, ularning bitiruvchilari xalqaro dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirganliklari to'g'risida sertifikatlar oladilar. Boshlang'ich kasb-hunar ta'limi dasturlari bo'yicha 9-sinfni tamomlagan o'quvchilar uchun kadrlar tayyorlash davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun esa to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional

⁷⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni 16.10.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7166588>

ta'lim dasturlarini bitiruvchilarga o'zlashtirgan modullari, to'plangan kreditlari va o'rtacha ball qiymatidan (GPA) kelib chiqib, tegishli bakalavriat kursidan o'z ta'limini davom ettirishga ruxsat beriladi.

O'zbekistonda KYO' va UTB keng ma'noda tushunilib, alohida tur yoki kichik sektor sifatida emas, balki ta'lim shakli sifatida qaralganligi sababli, uning umumiy ta'lim sxemasiga integratsiyalashuvi "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili nuqtai nazaridan yondashishni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, KYO' va UTB kattalar hayotining barcha davrlarini qamrab oluvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. O'rta yoki oliy ta'lim kabi an'anaviy ta'lim turlaridan farqli o'laroq, KYO' va UTB aniq belgilangan tuzilma yoki ierarxiyaga ega emas. U har qanday shaklda kattalar uchun ta'lim olish va rivojlantirish imkoniyatini ta'minlab, ta'limning barcha daraja va shakllarini qamrab oladi. Masalan, kasbiy ta'lim tizimida KYO' va UTB kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari tarzida namoyon bo'ladi; oliy ta'lim tizimida - ikkinchi oliy ta'lim, magistratura va doktorantura dasturlari tarzida; norasmiy va informal ta'lim, shu jumladan turli treninglar, seminarlar va ma'rifiy dasturlar ham KYO' va UTB ning bir qismi hisoblanadi. KYO' va UTB da turli ta'lim markazlari muhim o'rin tutadi. KYO' va UTB malaka oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash, masofadan o'qitish, ish joyida o'qitish kabi ta'lim shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, KYO' va UTB alohida ta'lim turi emas, balki ta'limning barcha darajalari va shakllariga integratsiyalashadigan, katta yoshdagilarning hayot davomida uzluksiz o'qishi va rivojlanishi imkoniyatini ta'minlaydigan tamoyil hisoblanadi. KYO' va UTB O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, ishchi kuchi malakasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi va kattalar uchun mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash hamda shaxsiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi.

NNT, madaniyat markazlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan ma'rifiy faoliyat ham KYO' va UTB ning muhim qismi bo'lib, bilimlarni ommalashtirish, aholining madaniy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, fuqarolik javobgarligini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda KYO' va UTB ni keng talqin qilish, shuningdek, uning qonunchilikda alohida sektor emas, balki ta'lim shakli sifatida joylashishi muayyan xavflarni keltirib chiqarishi va ushbu xavflarni quyidagi mexanizmlarni ishga tushirish orqali kamaytirish mumkin:

- Kattalar ta'limining rasmiydan tortib norasmiygacha barcha jabhalarini qamrab oladigan, aniq maqsadlar, vazifalar, ustuvor yo'nalishlar va amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beradigan keng qamrovli strategiyani ishlab chiqish asosiy qadamdir. Ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va mehnat bozori dinamikasini hisobga oluvchi moslashuvchan ta'lim trayektoriyalarini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.
- Muvofiqlashtiruvchi organning tashkil etilish KYO' va UTB tizimini boshqarishda markaziy bo'g'in bo'ladi. Ushbu organ turli vazirlik, idora va tashkilotlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va resurslarni optimallashtirishni ta'minlagan holda birlashtirishi kerak, lekin unga tezkor qarorlar qabul qilish va strategik tashabbuslar ijrosini monitoring qilish vakolatlarini berish muhim ahamiyatga ega.
- Monitoring va baholash tizimini rivojlantirish KYO' va UTB dasturlari samaradorligini kuzatib borish va o'z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi, buning uchun nafaqat miqdoriy, balki sifat natijalarini ham aks ettiruvchi kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Bu KYO' va UTB ning shaffofligi va javobgarligini ta'minlaydi.

2.5. O'zbekiston ta'lim sxemasi (2025-yildan)

3-rasm.

Yoshi	Rasmiy ta'lim darajasi va turlari, shu jumladan, KYO' va UTB boshqa turlar va darajalarga integratsiyalashgan ta'lim olish shakli sifatida			Norasmiy ta'lim, shu jumladan KYO' va UTB ta'lim olish shakli sifatida	Ma'rifiy faoliyat (NNT, NTT va b.)
27-30 +	Doktorantura (DSc) (3 yil)	Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish Institutlar, fakultetlar, markazlar va b. (hayot davomida)		Kasbiy ko'nikmalarga o'rgatish, umumiy ta'lim, fuqarolik ta'limi, havaskorlik kurslari va b. NTT, NNT, Madaniyat markazlari va b. (hayot davomida)	
24-27 +	Bazaviy Doktorantura (PhD) (3 yil)				
22-24 +	Magistratura (2 yil) Oliy ta'lim tashkilotlari				
18-22 +	Bakalavriat (4 yil) Oliy ta'lim tashkilotlari				
17-18 +	O'rta ta'lim (X - XI sinflar) maktablar	Kasbiy ta'lim 6 oydan 3 yilgacha (boshlang'ich, o'rta, o'rta-maxsus). Qisqa muddatli o'quv kurslar Texnikumlarning yagona tarmog'i	O'rta maxsus ta'lim litseylar, ixtisoslashgan maktablar	Maktabdan tashqari ta'lim "Barkamol avlod" markazlari, sport, musiqa, badiiy maktablar va b.	
11-16	Bazaviy o'rta ta'lim (V - IX sinflar) maktablar				
7-11	Boshlang'ich ta'lim (I - IV sinflar) maktablar				
6-7	Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik - 1 yil			Maktabgacha norasmiy ta'lim dasturlari	
3-6	Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalar bog'chalari				



Maktabgacha ta'lim va tarbiya



Maktabgacha norasmiy ta'lim dasturlari



Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim



Maktabdan tashqari ta'lim



Kasbiy ta'lim



Qayta tayyorlash va malaka oshirish



Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim



Ma'rifiy faoliyat

*"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 2024-yil 9-sentabrdagi yangi tahriri asosida tuzilgan.

- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash KYO' va UTB ning ilg'or uslublari va texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Ekspertlarni jalb qilish va tajriba almashish ilg'or amaliyotlarni O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Raqamli ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga alohida e'tibor qaratish lozim.
- Pedagog kadrlar malakasini oshirish KYO' va UTB sifatini ta'minlashning asosiy omilidir. Andragogik kompetensiyalarni rivojlantirish va o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.
- Fuqarolik jamiyatini faol jalb etish KYO' va UTB dasturlarining aholi ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydi. Ta'lim tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirishda jamoat tashkilotlari, ekspertlar va ta'lim oluvchilarning o'zlari ishtirok etish mexanizmlarini yaratish turli manfaatlarni KYO' va UTB ning ijtimoiy ahamiyatini ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu mexanizmlarni joriy etish KYO' va UTB ni keng talqin qilish natijasida yuzaga kelgan xatarlarni u yoki bu darajada zararsizlantirish va ushbu sohaning zamonaviy va barqaror rivojlanish ehtiyojlariga javob beradigan moslashuvchan va samarali tizim sifatida unumli rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarning izchil joriy etilishi fuqarolarning barcha toifalari uchun sifatli ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlaydi, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi hamda ijtimoiy integratsiya va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omiliga aylanadi.

2.6. KYO' va UTB xizmatini taqdim etuvchilar



O'zbekistonda kattalarga uchun ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchilarning (provayderlar) keng turlarini turli mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin: mulkchilik shakli (davlat, nodavlat, tijorat, xalqaro tashkilotlar), ta'lim turi (rasmiy, norasmiy), ta'lim sektori bo'yicha (oliy, kasbiy, liberal⁷⁶), maqsadli auditoriya (ishlovchilar, ishsizlar, ayollar, yoshlar, imkoniyati cheklanganlar), o'qitish shakli bo'yicha (kunduzgi, sirtqi, masofaviy va b.). Mustaqil ekspertlar, mustaqil asosda ishlaydigan trenerlar (frilanserlar) ham bor. Quyida mulkchilik shakli bo'yicha ushbu xizmat ko'rsatuvchilarning ro'yxati keltirilgan.

KYO' va UTBning davlat provayderlari

Davlat asosan rasmiy shakldagi ta'lim va malaka oshirishning turli dasturlarini taklif etadi va kattalar ta'lim olishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat tashkilotlari keng muassasalar tarmog'iga, budjetdan barqaror moliyalashtirishga, katta pedagogik salohiyatga va rivojlangan moddiy-texnik bazaga ega. Qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlarga muvofiq davlat provayderlari spektri ham o'zgardi. Texnikumlarning yagona tarmog'i paydo bo'ldi, "kollejar", "Ishga marhamat" monomarkazlari degan nomlar o'zgardi.

Davlat boshqaruv organlari davlat xizmatchilari uchun o'quv tadbirlarini, masalan, korrupsiyaga qarshi kurash ish kurslarini tashkil etadi.

Texnikumlarning yagona tarmog'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda

⁷⁶Keng dunyoqarash, tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilgan va tor ixtisoslik bilan cheklanib qolmay, mustaqil fikrlashga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga qodir, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga intiladigan ta'lim.

malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga⁷⁷ muvofiq 2025-yildan boshlab mavjud kasbiy ta'lim muassasalari maqbullashtirilib, ularning negizida kasbiy ta'limining barcha darajalarida (boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus ta'lim) mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydigan texnikumlarning yagona tarmog'i yaratilmoqda. Bundan tashqari, turli yoshdagi odamlar uchun maxsus malaka va kompetensiyalar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi.

"Ishga marhamat" monomarkazlari qoshidagi kasbiy mahorat markazlari va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi kasbiy ta'lim markazlari ishsiz va kam ta'minlangan fuqarolarni ishchi kasblarga o'qitishni amalga oshiradi; ish beruvchilar talablariga moslashtirilgan o'qitishning davomiyligi va muddatlarini nazarda tutuvchi ekspress-kurslarni tashkil etadi; amaliy kasbiy ko'nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ixtisoslashtirilgan institutlar, markazlar, fakultetlar va malaka oshirish kurslari deyarli barcha yirik davlat vazirliklari va idoralari huzurida mavjud bo'lib, katta yoshdagi aholini zamonaviy tahdidlarga, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslashtirishga ko'maklashgan holda kasbiy ixtisoslik bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish vazifalarini bajaradi. Ayrim tarmoq yo'nalishlari bo'yicha davlat dasturlari mavjud va malaka oshirish bo'yicha nizomlar (Ommaviy axborot vositalari sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturi, Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizom va shu kabilar) tasdiqlangan. Deyarli barcha tuzilmalarda malaka oshirish davriyligi reglamentiro'natilgan. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash universitetlar, institutlar, akademiyalar huzuridagi markazlar va fakultetlarda, shuningdek, mamlakatning barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan qayta tayyorlash va malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan tarmoq institutlarida amalga oshiriladi. Pedagog kadrlar kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi va jamiyat uchun ahamiyati tufayli mutaxassislarni alohida toifaga ajratadi. Pedagoglar kelajak avlodni shakllantirishga xizmat qiladi, shuning uchun ularning kasbiy rivojlanishi mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining turli qarorlari ularning kasb malakasi va mahoratini oshirishga yo'naltirilgan.

Oliy o'quv yurtlari katta yoshdagilar uchun ikkinchi oliy ta'lim olish, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, kattalarning shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari, turli yo'nalishlar bo'yicha treninglar, seminarlar va mahorat darslari tashkil etish va boshqa imkoniyatlar yaratadi.

Ish beruvchilar (davlat firmalari va korporatsiyalari) o'z xodimlari uchun ularning mehnat bozorining zamonaviy talablari va texnologik o'zgarishlarga muvofiqligini ta'minlash uchun ichki malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etadi. Davlat kompaniyalari ko'pincha o'z vazifalarini bajarish jarayonida xodimlarga yangi ko'nikmalarni (murabbiylik, stajirovka va amaliy o'qitishning boshqa shakllari) egallash imkonini beradigan, o'z ishlab chiqarishi ehtiyojlariga javob beradigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, ular xodimlar uchun kommunikativ ko'nikmalar, boshqaruv ko'nikmalari, yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va seminarlar tashkil etadi. Davlat kompaniyalari mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etishi shart.

Sobiq madaniyat uylari va klub muassasalari negizida tashkil etilgan Madaniyat markazlari mulkchilik shakliga ko'ra davlat tashkiloti bo'lib, asosan norasmiy sektorda faoliyat ko'rsatib, madaniy-ma'rifiy tushdagi turli xizmatlarni (to'garaklar, badiiy va munozara klublari, madaniyat arboblari bilan uchrashuvlar va boshqalar) taklif etadi. Qonun hujjatlarida ularga nafaqat turli

⁷⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 16.10.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7166588>

madaniy tadbirlarni tashkil etish, balki ma'rifiy faoliyat yuritish, ta'lim dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan kasb ko'nikmalarini o'rgatish imkonini beradigan keng vakolatlar berilgan.

Muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, kinoteatrlar va san'at galereyalari (ham davlat, ham nodavlat) o'z tashrif buyuruvchilariga turli dasturlar, seminarlar, ma'rifiy va ma'rifiy ma'ruzalar taklif etib, asta-sekin ta'lim muassasalari vazifasini bajarishni boshladi, shaxsni rivojlantirish, malakasini oshirish va ijtimoiy hayotga jalb etish uchun imkoniyatlar yaratdi hamda norasmiy o'qitish va madaniy ma'rifat maydonchalari vazifasini bajarmoqda.

Davlat ta'limining afzalliklari bu o'qish uchun arzonroq narxlar, o'qitishning davlat standartlariga muvofiqligi va ish beruvchilarning yuqori ishonchi kiradi. Kamchiliklar orasida ro'yxatga olishning byurokratik jarayoni va davlat dasturlarining va talabalarning individual ehtiyojlariga zaif moslashishini qayd etish mumkin.

KYO' va UTB ning nodavlat provayderlari

Nodavlat ta'lim tashkilotlari (NTT) kattalar uchun turli ta'lim dasturlarini, jumladan, til kurslari, kompyuter ko'nikmalari va kasbiy tayyorgarlikni taklif etadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) quyidagilarga bo'linadi:

- Ijtimoiy tadbirkorlikdan tortib ekologik ta'limgacha bo'lgan turli yo'nalishlar bo'yicha treninglar, seminarlar, malaka oshirish kurslarini o'tkazadigan jamoat fondlari.
- O'z a'zolari yoki keng jamoatchilik uchun o'quv tadbirlarini amalga oshiruvchi jamoat birlashmalari, masalan, chet tillari kurslari, kompyuter savodxonligi, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, funksional savodxonlikni oshirish, inson huquqlari, global fuqarolik va boshqalar bo'yicha ma'rifiy dasturlar).
- Uyushmalar va kengashlar odatda o'z a'zolarining tajriba almashish va malakasini oshirish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar o'tkazadilar.

Tijorat tashkilotlari

- Konsalting kompaniyalari biznes uchun turli treninglar va seminarlar taklif etadi.
- Yirik kompaniyalar o'z xodimlarining malakasini oshirish uchun o'z o'quv markazlarini tashkil etadilar.

Rasmiy ta'limni taklif etuvchi firmalar

Jahon banki metodologiyasi asosida har bir mamlakatda "O'z doimiy xodimlari uchun rasmiy o'qitish va qayta tayyorlash kurslarini taklif etuvchi firmalarning foiz ulushi" kabi indikator o'lchanadi. Uni o'lchash uchun mamlakatdagi firmalarning umumiy sonidan mingdan ortiq kompaniya tanlab olinadi va so'rovlar o'tkaziladi. So'rovnoma 13 ta komponentdan iborat bo'lib, 67 ta subindikatorni o'z ichiga oladi. 2022-yilgi hisobotda O'zbekistonda rasmiy ta'lim berishni taklif etuvchi firmalar umumiy firmalar sonining 16,9% ni tashkil etishi va ushbu indikator bo'yicha mamlakat 88-o'rinni egallashi ko'rsatilgan. Raqamlar Jahon banki tomonidan 2019-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan 1 239 firma o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslanadi. So'rovda ishtirok etgan firmalar xodimlar soniga qarab 3 guruhga bo'lingan. So'rov natijalariga ko'ra, 603 ta kichik firmaning 13% yoki 78 tasi, 23,6% yoki 415 ta o'rta firmaning 97 tasi, 42,1% yoki 221 ta yirik firmaning 93 tasi o'z xodimlari uchun o'qitish, qayta tayyorlash kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etdi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar xodimlarini o'qitish, qayta tayyorlash kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish yetarli darajada emas, degan xulosaga kelish mumkin. Mamlakatimizning ushbu ko'rsatkich bo'yicha mavqeini oshirish uchun kichik va o'rta firmalarni xodimlarni o'qitish uchun rag'batlantirish maqsadida ish beruvchilarga davlat budjetidan subsidiyalar ajratish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir⁷⁸.

⁷⁸World Bank Enterprise Surveys (WBES). <https://www.enterprisesurveys.org/en/data/exploreeconomies/2019/uzbekistan>

Журнал «Экономическое обозрение», «Рынок труда Узбекистана в международных оценках» 06.01.2023 г. <https://review.uz/post/ozbekistonda-mehnat-bozorining-asosiy-korsatkichlari>

Xalqaro tashkilotlar/loyihalar

- Xalqaro nodavlat tashkilotlari ta'lim loyihalarini odatda mahalliy NNT lari bilan hamkorlikda amalga oshiradi (asosiy ko'nikmalarni o'qitish, kasbiy ta'lim, ma'rifiy dasturlar, aholining zaif qatlamlari uchun dasturlarni qo'llab-quvvatlash).
- Xalqaro taraqqiyot agentliklari ta'lim tashabbuslarini moliyalashtiradi va qo'llab-quvvatlaydi (ta'lim sifatini oshirish, ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish, ta'lim muassasalarining salohiyatini mustahkamlash va ta'lim tizimini mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojlariga **moslashtirish**).

Mustaqil ekspertlar va trenerlar (frilanserlar)

- "Curriculum globALE" dasturining bitiruvchilari (batafsil ma'lumot 2.7-bandda)
- Ta'lim xizmatlari bozorida o'z dasturlarini taklif qiluvchi boshqa amaliyotchi-trenerlar.

O'zbekistonda KYO' va UTB xizmatlarining turli provayderlarini ko'rib chiqish ushbu xizmatlarning turli shakl va formatlarini namoyish etadi, bu esa mamlakatning hayot davomida ta'lim olish tizimini rivojlantirishga intilishini aks ettiradi. Nodavlat tashkilotlari va tijorat tuzilmalari moslashuvchan va individuallashtirilgan dasturlarni taklif etayotganda, davlat provayderlari rasmiy ta'limdan foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ish beruvchilar ham inson kapitalini rivojlantirishga faol sarmoya kiritadilar.

KYO' va UTB provayderlarining mavjud spektrini tahlil qilishdan kelib chiqib, tizimni yanada rivojlantirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- Turli ta'lim provayderlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.
- Masofaviy ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratish. Jamiyatni raqamlashtirish sharoitida masofaviy ta'lim barcha provayderlar uchun yangi, masalan, auditoriya qamrovini kengaytirish va o'qishning moslashuvchanligi kabi imkoniyatlar yaratadi.
- Ta'lim jarayoniga ilg'or metodika va texnologiyalarni joriy etish uchun davlat, xususiy va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashni davom ettirish.
- Kichik va o'rta korxonalar uchun o'qitish dasturlarini ishlab chiqish.

2.7. KYO' va UTB xodimlari va institutlarini professionallashtirish

KYO' va UTB xodimlari va institutlarini professionallashtirish kattalar ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy omilidir. Malakali andragoglar⁷⁹ va KYO' va UTB bo'yicha boshqa mutaxassislar ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirgan holda ta'lim dasturlarining yuqori sifatini ta'minlamoqda. Professionallashtirish innovatsion metodika va texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, pirovardida xalqaro standartlarga moslashishga xizmat qiladi.

KYO' va UTB professionallashtirishning tarkibiy elementlari: KYO' va UTB mutaxassislari (andragoglar) uchun zarur bo'lgan vakolatlar, bilim va ko'nikmalarni belgilovchi standartlari; andragoglar va KYO' va UTB bo'yicha boshqa mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturlari; kattalarni o'qitishning zamonaviy metodikalari va texnologiyalarini joriy

⁷⁹Andragogika – katta yoshlilar pedagoglarni o'qitish va tayyorlash bilan bog'liq kasb, andragog - kattalarni o'qitish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. Bolalar va o'smirlar bilan ishlaydigan o'qituvchidan farqli o'laroq, andragog kattalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi

etishni; turli ta'lim va KYO' va UTB provayderlari o'rtasida institutsional bazani, tarmoq hamkorligini rivojlantirish hamda KYO' va UTB sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashni; mutaxassislarni tayyorlash dasturlari, malakasini hamda KYO' va UTB samaradorligini baholashni o'z ichiga oladigan professionallashtirish sifatini baholash tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

KYO' va UTB ni professionallashtirish sohasidagi davlat siyosati asosan rasmiy ta'limga, shuningdek, aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish dasturiga kiradigan ta'lim turlariga (shu jumladan norasmiy) yo'naltirilgan. KYO' va UTB ning qolgan norasmiy turlari asosan xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, DVV International ko'p yillar davomida kattalar ta'limi sohasida katta tajribaga ega tashkilot sifatida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda:

- Ishlab chiqilgan ta'lim dasturi asosida andragoglarni tayyorlash (Curriculum globALE).
 - NNT larni, "SABR" tarmog'i va Madaniyat markazlari a'zolarini institutsionallashtirish (Curriculum institutionALE).
 - Katta yoshdagi aholini o'qitish bilan shug'ullanuvchi NNT ning tarmoq hamkorligiga ko'maklashish ("SABR" NNT homiyligidagi Mahalliy rivojlanish markazlari tarmog'i).
- Ushbu yo'nalishlar asosan alohida loyihalar shaklida, ko'pincha xorijiy ekspertlarni maslahatchi sifatida taklif etgan holda amalga oshiriladi.


Curriculum globALE (CG)⁸⁰ loyihasi

O'zbekistonda andragogika fan sifatida dastlabki rivojlanish bosqichida va ayni vaqtda universitetlarda kattalarni o'qitish yoki andragogika sohasidagi tadqiqotlar bo'yicha maxsus kafedralar mavjud emas. Mamlakatimizda katta yoshdagilar uchun o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari Klassifikatorida "andragog" mutaxassisligi mavjud emasligi fonida kuzatilmoqda. Bugungi kunda kattalarga asosan pedagogika yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarini tamomlagan yoki malaka oshirish institutlari, NTT lar va uyushmalarning turli dasturlari (trenerlar tayyorlash bo'yicha xususiy dasturlar), xalqaro loyihalar (treninglar) bo'yicha o'qishni tamomlagan mutaxassislar ta'lim bermoqda.

Andragoglarni tayyorlash sohasidagi loyihalar 2008-yildan beri DVV International tomonidan amalga oshirilmoqda, ammo eng muvaffaqiyatlisi 2013-2015-yillarda Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning global dasturi Curriculum globALE (CG) sinov loyihasi bo'lib, u davlat va nodavlat sektor vakillaridan iborat trener - andragoglar pulini (guruhi) yaratishga qaratilgan. DVV Filialining bu boradagi yana bir tashabbusi 2019-yilda Professional ta'limni rivojlantirish instituti bilan hamkorligida CG dasturi bo'yicha masofaviy ta'lim platformasi - www.cgtvet.uz ni yaratish borasida boshlangan loyiha bo'ldi.

Mamlakatimizning turli hududlaridan 130 ga yaqin mutaxassis alohida CG modullari bo'yicha masofaviy kurslardan o'tdi. Bugungi kunda Institut kattalar uchun o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha samarali platformaga ega. Platforma Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" tomonidan berilgan guvohnomaga ega. Lekin butun respublikani qamrab olish uchun platforma resurslari yetarli emas.


⁸⁰Curriculum globALE (CG) - Bu butun dunyo bo'ylab kattalarni o'qitish va ta'lim berish bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash uchun vakolatlarga asoslangan modullararo bazaviy o'quv dasturi. <https://www.dvv-international.de/ale-toolbox/lehren-und-fortbilden/curriculum-globale>



KYO' va UTB sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq muammolarni hal etishda bakalavriat va magistratura darajasidagi oliy ta'lim tizimiga "andragogika" yo'nalishini joriy etish muhim qadam bo'ladi, bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi, balki andragogika bo'yicha o'z ilmiy-tadqiqot maktabini tashkil etishga, davlat tilida ilmiy adabiyotlar yaratishga, katta yoshdagi aholi uchun ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga ham ta'sir qiladi.

Curriculum institutionALE (CI)⁸¹ loyihasi

Ushbu loyiha O'zbekistonda 2021-2023-yillarda amalga oshirilib, KYO' va UTB muassasalarini tashkiliy rivojlantirishga qaratilgan edi. Curriculum institutionALE – bu DVV International tomonidan ishlab chiqilgan va ishonchli boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash asosida kattalar uchun ta'lim provayderlarining tashkiliy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini va tashqi baholash bilan birgalikda taraqqiyotini doimiy davriy o'zini o'zi baholashni taklif etadigan yo'naltirilgan dasturdir.



Dastur universal bo'lib, butun dunyo bo'ylab sinovdan o'tkazilmoqda. Loyihaga kattalar uchun turli o'quv kurslarini o'tkazuvchi 5 NNT va 3 madaniyat markazi jalb etildi. Taraqqiyotga erishish bo'yicha asosiy tadbirlar sifatida tanlangan tashkilotlarning asosiy xodimlari uchun o'quv tadbirlaridan foydalanildi.

O'zini o'zi baholash natijalarini talqin qilish uchun ko'p o'lchamli ma'lumotlarni, ishlarning holatini tezkor aks ettirishni, zaif va kuchli joylarini, turli tashkilotlarda zaif va kuchli tomonlarning mos kelishi va kelmasligini ko'rgazmali taqdim etish imkonini beruvchi

qutb o'qiga ega radial diagrammalaridan foydalanildi.

Ushbu vosita barcha tashkilotlar uchun birgalikda o'quv tadbirlarini o'tkazish mumkin bo'lgan mavzuli yo'nalishlarni aniqlashga yordam berdi va qaysi mavzular bo'yicha individual maslahatlarni o'tkazish yaxshiroq ekanligini ko'rsatdi.

⁸¹Curriculum institutionALE – bu KYO' va UTB provayderlarining tashkiliy salohiyatini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan dasturdir. <https://www.dvv-international.de/ale-toolbox/organisation-und-management/curriculum-institutionale>

Loyiha faoliyatining uch yillik bosqichida (2021-2023-yillar) uning ishtirokchilari umumiy soni barcha sherik tashkilotlar (NNT va MM) bo'yicha 525 kishini tashkil etdi. Ulardan 143 nafari qo'shma treninglarda, 382 nafari uchta MM xodimlari uchun tashkil etilgan treninglarda ishtirok etdi. Dastur hamkorlarga mustaqil ishlash, institutsional rivojlanish darajasini rivojlantirish va kuzatish imkonini beradi.

Loyiha ishtirokchilari bilan o'tkazilgan intervyu natijalari Curriculum institutionALE boshqaruvi ta'siridagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi:

5-jadval

NNT	Madaniyat markazlari (MM)
O'quv dasturlarining tarkibi va mazmuni yaxshilandi	Xodimlarning malakasi oshdi
Innovatsion bilim sifatida andragogika ko'nikmalari haqida tasavvur olindi	
O'quv kurslarining amaliy tomoni va ishtirokchilarning qoniqishi yaxshilandi	Aholiga pullik xizmat ko'rsatishni tashkil etish tizimi yaxshilandi
Davlat platformasining elektron bazasiga tinglovchilarning kiritilishi tufayli o'quv treninglarining gender va inklyuziv xususiyati kuchaydi	
Trenerlar malakasi oshirildi	Ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish imkoniyatlari kengaydi
Katta yoshdagi aholini o'qitishning yagona modullari/standartlarini, shuningdek, buxgalteriya standartlari va moliyalashtirishning yangi manbalarini izlash ko'nikmalarini ishlab chiqish bo'yicha NNT salohiyati kuchaydi (fandrayzing)	
Maqsadli guruhlarining o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarini baholash bo'yicha so'rovnomalar unifikatsiyalashtirildi	

Curriculum institutionALE dasturi tashkilotlarga mustaqil ravishda ishlash, rivojlanish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va institutsional rivojlanish darajasini kuzatish imkonini berdi. KYO' va UTB ga ixtisoslashgan har qanday tashkilot undan o'zining tashkiliy salohiyatini oshirish uchun foydalanishi mumkin.

“KYO' va UTB provayderlarining tarmoq hamkorligiga ko'maklashish” loyihasi

Kattalar ta'lim provayderlarining tarmoq hamkorligi tajriba almashish, ta'lim dasturlarini birgalikda ishlab chiqish, yagona axborot muhitini yaratish va qo'shimcha resurslarni (grant olish uchun qo'shma buyurtmalar) jalb qilish hisobiga ta'lim jarayonlarining sinergetik samarasini yaratish va kasbiy mahoratini oshirish orqali KYO' va UTB ni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Tarmoq hamkorligi ta'lim xizmatlari sifatini baholash va ushbu baholash natijalari bilan almashish mexanizmlarini yaratishga ham ko'maklashishi mumkin. Bu nafaqat eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash, balki ta'lim standartlarini oshirish orqali kamchiliklarga tezkor javob qaytarish imkonini beradi. Shuningdek, u KYO' va UTB da innovatsion yondashuv va texnologiyalarni rivojlantirishga masalan, qo'shma tadqiqot loyihalari va tajriba dasturlarini yaratish orqali ko'maklashishi mumkin.

DVV International 2013-yildan buyon “SABR” NNT ning tashkiliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab kelmoqda va bu hamkor butun respublika bo'ylab boshqa ijtimoiy yo'naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari tarmog'i uchun uyushma tashkilotiga aylanganidan so'ng, ushbu tarmoqning professional bo'lishiga ko'maklashish maqsadida uning tashkiliy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlay boshladi.

Tarmoq a'zolari o'zlarini ishsizlar va kam ta'minlangan oilalar uchun turli ta'lim dasturlarini: kasbga o'qitish kurslarini (22 ta yo'nalish); yetakchilik, shaxsiy rivojlanish, sog'lom turmush tarzi va boshqa masalalar bo'yicha norasmiy ta'lim kurslarini taklif qiluvchi Mahalliy rivojlanish markazlari (MRM) sifatida ko'rsatadilar. Tarmoq 2018-yil fevral oyida tashkil etilgan bo'lib, hozirda O'zbekistonning barcha hududlaridan 12 NNT ni birlashtiradi. Turli ta'lim dasturlari va resurslarini jamlagan "SABR" Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi asosiy tashkilot/tarmoq markazi hisoblanadi. Resurslarning ustuvor manbalaridan biri - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondining davlat ijtimoiy buyurtmalari mexanizmidir.

4-чизма.



Tarmoqning maqsadi qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalarning ayniqsa, ayollar va qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning bandligini ta'minlash, farovonligini oshirish, fuqarolik safarbarligini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar va innovatsion dasturlarni joriy etish uchun tarmoq a'zolarining salohiyatini rivojlantirishni ta'minlashdan iborat.

2021-yilda tarmoqni yanada sifatli rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tarmoqning samaradorligini baholash loyihasi amalga oshirildi. Buning uchun tashkiliy rivojlanish bo'yicha xorijiy ekspertlar taklif etilib, ular tarmoqning mahsulot va xizmatlari, tashqi muhit bilan o'zaro hamkorlik va tarmoqning ichki tuzilishi kabi uch yo'nalish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar va amaliy qadamlarni taklif etdilar.

Ekspertlar O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan NNT lari faoliyati va ular o'rtasida tarmoq hamkorligini rivojlantirish uchun qulay muhit mavjudligini qayd etib, quyidagi xulosaga keldilar: "O'zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va demografik omillar tarmoqqa a'zo tashkilotlar faoliyatiga bo'lgan talabni shakllantiradi, shuningdek, uni amalga oshirish uchun muayyan hajmdagi resurslarni taqdim etadi. Bu postsovet mamlakatlari uchun juda noyob holat".

2.8. Katta yoshdagi aholini KYO' va UTB bilan qamrab olish

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ⁸³ so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish sezilarli darajada o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa bu sohada yoshlarning ulushini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bilan bog'liq. Oliy o'quv yurtlarining eng ko'p konsentratsiyasi Toshkent shahri, shuningdek, Samarqand, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida kuzatilmoqda. Xalqaro amaliyotda kunduzgi ta'lim shakli talabalari, qoida tariqasida, kattalar ta'lim statistikasiga kiritilmaydi, chunki ular rasmiy ta'limni tugatmagan va mehnat faoliyati bilan band bo'lmaydilar ("O'zbekiston xalqaro kontekstida va ta'lim tizimida KYO' va UTB chegaralari" paragrafiga qarang). Biroq, O'zbekiston qonunchiligida KYO' va UTB tushunchasi keng ma'noda talqin qilinganligi tufayli oliy o'quv yurtlari talabalari 6-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlarda hisobga olingan.

6-jadval

Ko'rsatkich	2013	2023	Ortib borishi
Oliy ta'lim tashkilotlari soni	66	219	3,3
Oliy o'quv yurtlarini tamomlagan talabalar soni	60524	184133	3,0
Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar soni	259290	1314542	5,1
Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar soni (ayollar)	96636	656617	6,8
Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar soni (erkaklar) 25/09/2024	162654	657925	4,0
Oliy ta'lim tashkilotlarida 30-34 yoshdagi talabalar soni	3732	101051	27,1
Oliy ta'lim tashkilotlarida 40 yosh va undan katta yoshdagi talabalar soni	211	36113	171,2
Oliy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari soni	23148	45210	2,0
Kunduzgi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan talabalar soni	258900	661800	2,6
Kechki ta'lim shaklida ta'lim olayotgan talabalar soni	0	45100	
Sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan talabalar soni	400	607600	1519
10 000 aholiga oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni	85	357	4,2

Kasbiy ta'limda ham davlat siyosati sezilarli rivojlanish va kengaytirishga qaratilgan. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2 million fuqaroni kasb-hunar, biznes ko'nikmalari va chet tillariga o'qitish, Kasbiy ta'lim markazlarining 1,6 ming o'qituvchisi malakasini oshirish rejalashtirilgan ⁸⁴.

2019-yil oxirida o'tkazilgan "O'zbekistonda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish: dolzarb holat va rivojlanish istiqbollari"⁸⁵ loyihasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot kattalarning o'qishga bo'lgan katta ehtiyojini aniqladi. Ijtimoiy so'rov ham norasmiy ham rasmiy ta'lim va o'qishni qamrab olish bo'yicha o'tkazildi.

Rasmiy ta'limda ishtirok etish darajasi aniqlanganda respondentlarga so'nggi 12 oy ichida biron-bir ta'lim muassasasida rasmiy ta'lim olish uchun o'qiganmi yoki yo'qmi degan savol berildi, ta'lim joyi, yo'nalishi va boshqalar bilan bog'liq tafsilotlar ham aniqlashtirildi. Aniqlanishicha,

⁸³O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ijtimoiy soha. 2024-yil 25-sentabr holatiga oliy ta'lim. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>.

⁸⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida 11.09.2023-y. PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

⁸⁵«Участие в обучении и образовании взрослых в Узбекистане. Результаты социологического исследования, 2020 г. https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications_and_other_media/Publications/2020_%D0%A3%D0%97%D0%91/AES-UZ-2020_final_version.pdf

respondentlarning atigi 8,6% rasmiy ta'lim olish uchun ta'lim muassasasida o'qigan, shu jumladan 8,1% erkaklar va 9% ayollardir. Yoshning ulg'ayishi bilan bu ko'rsatkich pasayib borgan, ishlovchilar orasida esa o'qish bilan band bo'lmaganlar bilan solishtirganda ancha ko'p - mos ravishda 9,5% va 5,6% tashkil etdi. Saralashga ko'ra o'tgan yil davomida ikkinchi ma'lumotni 2 kishi olgan. O'tgan yil davomida rasmiy ta'lim olganlarning yarmidan ko'pi malaka oshirgan - 60,5%, bakalavriat yo'nalishi bo'yicha - 20% va magistratura/aspiranturada - 4%, yana 4% professional haydovchilik guvohnomasini olgan. Ularning 40% davlat ta'lim markazida, 12% idoraviy/tarmoq ta'lim markazida, 32,5% oliy ta'lim muassasasida, 12% kollej/litseyda, qolganlari nodavlat ta'lim muassasalarida o'qigan.

Ta'limning so'nggi yili davomida o'tilgan yo'nalishlar, umuman olganda, erishilgan ta'lim tuzilmasini takrorlaydi, ya'ni olingan ta'limdagi nomutanosibliklar mos kelmaydi. Asosan oliy ma'lumotli mutaxassislar o'qiydilar. O'rta professional ma'lumotga ega bo'lgan respondentlar 25 yoshdan keyin kamdan-kam hollarda o'qiydi. Malaka oshirish kurslaridan muntazam o'tishi shart bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari va boshqa ayrim xodimlar bundan mustasno.

Respondentlar ta'lim olishining asosiy sababi - bu ishdagi mavqeini saqlab qolish yoki yaxshilash istagidir (37%) va erkaklar bu borada ayollarga qaraganda ko'proq (mos ravishda 42,5% va 34,4%) qayg'urishadi.

Respondentlarning to'rttdan bir qismi ish beruvchining talabiga ko'ra yoki qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'lim olgan. Shaxsiy sabablar (masalan, o'zlari qiziqqan sohada bilim va ko'nikmalarni kengaytirish, kundalik hayotda foydali bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash, yangi odamlar bilan tanishish) respondentlarning 16% da o'qish motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va ayollarda bu motiv erkaklarnikiga qaraganda ko'proq uchraydi (mos ravishda 20% va 10%).

Ishga joylashish yoki boshqa ish qidirish maqsadida ayollar va erkaklarning atigi 11-12% ta'lim olgan. Respondentlarning 10% dan kamrog'i ta'lim to'g'risidagi guvohnomani rasman olish uchun o'qigan. Iqtisodiyot va biznes yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar ko'p bo'lishiga qaramay, respondentlarning oz qismi o'z biznesini ochishni xohlashdi (taxminan 1%).

Respondentlarning aksariyati (85,5%) kunduzi, 6,6% - kechqurun kunduzgi bo'limda, 7,9% esa an'anaviy materiallar bilan masofadan turib o'qigan (sirtqi shakl). Onlayn yoki oflayn masofaviy ta'lim olgan respondentlar bo'lmagan. So'rovda qatnashganlarning 14,5% o'qish vaqtida ishlamagan.

Respondentlarning aksariyati (64,5%) ishdan ajralgan holda tahsil olgan. Jumladan, 51,3% o'qish jarayonida ish vaqti uchun mehnat haqi to'langanini, 13,2% ish vaqti to'lanmaganini aytdi. Har beshinchi (21,1%) respondent ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ish vaqtidan tashqari vaqtda o'qigan, 14,5% respondent o'qish vaqtida ishlamagan.

O'qish muddati qisqa - respondentlarning $\frac{1}{4}$ qismi 3 oydan kam, yarmidan ko'pi esa bir oydan kam o'qigan. Shu bilan birga, ta'lim juda intensiv - 85% ta'lim har kuni, ba'zan hatto dam olish kunlarisiz, ko'pincha butun ish kuni davomida o'tkazilishini aytishgan.

Respondentlarning 9,5 % o'qish uchun mustaqil ravishda, 19% ota-onasi/qarindoshlari tomonidan to'langan. Boshqa hollarda o'qish uchun ish beruvchi yoki yuqori idoralar haq to'lagan. O'qish uchun o'z mablag'lari hisobidan pul to'laganlar uchun to'liq o'qish kursining narxi ancha yuqori

- aksariyat hollarda 2-5 million so'mni tashkil etadi va 10 million so'mga ham yetishi mumkin. O'quv materiallari uchun o'qishning o'ziga qaraganda ancha ko'p to'lovchi respondentlar soni 91% tashkil etadi. O'quv materiallari uchun to'lov 10 ming so'mdan bir necha million so'mgacha.

Aksariyat hollarda (76%) respondentlar o'qish vaqtida olgan bilim va ko'nikmalaridan o'z ishlarida foydalanishlari mumkinligiga ishonishadi. Biroq, ish bilan band bo'lganlarning deyarli 16% o'z vazifalarini bajarish uchun o'z ta'limini qanday qo'llashlari mumkinligini bilishmaydi. Erkaklar orasida bunday respondentlar ayollarga nisbatan ikki baravar ko'p (22,6% va 11,1%). Bu, ayniqsa, aksariyat hollarda ta'lim ish beruvchining tashabbusi va qonunchilik talabi bilan amalga oshirilishini hisobga olsak, ogohlantiruvchi ko'rsatkichdir. Bunday holat ta'lim mazmuni mehnat vazifalariga yetarlicha mos kelmasligidan dalolat beradi. Ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlash xodimlarga qo'yiladigan talablarni hisobga olmagan holda yuzaki ravishda amalga oshiriladi, deb taxmin qilish mumkin.

“Rasmiy ta'lim muassasalarining keng tarmog'i mavjud bo'lishiga qaramay, ularning katta yoshdagi aholining ta'limdagi ishtirokini yaxshilashdagi roli yetarli emas. Xuddi shu xulosa norasmiy ta'limga ham tegishli bo'lib, bunda rasmiy ta'lim muassasalarining ulushi atigi 10% ni tashkil etadi”⁸⁶.

Tadqiqot natijalari bo'yicha xulosalar mualliflarga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

- Davlat ta'lim muassasalarini (maktablar, kasbiy ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish institutlari) ular joylashgan jamoalarda rasmiy va norasmiy ta'limni ilgari surishda yanada faol rol o'ynashga rag'batlantirish. Rasmiy ta'lim muassasalarining keng tarmoqli salohiyatidan KYO' va UTB ni rivojlantirish uchun foydalanilishi kerak;
- Xususiy kompaniyalar/korxonalar (ayniqsa kichik korxonalar) o'z xodimlarining malakasini muntazam oshirib borishga ko'maklashishi va o'qish natijalarini tarjimai holda (har bir ta'lim oluvchining shaxsiy “ta'lim hisobvaraqlarida”)⁸⁷ aks ettirish mexanizmlarini ishlab chiqishi uchun moliyaviy rag'batlantirishi zarur;
- Kattalarning ta'lim olish imkoniyatlaridan foydalanishiga ko'maklashadigan hamda bunday ta'limning ko'rinishi va foydasini oshirishga ko'maklashadigan sifatli axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash.

Katta yoshli aholining norasmiy ta'lim olishida ishtirok etish darajasi haqida ochiq ma'lumot mavjud emas. Ma'lumot parchalanib yig'iladi va ko'pincha tizimlashtirilmagan. “Norasmiy ta'lim” tushunchasining o'zi juda keng bo'lib, mahorat darslari, vorkshoplar, treninglarda ishtirok etish, ish joyida o'qitish, jamoalarda tajriba almashish va hokazolarni nazarda tutadi, bu esa bunday xilma-xil ma'lumotlarni to'plashning yagona metodologiyasi mavjud emasligi tufayli baholashni qiyinlashtiradi.


Norasmiy ta'limda ishtirok etish darajasi mintaqa, infratuzilmaning rivojlanishi va axborotdan foydalanish darajasiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Aniq raqamlar o'rniga yuqorida aytib o'tilgan tadqiqot natijalariga tayanib, faqat tendensiyalar haqida gapirish mumkin va u kattalarning ta'lim olish va o'qitishda ishtirok etish darajasini aniqlash uchun Evropa Ittifoqining vositalaridan foydalangan holda empirik xususiyatga ega edi (Adult Education Survey).

⁸⁶ Д.Ташмухамедова. «Учиться, чтобы действовать». <https://www.gazeta.uz/ru/2020/09/23/education-for-adults/>

⁸⁷ Ta'lim olish uchun yakka tartibdagi shaxs (davlat, korxonalar tomonidan) uchun ajratiladigan resurslarning bazaviy hajmi (vaucherlar).

Tadqiqot natijalari asosida ushbu yondashuv vositalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlandi.

5-diagramma.



* Manba: «Oila» markazi tadqiqot materiallari asosida DVVning O'zbekistondagi Filiali.

Tadqiqot norasmiy ta'limda aholining ishtiroki ancha past (10,3%) ekanligini ko'rsatdi. Yoshi o'tgan sari bu ko'rsatkich pasayadi (5-diagramma).

Taqqoslash uchun Yevropa Ittifoqi statistika xizmatining (Eurostat) kattalarning norasmiy ta'limda ishtirok etishi to'g'risidagi ma'lumotlarini keltirish mumkin. Masalan, 2022-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehnatga layoqatli yoshdagi (25-64 yosh) kattalarning 64,2%i norasmiy ta'limda ishtirok etgan.

O'zbekistonda norasmiy ta'limda xotin-qizlarning ishtiroki ko'rsatkichlari 11,4% ni tashkil etdi, bu esa erkaklarnikidan bir oz yuqori - 8,9%. Norasmiy ta'limda ishtirok etish darajasi pastligiga qaramay, bunday ta'limni olish zarurligini qishloq joylarda respondentlarning 60% va shaharlarda 51% qayd etgan. Ishtirokchilarning 55% norasmiy ta'lim olish muhimligi va zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, ularning 63,3% ayollardir. Umuman olganda, 24-33 yoshdagi – 70,8% yoshlarning ko'nikma va bilim yetishmasligi, kattalarni esa 34-43 yoshlilar – 59,6% , 44-60 yoshlilar – 38,4% ni qayd etilmoqda.

So'rov natijalariga ko'ra, norasmiy ta'limning asosiy provayderlari: ish beruvchilar (42%), xususiy shaxslar (21%), nodavlat ta'lim tashkilotlari (18%) hisoblanadi. Norasmiy sektorda xizmat ko'rsatuvchi rasmiy ta'lim muassasalarining ulushi atigi 10% ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi provayderlar spektri tuzilmasi: ish beruvchilar - 34,7%, rasmiy ta'lim muassasalari - 7,0%, norasmiy ta'lim muassasalari - 19,9%, boshqa davlat yoki xususiy muassasalar - 25,7%, xususiy shaxslar - 9,9%, javobsiz - 2,7% ⁸⁸.

Respondentlarning 40%i uchun ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai internet, 37% boshqa odamlardan (oila a'zolari, do'stlari, tanishlari) va 29% OAV orqali ma'lumot oladi. Bu AKT savodxonligi juda past ekanligini ko'rsatadi, respondentlarning 60% hech qachon kompyuterdan, 47% esa internetdan foydalanmagan. Qishloq joylarda va ayollar o'rtasida AKT savodxonligi darajasi yanada past. 40 yoshdan oshgan ayollarning 75% kompyuterdan umuman foydalanmaganligini ta'kidladi.

Qo'shimcha ta'lim olish uchun motivatsiya haqida gapirilar ekan, 37% respondent ishini saqlab qolish yoki kasbiy malakasini oshirish maqsadida o'qiganlarini ta'kidladi. Bu izoh ko'proq erkaklarga xos (42.5%) va ayollarda esa bu ko'rsatkich 34.4% dan past. Faqatgina 16% o'z xohishi bilan shaxsiy yoki kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun o'qigan, ularning aksariyati ayollar (20%). Ishtirokchilarning 12% o'qish uchun to'lovni o'zi to'laganini, 9% oila a'zolari yoki qarindoshlari, 33% ish beruvchi hisobidan to'laganini, 39,6% esa bepul ekanligini ta'kidladi. Aholi to'lov qobiliyatining pastligi va norasmiy sektorda o'qish narxining yuqoriligi KYO' va UTB ishtirokchilari sonini ko'paytirishda muhim muammolar hisoblanadi deb taxmin qilish mumkin.

Respondentlarning 49%: ulardan 51% oilaviy sabablarga ko'ra, 26% shaxsiy motivatsiyasi yo'qligi sababli emas, balki o'qish narxining yuqoriligi sababli ta'lim olish imkoniyati yo'qligini ta'kidlagan. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, asosiy to'siq bu tashqi omillar, ya'ni moliyaviy tomoni, rivojlangan AKT tizimi yo'qligidir. Ushbu muammolarni hal etishga tegishli davlat tuzilmalari, tijorat va notijorat sektorlarining faol ishtirokida kompleks yondashish zarur.

KYO' va UTB ni tashkil etishda va katta yoshdagilarni jalb etishda gender tengligini ta'minlash, bir vaqtning o'zida turli nogironlik turlari va darajalariga ega bo'lgan katta yoshdagi aholining, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan ijtimoiy guruhlarini, shuningdek, mamlakatda ozchilikni tashkil etuvchi millat vakillarini ta'lim berish va o'qitishda ishtirok etish bilan bog'liq inklyuziya masalalarini hal etish zarur. Bunda ushbu masalalar bilan bevosita shug'ullanuvchi tegishli tashkilotlar va muassasalar bilan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda AKT savodxonligi, internet va onlayn platformalar rivojlanishi bilan norasmiy ta'lim olish imkoniyati ortib borishi mumkin. Biroq, bu o'sishni miqdoriy baholash hali ham qiyin.


Ijtimoiy so'rovlar DVV ning O'zbekistondagi Filiali va ayrim hamkor NNT lari ko'magida o'tkazilmoqda. Ular asosan ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini baholash, maqsadli auditoriyalarni tahlil qilish, ta'limda ishtirok etishga to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganishga qaratilgan. Masalan, "SABR" RIIRM⁸⁹ ning ijtimoiy tadqiqotida so'rovda qatnashgan ayollarning 60,1% masofadan turib o'qish imkoniyatini tasdiqlagan (tanlov O'zbekistonning 5 viloyatini o'z ichiga olgan). Shu bilan birga, so'rovda qatnashgan ayollarning atigi 9,3% da kompyuter, 3,1% da planshet bo'lgan. Respondentlarning qariyb yarmi masofaviy ta'lim olish uchun faqat mobil aloqa (Internet) ni ulash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan uyali telefonlar mavjudligini aytgan. Biroq, qishloq joylarda har doim ham internet va kam ta'minlangan oilalarda undan foydalanish imkoniyati mavjud emas, bu esa norasmiy ta'limda ishtirok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

⁸⁸Eurostat «Providers of non-formal adult education and training» https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Adult_learning_statistics_-_characteristics_of_education_and_training

⁸⁹"Maqsadli guruhlar ehtiyojlarini baholash va hududiy nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkiliy va institutsional rivojlantirish diagnostikasi", Sotsiologik tadqiqot, 2021. O'zbekistondagi DVV Filiali ma'lumotlar bazasi. 2021.

Ushbu tashkilotning yana bir ijtimoiy tadqiqoti shuni tasdiqlaydiki, moliyaviy omil (ayniqsa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun) aksariyat hollarda norasmiy ta’limda ishtirok etish uchun to’siq hisoblanadi (6-diagramma).

6-diagramma.



*Manba: “SABR” RIIRM tadqiqoti ⁹⁰.

Ayrim xorijiy tadqiqotchilar⁹¹ norasmiy ta’limda kattalarning ishtiroki darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni ko’p darajali yondashuv nuqtai nazaridan ko’rib chiqishni va ularni uch guruhga ajratishni taklif qilmoqdalar:

- Mikro-omillar (ijtimoiy va xulq-atvor)
- Mezo-omillar (ish bilan bog’liq)
- Makro-omillar (mamlakatga xos)

Mikro darajadagi ijtimoiy omillar yoshi, jinsi, eng yuqori erishilgan ta’lim darajasi va bandlik maqomini o’z ichiga oladi. Xulq-atvor xususiyatlari psixologik tuzilmalarni (motivatsiya, ehtiyojlar, o’qish niyatlari yoki hayot davomida o’qishga munosabat) nazarda tutadi.

Mezo darajadagi ijtimoiy omillar ish bilan bog’liq tavsiflarga, shu jumladan provayderlarga bog’liq. Ularning bir shakli o’ziga xos xususiyatlarga ega, shu jumladan arzonligi, qiymati va

⁹⁰“Aholining ehtiyojmand qatlamlari farovonligini oshirish uchun ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish” “SABR” RIIRM mini-tadqiqoti, 2023. O’zbekistondagi DVV Filiali ma’lumotlar bazasi.

⁹¹Jitka Vaculíková, Jan Kalenda, Ilona Kočvarová «Participation in non-formal adult education within the European context: examining multilayer approach». Research Centre of the Faculty of Humanities, Tomas Bata University in Czechia. «Frontiers», 17 July 2024. <https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/educ.2024.1380865/full>

moslashuvchanligi bo'lgan o'quv yurtlarini o'z ichiga oladi. Boshqa shakli esa ish joylariga qaratilgan va bu yerda kompaniyaning hajmi, norasmiy ta'limni moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Makro darajadagi ijtimoiy omillar mamlakatning institutsional xususiyatlari va kattalar ta'lim siyosati, masalan, mehnat bozorining faol siyosatiga investitsiyalar kiritish, uzluksiz o'qitishni standartlashtirish va ko'nikmalarni doimiy rivojlantirishga doir turli talablarga ega bo'lgan asosiy iqtisodiy xususiyatlar hisobga oladi.

Bunday yondashuv kattalarning norasmiy ta'limdagi ishtiroki uchun mas'uliyatni ushbu ta'lim sektoridagi barcha asosiy ishtirokchilar, jumladan, davlat, ta'lim muassasalari, biznes va ta'lim oluvchilarning o'zlari o'rtasida adolatli taqsimlash imkonini beradi.

3. O'ZBEKISTON KYO' VA UTB TIZIMINING SAMARADORLIGI

3.1. Katta yoshdagi aholining bazaviy va funksional savodxonlik darajasi



Kattalar o'rtasida bazaviy savodxonlik darajasi - o'qish va yozishni biladigan, kundalik hayoti haqida qisqa, oddiy so'zlashuvni tushunadigan 15 va undan katta yoshdagi odamlarning foizidir. O'zbekiston ta'limga faol sarmoya kiritmoqda, bu esa turli yosh guruhlar o'rtasida savodxonlikni oshirishga xizmat qilmoqda. YuNESKO ma'lumotlariga⁹² ko'ra, 2021-yilda mamlakatda savodxonlik darajasi 99,99%, 2022-yilda esa «The Global Economy. com»⁹³ ma'lumotlariga ko'ra 100% ga yetdi. Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bu mamlakatdagi barcha kattalar o'qish va yozishni bilishini anglatadi. Bunda faoliyatning

turli sohalarida, muloqot va ijtimoiy munosabatlarda keng ko'lamli hayotiy vazifalarni hal etish uchun olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati - funksional savodxonlik, muvaffaqiyatli hayotning muhim omili hisoblanadi. Funksional savodli inson o'z bilimlarini nafaqat o'quv sharoitida, balki real hayotda ham (yo'riqnomalarni o'qish, hujjatlarni to'ldirish, budjetni hisoblash, moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda qarorlar qabul qilish) ishlatishi mumkin.

O'zbekistonda aholining 100% o'qish va yozishni⁹⁴ bilganligi sababli, "savodxonlikka o'qitish" kabi ta'lim yo'nalishi ahamiyatsiz hisoblanadi. Biroq, funksional savodsizlik keksa odamlar orasida keng tarqalgan. Masalan, ayrim keksa avlod vakillari birinchi marta maishiy texnika, Internet yoki bankomatlardan foydalanishda maslahatga muhtoj.

An'anaviy savodxonlikdan tashqari, raqamli savodxonlik (kompyuter, internet, turli dasturiy ilovalardan foydalanish qobiliyati, shuningdek, raqamli muhitda ma'lumotlarni topish, baholash va ulardan foydalanish qobiliyati) tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global Competitiveness Report ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston raqamli rivojlanishga tayyorlik indeksida 141 mamlakat

⁹²UNESCO, news: «International Literacy Day 2021 and UNESCO's support to Uzbekistan's Government in prioritizing access to education». <https://www.unesco.org/en/articles/international-literacy-day-2021-and-unescos-support-uzbekistans-government-prioritizing-access>

⁹³The Global Economy.com. Business and economic data for 200 countries. https://ru.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/literacy_rate/

⁹⁴O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_292.pdf

orasida 68-o'rinni egallaydi. Bir yilda mamlakat 4 pog'onaga ko'tarilib, so'nggi uch yil davomida kuzatilayotgan ijobiy dinamikani mustahkamladi.

Axborot bilan boyigan zamonaviy dunyoda media-axborot savodxonligi birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Media-axborot savodxonligi - odamga media va axborot bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalar majmui bo'lib, u nafaqat raqamli qurilmalardan foydalanishning texnik ko'nikmalarini, balki media kontentni tanqidiy tahlil qilish, ommaviy axborot vositalari qanday yaratilayotgani va tarqatilayotganini tushunish, noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlash va manipulyatsiyalarga qarshi turish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

USAID, "Jamoatchilik fikri" tadqiqot instituti va Internews tashkiloti ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston aholisining 53,1% media-axborot savodxon ekanligiga ishonch bildirmoqda. Biroq, chuqurroq tahlil bu sohada kamchiliklarni aniqladi: respondentlarning atigi 38,9% turli manbalardan olingan ma'lumotlarni samarali tahlil qilishga qodir, 21,3% samarali internet qidirish ko'nikmalariga ega, 15% esa internetdagi ma'lumotlarni tanqidiy baholay oladi ⁹⁵.

Ushbu natijalar media-axborot savodxonligining barcha komponentlarini rivojlantirishga, shu jumladan axborot izlashga, media tarkibini tushunishga, undan foydalanishga, o'z kontentini yaratishga va har qanday axborotni tanqidiy baholashga qaratilgan ta'lim dasturlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi (batafsil 5.1-bo'limida).

O'zbekistonning katta yoshdagi aholisi o'rtasida funksional savodxonlikning yetishmasligi kattalar ta'lim tizimi uchun muayyan muammo tug'dirmoqda. Funksional savodxonlik darajasining pastligi kattalarni ishga joylashtirish va martabasi o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish fuqarolardan raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini talab etadi. Jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish uchun ham funksional savodxonlik zarur. Funksional savodxonlik darajasini oshirish inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda. Shu bois, katta yoshdagi aholining funksional savodxonligi darajasini oshirish O'zbekistondagi KYO' va UTB tizimi uchun muhim vazifa bo'lib, uni hal etish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va fuqarolarning hayot sifatini oshiradi.

3.2. KYO' va UTB ning ochiqqligi

KYO' va UTB ning ochiqqligini oshirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, aholining hayot sifatini oshirish va har bir insonning shaxsiy o'sishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda KYO' va UTB ning qulayligi davlatning sa'y-harakatlari va ta'lim tizimini rivojlantirish tufayli doimiy ravishda yaxshilanib bormoqda. Umuman olganda, KYO' va UTB ning ochiqqligiga quyidagi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi:

- **Geografik ochiqqliligi.** Qishloq joylarda masofaning uzoqligi, o'quv markazlari va malakali kadrlar yetishmasligi tufayli foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin.
- **Transport infratuzilmasi.** Yo'llar va transport qatnovi yaxshilangani qishloq aholisiga shaharlardagi o'quv markazlariga yetib borish imkonini beradi.
- **Ta'lim narxi.** Davlat ta'lim muassasalari, odatda, arzonroq narxlar taklif etadi, xususiyl markazlarda o'qish esa qimmatroq bo'lishi mumkin.

⁹⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. Raqamli savodxonlik yoshlarning huquqiy xabardorligini oshirish vositasi sifatida. <https://illp.uz/цифровая-грамотность-как-инструмент/>

- **Davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari.** Davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli dasturlar (grantlar, stipendiyalar va imtiyozli o'quv kreditlari) amalga oshiriladi.
- **Moslashuvchan ta'lim formatlarining yo'qligi.** Onlayn ta'lim va masofaviy ta'lim yetarli darajada rivojlanmagan.
- **Xabardorlik.** Aholining ochiq dasturlardan xabardorligini oshirish uchun axborot kompaniyalarining yetishmasligi.
- **An'anaviy tasavvurlar.** Jamiyatda ta'lim asosan yoshlarga kerak degan stereotiplar saqlanib qolmoqda. Ba'zi oilalarda ta'lim olish ustivorligi ayollarga emas, erkaklarga beriladi.
- **Vaqt yetishmasligi.** Ko'pchilik kattalar jismoniy mehnat bilan band bo'lishadi yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanishadi, bu esa o'qishga oz vaqt qoldiradi.
- **Motivatsiya.** Uzluksiz ta'lim olish va o'zini o'zi rivojlantirish uchun motivatsiyaning yetishmasligi.

Mavjud muammolarga qaramay, kattalar uchun ta'limni rivojlantirish salohiyati juda yuqori. Hukumat aholining kattalar ta'limidan foydalanishini kengaytirish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ta'lim muassasalari soni ortib bormoqda, o'quvchilar uchun turli imtiyozlar joriy etilmoqda, qishloq joylarda infratuzilma, jumladan, transport infratuzilmasi yaxshilanmoqda, onlayn ta'lim bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Onlayn ta'lim platformasiga misol qilib Toshkent shahri o'quvchilari va talabalari hamda hududlar aholisi uchun ta'lim olish imkonini beruvchi "My dars"⁹⁶ platformasini keltirish mumkin. Samarqand, Buxoro yoki Nukus shaharlarida yashab, poytaxtimizdagi maktab va universitetlarda beriladigan sifat darajasi teng bilimga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistonda KYO' va UTB ning ochiqlikligi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantirish va tuzilish jarayonida. Garchi hukumat KYO' va UTB tizimini rivojlantirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, to'liq manzara hamisha ham ochiq manbalarda mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib boradi, ammo ular har doim ham KYO' va UTB kesimida batafsil yoritilmaydi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ham kasbiy ta'lim dasturlari to'g'risida ma'lumot beradi, ammo bu ma'lumotlar cheklangan bo'lishi ham mumkin. Hukumat hisobotlari va dasturlari KYO' va UTB sohasidagi maqsad va vazifalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ammo dasturlarning ochiqlikligi va samaradorligi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar har doim ham ochiq bo'lmaydi. YuNESKO, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda ta'lim, jumladan, ba'zan KYO' va UTB jihatlari to'g'risidagi hisobotlarni e'lon qiladi. Ushbu hisobotlarda qimmatli ma'lumotlar bo'lishi mumkin, ammo ular hajmi va tafsilotlari bo'yicha cheklangan. Nodavlat tashkilotlar va tadqiqot markazlari ba'zan O'zbekistonda KYO' va UTB ochiqlikligi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va hisobotlar e'lon qiladi, bu hisobotlar qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin qamrovi va ko'lami bo'yicha u ham cheklangan. Umuman olganda, O'zbekistonda KYO' va UTB ochiqlikligi to'g'risidagi ma'lumotlar turli manbalarda mavjud, ammo ular tarqoq va har doim ham to'liq emas, bu esa ushbu masala bo'yicha to'liq statistik manzarani taqdim etishga imkon bermaydi. Ayniqsa, norasmiy va informal ta'limdan foydalanish to'g'risidagi batafsil statistika, aholining zaif qatlamlari (imkoniyati cheklangan shaxslar, qishloq tumanlari aholisi va boshqalar) uchun KYO' va UTB ochiqlikligi to'g'risidagi ma'lumotlar kabi cheklangan. O'zbekiston hukumati ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tarqatishni yaxshilash ustida ishlamoqda, bu esa KYO' va UTB to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqlikligini oshirishga ko'maklashishi kerak.

⁹⁶"My dars" onlayn ta'lim platformasi. <https://www.spot.uz/ru/2022/02/23/my-dars/>

3.3. KYO' va UTB sifati



Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish sifati ko'plab omillarga, shu jumladan o'quv dasturlarining ommabopligi, ahamiyatliligi, o'qitish sifati, shuningdek, ta'lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligiga bog'liq. Davlat va jamoat tashkilotlarining katta sa'y-harakatlariga qaramay, O'zbekistonda KYO' va sifati eng ko'p muhokama qilinayotgan masala bo'lib qolmoqda.

Asosiy muammolardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Mehnat bozori bilan yetarlicha integratsiyalashmaganligi va buning oqibatida bitiruvchilarga talabning pastligi.
- Ta'lim xizmatlari (o'qitish) sifati mintaqa, o'quv yurti va o'qituvchiga qarab sezilarli darajada o'zgarib turishi.
- Ta'lim dasturlari sifatini baholashning aniq mezonlari yo'qligi vaziyatni nazorat qilish va yaxshilashni qiyinlashtiradi.
- Barcha ta'lim muassasalari zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmagan va onlayn resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega emas.
- Ko'pgina kattalar ta'limni ish va oilaviy vazifalar bilan uyg'unlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti turli videoselektor yig'ilishlarida KYO' va UTB ning barcha turlari va shakllarida pedagoglarning kasbiy ta'lim sifati va malaka darajasi yetarli emasligini bir necha bor ta'kidlagan⁹⁷ :

- "Qancha islohot o'tkazganimizdan qat'i nazar, avvalo pedagoglarning bilim va kasbiy ko'nikmalarini oshirmasak, sifatli ta'limni ta'minlay olmaymiz" (30.09.2024).
- "Bugungi kunda davlat ta'lim muassasalarida 46 ming nafar, xususiylashmagan tashkilotlarda 38 ming nafar pedagog 5 yil davomida o'z malakasini oshirmagan" (30.09.2024).
- "Bu yil raqamli texnologiyalardan foydalanish tufayli attestatsiya jarayonlari shaffof bo'ldi. Aniqlanishicha, 198 ming o'qituvchidan 21 ming nafari malakasini tasdiqlash uchun yetarli ball to'play olmagan" (30.09.2024).
- "Kasbiy tayyorgarlik mehnat bozori talabi va yoshlarning qiziqishini hisobga olmagan holda mavjud pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Yoshlarning atigi 2% dual ta'lim shaklida ta'lim oladi. Hududdagi 30 mingta korxonaning 350 tasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Natijada, kollej va texnikumlarga qabul 50% dan kam" (12.08.2024).
- "Ko'plab professor-o'qituvchilar amaliyotdan ajralgan. Muhandislik mutaxassisliklari bo'yicha 9600 professorning 40% so'nggi 5 yil ichida kasbiy tayyorgarlikdan o'tmagan. Ayrim institutlarda o'qituvchilar dars yuklanmasi xorijdagidan 2 barobar ko'p. Ayrim universitetlarning ilmiy laboratoriyalaridagi asbob-uskunalarining 50% eskirgan, qo'shimcha laboratoriyalar va zamonaviy asbob-uskunalariga ehtiyoj mavjud" (20.06.2024).
- "Oliy ta'lim bilan qamrov keskin oshdi va bu sohaga xususiylashmagan sektor kirib keldi. Lekin sifatga yetarlicha e'tibor berilmaydi" (05.02.2024).

⁹⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali. https://t.me/Press_Secretary_Uz

- “Har yili bog‘cha tarbiyachilarining atigi 9% malaka oshiradi” (05.02.2024).
- “Kadastr sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Kadastr sohasida 9000 dan ortiq mutaxassis ishlaydi. Lekin bu soha uchun kadrlar tayyorlaydigan 10 ta oliy o‘quv yurtida dars berish sifati bugungi kun talabidan orqada qolmoqda. O‘quv dasturlari va o‘qitish usullari eskirgan” (21.11.2023).
- “So‘nggi yetti yilda oliy ta‘lim bilan qamrab olish 5 barobar, ya‘ni 9% dan 42% ga oshdi, ammo yoshlarning muhandislik sohasiga qiziqishi juda past. 2023-yilgi so‘rovda maktab bitiruvchilarining atigi 8% ushbu yo‘nalishni tanlagan” (20.06.2024).

Ayni paytda ta‘lim mazmunini tashkil etuvchi yangi kasbiy standartlar va shu asosda ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlarini yaratishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonga jalb etilganlar:

- 6 ta xalqaro tashkilotlar (KOICA, TIKa, UNDP, ETF, GIZ, Helvetas);
- 27 nafar xorijiy mutaxassislar (14 nafari Koreyadan, 8 nafari Turkiyadan, 3 nafari Germaniyadan va 2 nafari Rossiyadan);
- Tarmoq kengashlari (Energetika vazirligi, Transport vazirligi, Qurilish va Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Turizmni rivojlantirish qo‘mitasi, “O‘zavtosanoat» AJ”, “O‘zeltexsanoat”, “O‘zto‘qimachilik sanoat” va “O‘zcharmsanoat” uyushmalari).

160 ga yaqin ish beruvchi (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Elektr uskunalari zavodi, Bekobod metallurgiya kombinati, Toshkent quvur zavodi va boshqalar) ko‘magida 30 dan ortiq professional standartlar takomillashtirildi (11 tasi ishlab chiqilmoqda), 44 ta ta‘lim dasturining mazmuni esa Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi talablariga muvofiqlashtirish maqsadida tubdan o‘zgartirildi.

Uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekistonda KYO‘ va UTB sifati quyidagi yo‘nalishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga bog‘liq bo‘ladi:

- Kattalarni o‘qitishni mamlakat ta‘lim tizimiga integratsiyalashtiradigan va hayot davomida o‘qitish konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish.
- KYO‘ va UTB uchun dasturlar, infratuzilma va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun yetarli mablag‘lar ajratish.
- Davlat organlari, NNT lari, xususiy sektor va ta‘lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik qilish uchun platformalar yaratish.
- O‘qituvchilarni katta yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy usullariga, shu jumladan interaktiv va inklyuziv yondashuvlarga tizimli o‘qitishni ta‘minlash.
- Ta‘limni raqamlashtirish va onlayn-platformalar, elektron o‘quv materiallari va boshqa raqamli vositalarni keng joriy etish.
- Ta‘limni individuallashtirish, har bir ta‘lim oluvchining ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirilgan ta‘lim trayektoriyalarini ishlab chiqish.
- Hayot davomida ta‘lim olish, aholida uzluksiz o‘qish va kasbiy rivojlanish zarurligi tushunchasini shakllantirish.

2025-yil 5-mayda Prezidentimizning “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁹⁸ gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning asosiy maqsadi ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash

⁹⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni. 05.05.2025-y. <https://lex.uz/docs/-7513052>

mexanizmlarini belgilash hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishdan iborat. Farmonga muvofiq, Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etiladi. Agentlik ushbu sohada maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va amalga oshiruvchi tashkilotlarni (ta'lim tashkilotlarini) kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazadi. Agentlik, shuningdek, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiqligini o'rganish uchun Ish beruvchilar milliy so'rovini o'tkazadi.

Prezidentning "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, shubhasiz, muhim va zarur hujjat, chunki:

- Sifatli ta'lim malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi, iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi va davlatning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi.
- Tashqi baholash mexanizmlarining joriy etilishi ta'lim muassasalari faoliyatini baholashning shaffofligi va xolisligini ta'minlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, ularni ko'rsatilayotgan xizmatlarni doimiy ravishda takomillashtirish va sifatini oshirishga undaydi.
- Milliy agentlik kabi ixtisoslashtirilgan organning tashkil etilishi ta'lim sifatini ta'minlash masalasiga jiddiy yondashilayotganidan dalolat beradi. Agentlik ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish va ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini monitoring qilishda muhim rol o'ynaydi.
- Kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasini o'tkazish ta'lim sifatining yagona standartlarini belgilash va ta'lim dasturlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligini ta'minlashga ko'maklashadi.
- Ish beruvchilarning Milliy so'rovini o'tkazish mehnat bozori ehtiyojlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olish va o'quv yurtlari bitiruvchilarining ushbu ehtiyojlarga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bitiruvchilar o'rtasida ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Prezidentimizning "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Davlat siyosatini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'lim oluvchilar uchun motivatsiya yaratishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv KYO' va UTB va HDTO sifatini doimiy takomillashtirishda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

3.4. KYO' va UTB ning mehnat bozori, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi

KYO' va UTB ning mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelishi mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Talabalar va bitiruvchilar mehnat bozoridagi vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonlik ish beruvchilar bitiruvchining diplomidagi⁹⁹ baholardan ko'ra uning ish tajribasiga ko'proq e'tibor qaratadilar, bu esa barcha ta'lim dasturlari mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatga javob bermasligini ko'rsatdi.

⁹⁹M.E.To'lqinov. O'zbekistonda talabalarni ishga joylash. <https://cyberleninka.ru/article/n/trudoustroystvo-studentov-v-uzbekistane/viewer>

Bu boradagi dolzarb muammolardan biri - bitiruvchilarning ko'nikmalari bilan ish beruvchilarning talablari o'rtasidagi tafovutdir. Ish beruvchilar tomonidan o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatdiki, bitiruvchilar, ayniqsa kasbiy ta'lim tizimlarini bitiruvchilar, ko'pincha muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur ko'nikmalarga ega emas. Buning sababi mehnat bozorining ishchi kuchiga bo'lgan talab tarkibidagi o'zgarishlarga miqdoriy va sifat jihatidan har doim ham tezkor javob bera olmaydigan o'quv dasturlariga bo'lgan ehtiyojini yetarli darajada hisobga olmasligidir.

Shu bilan birga, ta'lim muassasasining ish beruvchilar bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan hamkorligi bilan ish beruvchilarning ta'lim sifatidan qoniqish darajasi ancha yuqori. Masalan, "Astraxan davlat texnika universiteti" Federal davlat budjet oliy ta'lim muassasasining Toshkent viloyatidagi Filiali tomonidan "Ta'lim sifatidan qoniqish to'g'risida ma'lumot olish uchun ish beruvchilar so'rovi"¹⁰⁰ bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot uchun tanlangan barcha korxonalar Filial bilan faol hamkorlik qiladi, xususan: tarmoq ehtiyojlarini hisobga olgan holda fanlar va amaliyotlarning ish dasturlarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatadi; ushbu korxonalarning xodimlari talabalar amaliyotiga rahbarlik qiladi, oraliq va davlat yakuniy attestatsiyasida ta'lim oluvchilarni tayyorlash sifatini baholashda ishtirok etadi; diagnostika ishlarini olib borishda va shu kabilarda ishtirok etadi. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim faoliyati sifatidan qoniqishning o'rtacha foizi respondentlarda ancha yuqori - 84,2% ni tashkil etgan. Shunga qaramay, umumiy vaziyat bu sohada sezilarli yaxshilanishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁰¹ gi Farmoniga muvofiq kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'nikma va malakalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillarining faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yo'nalishi qabul qilindi. 2025-yildan boshlab kasbiy ta'lim dasturlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi va faqat kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilgandan keyingina amaliyotga joriy etiladi. Bitiruvchilarni yakuniy baholash soha ekspertlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, baholovchi tashkilotlar, ish beruvchilar, tadbirkorlik subyektlari uyushmalari va birlashmalari vakillari ishtirokida namoyish imtihonlari shaklida o'tkaziladi. Ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligi o'quv yurtlarida olinadigan nazariy bilimlar va real ish muhitida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Ta'lim muassasalarining ish beruvchilar bilan yaqinroq hamkorligi hozirgi vaqtda mavjud nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga ko'maklashadi. O'zbekiston KYO' va UTB tizimida kasbiy ta'lim muhim rol o'ynasa-da, shaxs, uning individualligi va umuman jamiyat ehtiyojlariga ta'lim dasturlarining mos kelishi muhimligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. KYO' va UTB nafaqat kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy fikrlash, ijodiy salohiyat va uzluksiz o'qish qobiliyatini shakllantirishga ham ko'maklashishi kerak. Bu, ayniqsa, tez o'zgarib borayotgan, moslashuvchanlik ustuvor fazilatlariga aylanib borayotgan dunyoda dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy jihatlarni hisobga olgan holda KYO' va UTB ga kompleks yondashish zarur. Bunga muloqot, muammolarni hal etish, jamoada

¹⁰⁰ «Опрос работодателей по получению информации об удовлетворенности качеством образования». Филиал «Астраханского государственного технического университета» в Ташкентской области <https://astu.uz/wp-content/uploads/2023/10/Опрос-работодателей.pdf>

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni 16.10.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7166588>

ishlash, raqamli savodxonlik va boshqa universal ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ta'lim dasturlarining amalga oshirilishi ko'maklashadi. Har bir ta'lim oluvchining ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga oluvchi ta'limning individual traektoriyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur, chunki KYO' va UTB nafaqat mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish vositasi, balki faol, ma'lumotli va mas'uliyatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish vositasidir.

3.5. Katta yoshdagilar uchun dasturlar bitiruvchilarini ishga joylashtirish

Hukumat ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash ustida ish olib bormoqda. Xususan, "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi har yilning 1-dekabridan kechiktirmay bandlikka ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi va bu tartibga rioya etilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tumanlar (shaharlar) hokimliklari bilan birgalikda kasbiy ta'lim markazlari, punktlari va qisqa muddatli kurslar bitiruvchilarining bandligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, o'z tadbirkorlik, hunarmandchilik faoliyatini va o'zini o'zi band qilishni uchun ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash (davlat mulkini ijaraga olish, kreditlar va subsidiyalar ajratish)¹⁰² kabi vazifalar topshirildi.

2024-yilning 11 oyi davomida (yanvar-noyabr) 65 ta Professional ko'nikmalar markazlari va 217 ta nodavlat ta'lim tashkilotlari 91 ta kasbiy yo'nalish va 8 ta chet tillari bo'yicha ta'lim berdilar. Umuman olganda, 221,1 ming fuqaro kasbiy ta'limi bilan qamrab olindi. Shundan 105,5 mingtasi (47,7%) o'qishni tamomlagan, 91,9 mingtasi (87%) ishga joylashtirilgan. Dastlab o'qishga jalb qilingan barcha o'quvchilarning yarmidan ko'pi ayollar - 126700 (57%), uchdan bir qismidan ozrog'i esa yoshlar (29%) edi¹⁰³.

Professional ko'nikmalar markazlari har doim ham ish beruvchilarning talablariga moslashtirilmagan ta'lim tizimiga aylangani bois, Urganch misolida "Ish beruvchining buyurtmasi–Hokim yordamchisi– Professional ko'nikmalar markazi–Ish beruvchi" zanjiri ko'rinishidagi yangi variant sinovdan o'tkazildi. Toshkent shahri, Toshkent, Xorazm, Farg'ona viloyatlari uchun ichki va tashqi mehnat bozorida barcha ish beruvchilarning buyurtmalari yig'ilib, fuqarolarga ish o'rnini tanlashga ko'maklashuvchi "Ishga yuborish xizmati" ishga tushirilmoqda. Avvalo, ishsiz kishi o'zi ishlamoqchi bo'lgan ish joyini tanlaydi, so'ngra tanlangan ish joyi talablaridan kelib chiqib, bir joyda kasb va chet tilini o'rgatish tashkil etiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ham bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash borasida muntazam ishlar olib bormoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtlari qoshida talabalarni ishga joylashtirish uchun qulay imkoniyat yaratish maqsadida kasbiy ta'lim markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular talabalar bandligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining bo'sh ish o'rinlari milliy bazasida "Talabalar uchun ish" alohida funksiyasi ishga tushirildi, unga talabalar rezyumesi va bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtiriladi. 2023-yil may

¹⁰²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son Qarori. 09.06.2021-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5449377>

¹⁰³Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga ko'ra.

holatiga ko'ra, jami 106 729 nafar ishga muhtoj talaba ishga joylashtirildi. Shundan 3 525 nafari yetim bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan o'quvchilardir¹⁰⁴. Olib borilayotgan ishlar ustidan parlament nazorati amalga oshirilmoqda.

2021/2022-o'quv yilidan boshlab texnikumlar amaliyot o'tash va bitiruvchilarni kelgusida ishga joylashtirish maqsadida tarmoq korxona va tashkilotlariga biriktirilgan. Texnikumlar ham oliy o'quv yurtlariga biriktirilib, texnikum direktori esa ayni vaqtda tegishli oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashining a'zosi¹⁰⁵ hisoblanadi. Yoshlarning tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida oliy va professional ta'lim muassasalarida "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish", "Turizm tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish" hamda "Biznesni tashkil etish va yuritish" fanlari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi. "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat majmuasida bo'sh ish o'rinlari (vakansiyalar) bazasi yaratildi. Har yili iyul-avgust oylarida har bir tuman va shaharda yarmarkalar, jumladan, "Karyera kuni" o'tkaziladi. Texnikumlar bitiruvchilari uchun ish beruvchilarni jalb etgan holda tasdiqlangan reja-jadvallar asosida o'quv yili davomida ishlab chiqarish tashkilotlarida "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etiladi.

Afsuski, bitiruvchilarni ishga joylashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'proq rasmiy ta'limga taalluqlidir, norasmiy ta'limda turli kurs va dasturlar bitiruvchilari bu vazifani mustaqil ravishda, ba'zan ta'lim beruvchi tashkilot ko'magida hal etadilar.

Davlat, ta'lim muassasalari, biznes va bitiruvchilarning o'z sa'y-harakatlarini birlashtirgan kompleks yondashuv ishga joylashtirish samaradorligini oshirish va O'zbekistonning inson salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashadi.

3.6. E'tirof, validatsiya va akkreditatsiya



E'tirof, validatsiya va akkreditatsiya – ta'lim sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. Ular olingan bilim va ko'nikmalarning qadrliligi ekanini hamda milliy va xalqaro miqyosda e'tirof etilishini ta'minlaydi. E'tirof ta'lim yutuqlarining qiymatini rasman tasdiqlaydi, validatsiya bilim va ko'nikmalarning belgilangan standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi, akkreditatsiya ta'lim dasturi yoki muassasaning belgilangan standartlarga muvofiqligini rasman tasdiqlaydi. Uchta tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq - validatsiya tan olish uchun asos bo'ladi, akkreditatsiya esa validatsiya natijalariga ishonchni ta'minlaydi. Globallashtirish va

raqamlashtirish sharoitida bu tushunchalar tobora dolzarblashib bormoqda.

Zamonaviy xodimlar nafaqat rasmiy, balki norasmiy ta'limda (kurs tayyorgarligi, mustaqil o'qitish), shuningdek, amaliy ish tajribasi natijasida malakaga ega bo'ladilar. Biroq mehnat bozorida xodimning qadr - qimmatini uning qayerda o'qigani bilan emas, balki u nima qila olishi va sifati bilan o'lchanadi. Xodimga, unga erishish usullaridan qat'i nazar, tegishli malakani berish, aniqlash, tavsiflash va baholash uchun ob'ektiv va munosib vositalar kerak.

¹⁰⁴Davlat bitiruvchilarga ish topishda qanday yordam bermoqda. <https://www.kadry.uz/news/788-kak-gosudarstvo-pomogaet-vypuschnikam-nayti-rabotu>

¹⁰⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviylikini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5241-son Qarori. 31.08.2021-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5610994>

O'zbekistonda Lavozimlar va ishchi mutaxassisliklar klassifikatori, Milliy malakalar ramkasi (shu jumladan, malaka darajalariga erishish sxemasi), Kasbiy malakalarini rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi, Kasbiy malakalarini rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari (tarmoqning rivojlanish monitoringi va prognozlari, malakalarning tarmoq doirasi va kasbiy standartlarni ishlab chiqish, ta'lim standartlari va baholashga qo'yiladigan talablarni uyg'unlashtirish), Malakalarni baholash markazlarini o'z ichiga olgan Milliy malaka tizimi yaratildi.

Milliy malaka ramkasi mehnat bozorida xodimlarning malakasiga bo'lgan talab hamda ta'lim va o'qish tizimidan malaka taklifini moslashtirish vositasidir. Milliy malaka tizimi nafaqat olingan ta'limni hisobga olish, balki kasbiy tajriba, kompetensiyalar, shuningdek, shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini hisobga olish uchun sharoit yaratadi, bu esa hayot davomida o'qitish paradigmasi doirasida KYO' va UTB ning rivojlanishini sezilarli darajada rag'batlantiradi.

Milliy malaka tizimining qabul qilinishi, Milliy kasbiy standartlarning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi malakali kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish, rasmiy, norasmiy va informal sektorlarida, shu jumladan kattalar ta'limida ta'limning barcha shakllarini tan olish, sertifikatlash va akkreditatsiyadan o'tkazish, ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishni tashkil etish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy malakalar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qaroriga muvofiq¹⁰⁶ "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" Loyiha ofisi huzurida Milliy malakalar tizimini rivojlantirish instituti tashkil etilgan bo'lib, unga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- Respublika Kengashi, tarmoq kengashlari va malakalarni baholash markazlari faoliyatini tashkiliy-uslubiy, ekspert va tahliliy jihatdan ta'minlash;
- Malakalarni baholash markazlarini akkreditatsiyadan o'tkazish, faoliyatini monitoring qilish, ularning reyestrini yuritish va zarur hollarda ularga uslubiy yordam ko'rsatish;
- Tarmoq kengashlari a'zolari va malakalarni baholash markazlari xodimlarining malakasini oshirish.

Mingdan ortiq ishchi kasblarining standartlari ishlab chiqilmagani, ayrim kasblarning malakasi esa xalqaro talablarga javob bermagani bois, vaziyatni yaxshilash bo'yicha keskin choralar ko'rish zarurati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori ¹⁰⁷ ana shunday chora-tadbirlarga bag'ishlandi. Unda Milliy malaka tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari, jumladan:

- malakalarning xalqaro miqyosda tan olinishini, milliy malaka darajalarining ilg'or xorijiy davlatlar malaka darajalari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash;
- norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish ("Recognition of Prior Learning") tizimini joriy qilish;
- ko'nikmalarni prognozlashtirish ("skills anticipation"), ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish ("skills needs analysis"), ko'nikmalar bilan bog'liq kamchiliklarni o'rganish ("skills gap analysis") vositalari va metodologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish.


¹⁰⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy malakalar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori. 30.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7132752>

¹⁰⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy malakalar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori. 30.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7132752>

Qaror, shuningdek, xalqaro tajriba va standartlar asosida Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorining qayta ko'rib chiqilishini va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini, Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatori (MXSK-2008) dan kelib chiqib Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda tasdiqlanishini nazarda tutadi.

“Recognition of Prior Learning” tizimini joriy etish rasmiy ta'lim muassasalaridan tashqarida olingan bilim va ko'nikmalarni baholash va e'tirof etish imkonini beradi, bu esa ijtimoiy harakatchanlikni oshiradi, Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini yaratish esa malaka to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlaydi hamda ish topish jarayonini soddalashtiradi. Umuman olganda, xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan Milliy malaka tizimini rivojlantirishga tizimli yondashuv O'zbekistonga global ta'lim makonida munosib o'rin egallash imkonini beradi.

3.7. KYO' va UTB tizimini moliyalashtirish



KYO' va UTB tizimini moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar tarqoq va har doim ham statistik kuzatuvga kiritilmaydi. Umuman olganda, O'zbekistonda ta'lim xarajatlarining umumiy budjetdagi ulushi doimo salmoqli qismini tashkil etgan. So'nggi 7 yilda ta'limni rivojlantirishga (barcha turi va shakllari) 216 trln. so'm¹⁰⁸ yo'naltirildi. Dunyoda ta'limga YIM ning o'rtacha 4% sarflanadi. O'zbekiston 203 davlatni o'z ichiga olgan reytingda 5,5% ko'rsatkich bilan 40-o'rinni egallab, ko'plab rivojlangan davlatlarni ortda qoldirmoqda¹⁰⁹. 2025-yilgi O'zbekiston davlat budjeti loyihasiga ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarini 20% ga oshirish rejalashtirilgan¹¹⁰.

Budjetda KYO' va UTB tizimini moliyalashtirishni nazarda tutuvchi modda mavjud emas, bu soha ta'lim shakli sifatida ta'limning boshqa turli sektorlari (turlari) uchun nazarda tutilgan moddalardan mablag'oladi. Shu bilan birga, Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarga erishish Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni ularni amalga oshirishga bog'lashni taqozo etadi. 2021-yildan boshlab Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishni monitoring qilish amaliyoti joriy etildi. 2021-yildan boshlab Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari (shu jumladan, KYO' va UTB) bilan bog'liq holda Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishni monitoring qilish amaliyoti joriy etildi. Davlat budjeti mablag'lari taqsimotining tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirish, salomatlik va farovonlikni ta'minlash, sifatli ta'lim bo'yicha maqsadlarga 2023-yilda Davlat budjetining qariyb 50% ajratilgan. Istiqbolda 2030-yilgacha rivojlanish dasturlari va Milliy BRM larning manzilliligini ta'minlash maqsadida Davlat budjeti mablag'larining 84% 105 ta vazifaga erishish uchun yo'naltirish mo'ljallanmoqda¹¹².

¹⁰⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 20.11.24 https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹⁰⁹UNESCO.Global Education Expenditure 2024. <https://gtmarket.ru/ratings/global-education-expenditure>

¹¹⁰O'zbekistonda ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari 20% ga oshadi. Kun.uz. 18.10.2024

<https://kun.uz/ru/news/2024/10/18/v-uzbekistane-rasxody-na-obrazovaniye-i-zdravooxraneniye-uvlechit-na-20>

¹¹¹«Some countries reported that there was no dedicated budget for ALE (e.g. Azerbaijan, Haiti, Lithuania, Maldives, Moldova, Montenegro, Uruguay and Uzbekistan). GRALE 5, p. 61.

¹¹²D.Ahmedov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati. «Через призму устойчивости». <https://parliament.gov.uz/ru/articles/1800>

Shunday qilib, O'zbekiston budjetida kattalar ta'limiga (KYO' va UTB) bilvosita yoki bevosita ta'sir ko'rsatadigan ta'lim bilan bog'liq moddalar mavjud. Jumladan, mablag'larning bir qismi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash dasturlariga sarflanadi, bu esa KYO' va UTB bilan bog'liq. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ishsiz va kam ta'minlangan fuqarolar uchun kasb-hunarga o'qitish dasturlarini moliyalashtiradi. Ushbu dasturlar KYO' va UTB ning muhim qismi bo'lib, davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, davlat kattalar uchun ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlariga grant va subsidiyalar ajratadi. Buni KYO' va UTB tizimini moliyalashtirishning bir qismi sifatida ham ko'rish mumkin. Shu bois, KYO' va UTB uchun alohida modda yo'qligiga qaramay, kattalar ta'limini moliyalashtirish ta'lim va bandlik bilan bog'liq turli budjet moddalari orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda ta'limga ajratiladigan davlat xarajatlari ko'payishi doimiy tendensiyasi kuzatilmoqda. Rasmiy ta'lim va innovatsion loyihalar (raqamlashtirish, masofadan o'qitish, yangi ta'lim dasturlarini yaratish) katta mablag'lar bilan ta'minlanadi. Katta yoshdagilarning norasmiy ta'limi ham ba'zan budjetdan moliyalashtiriladi, ammo katta yoshdagilarning ta'limiga sarflanadigan barcha xarajatlarni bir summaga keltirish juda qiyin, chunki bunday hisoblash tizimi yo'q. Budjet raqamlari asosan ta'lim darajasi bo'yicha dezagregatsiya qilinadi. Bundan tashqari, kattalar ta'limini moliyalashtirish ko'pincha yirik mahalliy kompaniyalar, KYO' va UTB ning norasmiy sektori mablag'lari yoki xalqaro loyihalar grantlari hisobidan amalga oshiriladi. Bitta umumiy raqam yo'qligiga qaramay, KYO' va UTB tizimini moliyalashtirish to'g'risidagi qisman tasavvurni parchalangan ma'lumotlar asosida amalga oshirish mumkin.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirishdir. O'zbekistonda so'nggi yetti yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarishda "katta o'sish" davriga aylandi. Shu davrda yoshlarga oid 100 dan ortiq qonun va qarorlar qabul qilindi, 200 dan ortiq imtiyozlar berildi. Faqat ta'lim olish kreditlarining o'zidan 151 ming yoshlar foydalandi. 2021-yildan boshlab har yili 3 mingdan ziyod qizga alohida grantlar ajratilmoqda.

Xotin-qizlarni oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun banklarga davlat budjetidan mablag' ajratishning yangi tizimi joriy etildi¹¹³. Kam ta'minlangan oilalardan yana 110 ming talaba shartnoma to'lovi uchun 332 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada oliy ta'lim bilan qamrab olish qariyb 5 barobar – 9% dan 42% ga, universitetlar soni esa 77 dan 212 taga ko'paydi¹¹⁴. Kelgusi yillarda aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishni 50% ga yetkazish vazifasi qo'yildi. 2025-yilda Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligiga davlat budjetidan 6,3 trln. so'm ajratish rejalashtirilgan, bu 2025-yilga nisbatan 2,4%ga ko'pdir¹¹⁵.

Tijorat asosida o'qish uchun to'lov hisobiga moliyalashtiriladigan kichik xususiy sektor (texnik va kasbiy ta'lim va tayyorgarlik) mavjud. Bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi xususiy tashkilotlar nodavlat ta'lim muassasalari sifatida ro'yxatdan o'tishlari kerak. Biroq, kurslar odatda chet tillari, kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalari, shuningdek, buxgalteriya hisobi, kotibalik va biznes kurslari kabi iqtisodiy yo'nalishlar bilan cheklanadi. Ushbu sektorni moliyalashtirish hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar jamoatchilikka ochiq emas.

¹¹³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-323-son Qarori. 18.07.2022-y. <https://lex.uz/docs/6116212>

¹¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 28.06.24. https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹¹⁵2025-yilgi Davlat budjeti: vazirlik va idoralar budjetdan qancha mablag' oladi? Kun.uz. 31.10.2024. <https://kun.uz/ru/news/2024/10/31/gosbudjet-na-2025-god-skolko-budjetnyx-sredstv-poluchat-ministerstva-i-vedomstva>


Kasbiy ta'limni moliyalashtirish ko'lami ko'nikmalarni rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotda Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan baholandi¹¹⁶. Ma'ruzada 2018-yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlar asosida ta'limga davlat xarajatlari yuqori darajada - umumiy davlat xarajatlarining 30% dan ortig'ida saqlanib qolayotgani haqida xulosa chiqariladi (7 va 8-diagrammalar). Budjetning sektorlar bo'yicha taqsimlanishi kollej va litseylar rivojlanishining faol bosqichi davriga xos bo'lib, so'nggi yillardagi trendlarni kamroq aks ettiradi (oliy ta'limga e'tibor ko'proq).

Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari ham kattalarni o'qitishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kambag'allik muammosini aholiga pul berish orqali hal qilib bo'lmaydi. Ayni paytda korxonalarda oylik ish haqi 3-5 million so'mgacha bo'lgan 250 mingta bo'sh ish o'rnini mavjud. Biroq kambag'al oilalarning 35% ishga joylashish uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas.

7-diagramma.



8-diagramma.



*Manba: O'zbekiston Moliya vazirligi materiallari asosida Asian Development Bank.

2024-yil noyabr oyidan boshlab "Kambag'allikdan farovonlik sari" (От бедности к благополучию)¹¹⁷, kompleks dasturi o'z ishini boshladi, uning doirasida kam ta'minlangan oilalar a'zolarining sifatli ta'lim olishi, kasbiy tayyorgarligi, ishga joylashishi, sog'lomlashtirilishi, psixologik qo'llab-quvvatlanishi uchun yakka tartibdagi qo'llab-quvvatlash paketlari nazarda tutiladi.

Kambag'al oilalar farzandlarining chet tillar, kasb-hunar va axborot texnologiyalari bo'yicha bepul ta'lim olishi uchun 500 milliard so'm ajratiladi. Infratuzilmani yaxshilash dasturi ijtimoiy sharoiti og'ir 1000 ta aholi punktlarida amalga oshiriladi. Buning uchun 2 trillion so'm ajratiladi.

Har bir kambag'al oilada, ayniqsa, ayollar bo'lgan joylarda oliy ma'lumotli kamida bir kishi bo'lishi uchun sharoit yaratish rejalashtirilgan. Bunda oliy o'quv yurtlari va texnikumlar talabalarining

¹¹⁶«Развитие профессиональных навыков в Узбекистане. Доклад об оценке сектора». Декабрь 2022. <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/859636/skills-development-uzbekistan-sector-assessment-ru.pdf>

¹¹⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son Qarori 24.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7109778>

o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan taqdirda (kamida 80%) kelgusi o'quv yili uchun foizsiz ta'lim krediti beriladi. Oliy o'quv yurti yoki texnikumga kirishda grant olish uchun zarur bo'lgan 80% ball to'plagan kambag'al oilalar farzandlariga qo'shimcha grant ajratiladi. Bundan tashqari, moliyaviy jihatdan mustaqil oliy o'quv yurtlarining har biri yiliga kamida 1 milliard so'm miqdorida grant ajratilishini e'lon qiladi. Bu mablag'ning 20% dan 80% gacha kambag'al oilalar farzandlarining o'zlashtirishiga qarab kontrakt bilan qoplanadi ¹¹⁸.

Davlat ta'limi sohasi xususiy va davlat-xususiy moliyalashtirish¹¹⁹ bilan to'ldirila boshlaydi. KYO' va UTB xarajatlari ham budjetdan tashqari mablag'lardan kelib tushadi. Masalan, Andijon va Buxoro pedagogika institutlari ta'lim tizimining barcha darajalarini, jumladan, oliy ta'lim va malaka oshirishni birlashtiradigan eksperimental ta'lim klasterlarini tashkil etish uchun budjetdan tashqari jamg'armalardan 25 milliard so'm mablag' ajratmoqda¹²⁰.

Davlat tomonidan iqtidorli yoshlarni rivojlantirish rag'batlantirilmoqda. Nufuzli xalqaro olimpiadalarda medallarni qo'lga kiritgan talabalarga (937,5 million so'mgacha) pul mukofotlari beriladi. Ushbu talabalarning o'qituvchilariga 168,75 million so'mgacha mukofot beriladi va bir yilga 200% gacha ustama olish imkoniyati yaratiladi ¹²¹.

2023-yil 1-apreldan boshlab IT-ta'lim markazlari va ularning bitiruvchilari uchun yangi sharoitlar yaratildi, jumladan, IT-sertifikatga ega bo'lgan yoshlar uchun kompyuter sotib olish uchun 7,5 million so'm miqdorida imtiyozli kreditlar berildi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga chet tillarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida Qarori bilan imtihon xarajatlarini qoplash, o'qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantirish va shu kabi qator imtiyozlar nazarda tutilgan. O'lis qishloq tumanlarida yoshlarga chet tillarini o'rgatish uchun alohida telekanal tashkil etildi¹²³.

So'nggi to'rt yilda 1727 amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihalarni amalga oshirishga 2,2 trln. so'm yo'naltirildi. Shundan 152 milliard so'mi 176 ta muhandislik loyihasiga yo'naltirildi. Tadqiqot va ishlanmalar, xarajatlari ikki barobar oshdi. Ushbu mablag'larning 41% davlat korxonalarga, 34% xususiy sektorga va 25% universitetlarga yo'naltirildi. Bunda oliy o'quv yurtlari fundamental tadqiqotlar olib borish bilan cheklangani, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam ekani, yuzlab startap va innovatsion loyihalar amalga oshirilmayotgani tanqid qilinmoqda. Universitetlar va sanoat o'rtasidagi tafovut tufayli bu mablag'larni sarflash samaradorligi pastligicha qolmoqda¹²⁴.

Ta'lim sohasiga katta mablag'lar ajratilganiga qaramay, KYO' va UTB sektorida, ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan norasmiy ta'limda mablag'lar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetishmayapti.

¹¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 11.09.24. https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 20.11.24. https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 30.09.24 https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹²¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-son Farmoni. 26.03.2025-y. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7451522>

¹²²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-239-son Qarori. 27.06.2024-y. <https://lex.uz/docs/-6986619>

¹²³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 22.02.23. https://t.me/Press_Secretary_Uz

¹²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 20.06.24. https://t.me/Press_Secretary_Uz

KYO' va UTB tizimini moliyalashtirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va eng yaxshi amaliyotlarni O'zbekistonning mahalliy sharoitlariga moslashtirish KYO' va UTB samaradorligini oshirish imkonini beradi.

3.8. Monitoring va statistika



KYO' va UTB sektorini rivojlantirish kompleks strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bu borada tajriba yo'qligi va ko'plab muhim jihatlar bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar yetishmasligi sababli ancha murakkab jarayon. Dastlabki bosqichda amalga oshirilayotgan harakatlarning muvaffaqiyatini baholash, xatolarni tahlil qilish va siyosatning sektor va maqsadli guruhlariga ta'siri natijalarini qayd etish uchun monitoring tizimini joriy etish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

- ta'lim olish sabablari va ehtiyojlari;
- ta'lim olish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi va ularning manbalari;
- aholining KYO' va UTB dasturlarida ishtirok etishi darajasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- aholining yoshi, jinsi va mintaqalari bo'yicha umuman KYO' va UTB ga qamrab olish ko'rsatkichi;
- zaif guruhlarining mavjudligi;
- KYO' va UTB provayderlari;
- ta'lim yo'nalishlari, davomiyligi va natijalari;
- tillar va AKT o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj;
- ta'lim olishni moliyalashtirish mexanizmlari;
- ta'lim olish yo'lidagi to'siqlar va boshqalar.

Monitoring natijalari KYO' va UTB sohasidagi siyosatni shakllantirish, keng doiradagi ekspertlar va manfaatdor tomonlar, maqsadli guruhlarini rag'batlantirish va/yoki rag'batlantirishni rivojlantirish, hayot davomida ta'lim olishga aholining keng qatlamlarini jalb etish uchun dalillar bazasi, haqiqiy ma'lumotlar va asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumotlarning yetishmasligi KYO' va UTB da ishtirok etishdagi tengsizlikni bartaraf etish hamda aholining himoyalangan guruhlarini ehtiyojlarini ta'minlash yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda tasdiqlangan faktlarga asoslangan siyosatga ko'maklashish uchun ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish uchun qo'shimcha mablag'lar kerak bo'ladi.

Davlat statistikasi sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikaning tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash, davlat statistikasi sohasida muvofiqlashtirish va funksional tartibga solishni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur qo'mita BRM Milliy indikatorlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'playdi va ularni Milliy BRM veb-portalida e'lon qiladi: <http://nsdg.stat.uz/>

Shu bilan birga, KYO' va UTB sohasidagi siyosatni yanada shakllantirish uchun hayot davomida ta'lim olish va KYO' va UTB siyosatining turli jihatlari bo'yicha muayyan statistik ma'lumotlarni

(eng ma'quli, taqqoslashni ta'minlash uchun xalqaro amaliyotda qabul qilingan parametrlar bo'yicha) to'plash tashabbusi bilan chiqish oqilona ko'rinadi.

Hayot davomida ta'lim olish g'oyasini o'z milliy ta'lim siyosatida yaxlit sektoral yondashuv tarzida mujassam etgan davlatlar ham bor. Janubiy Koreyada Hayot davomida ta'lim olish to'g'risidagi qonunga ko'ra, ushbu sohada milliy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maslahat organi faoliyat yuritadi. Hayot davomida uzluksiz ta'lim olishni ta'minlash qo'mitasiga ta'lim vaziri boshchilik qiladi va uning tarkibiga vitse-vazirlar, Uzluksiz ta'lim milliy instituti prezidenti va qo'mita raisi tomonidan tayinlanadigan ekspertlar kiradi. Estoniya Respublikasida 2015-yil fevral oyida "Kattalarni o'qitish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi va 2019-yil sentabr oyida unga o'zgartirishlar kiritildi. Tojikiston Respublikasida 2017-yilda "Kattalar ta'limi to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

Qonunlarning qabul qilinishi yoshidan qat'i nazar, ta'limning barcha kichik sektor va darajalarini qamrab oladi. Shunday qilib, bu mamlakatlar millatning inson kapitalini rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hayot sifatini yaxshilash orqali investitsiyalardan iqtisodiy foyda oladi.

Afsuski, postsovet hududidagi aksariyat davlatlar hozircha bunday voqelikdan yiroq, hozirgi tez o'zgarib borayotgan dunyoda esa faqat o'qishni to'xtatmaydigan jamiyatlar global raqobatda innovatsion va muvaffaqiyatli hisoblanadi.

3.9. KYO' va UTB sohasidagi jadal va mo'tadil rivojlanish zonalarini tahlil qilish

O'zbekistonda KYO' va UTB ning mintaq bo'yicha ham, mavzu bo'yicha ham mo'tadil va jadal rivojlanish zonalarini tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, infratuzilmaning rivojlanish darajasini, aholining har bir mintaqadagi ehtiyojlarini batafsil o'rganishni va boshqa ko'plab omillarni hisobga olishni talab qiladigan kompleks vazifa hisoblanadi. Biroq, ayrim umumiy tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlarni alohida ta'kidlash mumkin.

KYO' va UTB ni kelajakda rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar mintaqaviy kesimda

O'zbekistonda KYO' va UTB ni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun har bir mintaqaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish va mahalliy sharoitlarni hisobga oluvchi individual dasturlarni ishlab chiqish zarur:

- **Uzoq hududlarda infratuzilmani rivojlantirish** (barcha hududlar uchun KYO' va UTB dan teng foydalanishni ta'minlash uchun infratuzilmani, shu jumladan internet aloqasini va transportdan foydalanishni rivojlantirishga sarmoya kiritish).
- **Masofaviy ta'limni rivojlantirish** (infratuzilmani rivojlantirish, sifatli onlayn kurslarni ishlab chiqish va pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish, ayniqsa aholi zichligi past bo'lgan hududlarda).
- **Kasbiy ta'limni rivojlantirish** (mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kasbiy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlashni rivojlantirish).
- **Norasmiy va informal ta'limni rivojlantirish** (madaniyat markazlari, kutubxona va muzeylarni modernizatsiya qilish, barcha hududlarda ta'lim dasturlari doirasini kengaytirish va ularning sifatini oshirish).

Jadal rivojlanish	Mo'tadil rivojlanish
Mintaqaviy kesma	
Toshkent Poytaxtimiz iqtisodiy va madaniy hayot markazi sifatida rivojlangan infratuzilma va yuqori darajadagi raqamlashtirishga ega. Bu yerda yetakchi oliy o'quv yurtlari, o'quv markazlari va xalqaro tashkilotlar to'plangani va KYO' va UTB ning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Internet tarmog'ining yuqori darajada kirib borishi va aholining raqamli savodxonligi masofaviy ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.	Aholi zichligi past bo'lgan hududlar va chekka hududlar Qoraqalpog'iston, Surxondaryo va boshqa olis viloyatlarda infratuzilma rivojlanmaganligi, raqamlashtirish darajasi pastligi va malakali kadrlar yetishmasligi tufayli KYO' va UTB imkoniyati cheklangan. Internet va raqamli savodxonlikning past darajasi masofaviy ta'limni rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Bu hududlarda katta yoshdagi aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi madaniy obidalar yetishmaydi.
Samarqand va Buxoro Ushbu hududlar boy madaniy meros va rivojlangan turizmga ega bo'lib, madaniy ma'rifat va turizm sohasini rivojlantirish bilan bog'liq KYO' va UTB sohasida jadal o'sishni ko'rsatmoqda. Mehmonxona biznesi va turizmni rivojlantirish kattalarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kurslarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu hududlarda norasmiy va informal ta'limni rivojlantirishga yordam beradigan turli madaniyat markazlari ham rivojlanmoqda. Bu yerda NNT sohasida katta tajribaga ega NNT lari ("SABR", "Tadbirkor ayol" mintaqaviy bo'limi) joylashgan.	Ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlar Farg'ona vodiysi kabi ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan ayrim hududlarda kasbiy ta'limni rivojlantirish va kadrlarni qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu hududlarda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi kasbiy ta'lim markazlarini ham faol rivojlantirish zarur.
Boshqa yirik viloyat markazlari (Farg'ona, Namangan, Andijon) Bu hududlarda KYO' va UTB ni rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo'lgan oliy o'quv yurtlari va kasbiy ta'lim tashkilotlari mavjud, kattalar bilan ishlaydigan NNT va NTT lar joylashgan. Farg'ona shahri Toshkent bilan bir qatorda YuNESKOning "ta'lim shaharlari" ro'yxatiga kiritilgan.	Qishloq xo'jaligi sektori ustunlik qiladigan hududlar Aholining salmoqli qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida kattalarning rasmiy ta'limiga bo'lgan talab nisbatan past. Buning sababi shundaki, qishloq xo'jaligida ko'pincha avlodlar avlodga o'tadigan ish ko'nikmalari talab etiladi va an'anaviy ravishda rasmiy ta'limga kamroq e'tibor beriladi.
Tematik kesma	
Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish KYO' va UTB da raqamli texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan masofaviy ta'lim va onlayn kurslar jadal o'sib bormoqda. Bu, ayniqsa, jamiyatni raqamlashtirish va o'qitishning moslashuvchan shakllariga bo'lgan talab ortib borayotgan sharoitda dolzarbdir.	Aholining zaif qatlamlari uchun KYO' va UTB ning ochiqqligi Olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramasdan, imkoniyati cheklangan shaxslar, chekka hududlar aholisi va boshqa zaif guruhlar uchun KYO' va UTB imkoniyati yetarli emas. Ushbu guruhlarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi maxsus dastur va mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.
Kasbiy ta'lim O'zbekistonda mehnat bozori talablariga javob beradigan kasbiy ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Texnikumlarining yagona tarmog'ini tashkil etish va qisqa muddatli kurslarni tashkil etish ushbu yo'nalishni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.	Norasmiy va informal ta'limni rivojlantirish Norasmiy va informal ta'lim, shu jumladan madaniyat markazlari, kutubxonalar va muzeylarning ma'rifiy faoliyati yanada rivojlanishga muhtoj. Yondashuv mamlakatning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich va ustuvor bo'lishi kerak. Ta'limning bunday shakllarini ko'paytirish emas, balki mavjud tashabbuslarning sifati va barqarorligini ta'minlash, ayniqsa, madaniyat muassasalarida (muzeylar, kutubxonalar, madaniyat uylari) muhim ahamiyatga ega. Tezroq kengaytirish o'rniga tajriba loyihalariga, ularning samaradorligini baholashga va muvaffaqiyatli amaliyotlarni bosqichma-bosqich ko'paytirishga e'tibor qaratish yaxshiroqdir.
Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik YuNESKO va DVV International kabi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish KYO' va UTB da ilg'or metodika va texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.	Fuqarolik jamiyatining ishtiroki Jamoatchilik kengashlari tashkil etilganiga qaramay, KYO' va UTB sohasida siyosiy qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyatining ishtiroki cheklanib qolmoqda. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlikning yanada samarali mexanizmlarini yaratish zarur.

- **Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash** (mahalliy hamjamiyatlarni mintaqa ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash uchun KYO' va UTB dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish).
- **Kichik va o'rta korxonalar uchun o'qitish dasturlarini rivojlantirish** (barcha hududlarda kichik va o'rta korxonalar uchun o'qitish dasturlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish).
- **Qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini rivojlantirish**, ushbu sohada kasbiy o'sish va malaka oshirish uchun imkoniyatlar yaratish.

KYO' va UTB ni kelajakda rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar tematik kesimda

- **Masofaviy ta'limni rivojlantirish** (jamiyatni raqamlashtirish sharoitida masofaviy ta'lim tobora dolzarb bo'lib bormoqda, infratuzilmani rivojlantirish, sifatli onlayn kurslarni ishlab chiqish va pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish zarur).
- **Aholining zaif qatlamlari uchun KYO' va UTB imkoniyatlarini kengaytirish** (imkoniyati cheklangan shaxslar, chekka tumanlar aholisi va boshqa zaif guruhlarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi maxsus dastur va mexanizmlarni ishlab chiqish).
- **Norasmiy va informal ta'limni rivojlantirish** (pilot loyihalariga, ularning samaradorligini baholashga va muvaffaqiyatli amaliyotlarni bosqichma-bosqich ko'paytirishga e'tibor qaratish).
- **Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash** (KYO' va UTB sohasida siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash uchun davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlikning yanada samarali mexanizmlarini yaratish).

O'zbekistonda KYO' va UTB ning tez va o'rtacha rivojlanish yo'nalishlari tahlili ham muhim yutuqlarni, ham qo'shimcha e'tibor talab qiladigan sohalarni ko'rsatadi. KYO' va UTB ning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritishni davom ettirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari uchun ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Kompleks va tizimli yondashuv O'zbekistonga KYO' va UTB salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va bilimlarga asoslangan jamiyatni shakllantirishning asosiy omili sifatida to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

4. O'ZBEKISTONDA NORASMIY KYO' VA UTB NI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

4.1. O'zbekiston taraqqiyotida norasmiy sektorning roli

O'zbekiston taraqqiyotida katta yoshdagilarning norasmiy ta'lim olishi tobora muhim ahamiyat kasb etib, aholining turmush sifatini oshirish, iqtisodiyotni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, rasmiy ta'lim tizimini to'ldirish, kamchiliklarni to'ldirish va jamiyatning doimiy o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga javob berish imkonini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"¹²⁵ gi qarori (PQ-345 30.09.2024) norasmiy ta'limga yangi maqom berib, uni rasmiy ta'limga teng deb hisoblaydi va uning umumiy malakalar tizimiga integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Ushbu Qarorda "norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish ("Recognition of Prior Learning") tizimini joriy etish" Milliy malaka tizimini isloh qilish yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Norasmiy KYO' va UTB O'zbekistonni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalargao'z hissasini qo'shmoqda:

Ko'nikmalar yetishmasligini bartaraf etish

Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish, mavjud ko'nikmalar va mehnat bozori talablari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyotini sanoatlashtirish va diversifikatsiya qilish nuqtai nazaridan dolzarbdir. IT, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa talab yuqori bo'lgan sohalardagi kurslar bu yerda muhim o'rin tutadi.

Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish

Tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, biznes yuritish va moliyaviy savodxonlik sohasida bilim berish, biznes-jarayonlarga innovatsiyalarni joriy etish, iqtisodiy mustaqillik va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmoqda.

Texnologik o'zgarishlarga moslashish

Norasmiy ta'lim kattalarga o'zgaruvchan ish muhitiga moslashish uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy va fuqarolik faolligi

Norasmiy ta'lim kattalarga yetakchilik fazilatlarini, ularning huquq va majburiyatlarini o'rgatish, hamjamiyatlarni rivojlantirishda ishtirok etishni rag'batlantirish va demokratik qadriyatlarni shakllantirish orqali fuqarolik faolligiga ko'maklashadi.

Salomatlik va farovonlik

Sog'liqni saqlash, oilani rejalashtirish va boshqa muhim sog'liqni saqlash masalalaridan xabardorlikni oshirishga qaratilgan dasturlar odamlar va hamjamiyatlar farovonligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Madaniyatni saqlash va targ'ib qilish

O'zbekistonning boy madaniy merosini til kurslari, an'anaviy hunarmandchilik bo'yicha mahorat darslari va boshqa madaniy tadbirlar orqali saqlash va targ'ib qilish. San'at sohasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va salohiyatni ro'yobga chiqarish.

Ijtimoiy muammolarni hal etish

- Ayollar imkoniyatlarini kasbiy tayyorgarlik, yetakchilik sifatlarini rivojlantirish, gender tengligi orqali kengaytirish.
- Kasbiy tayyorgarlik, funksional savodxonlikni oshirish dasturlari va ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun boshqa imkoniyatlar tufayli kambag'allikni bartaraf etish.
- Barqaror rivojlanish, atrof muhitni muhofaza qilish va resurslardan mas'uliyat bilan foydalanishni o'rgatish.

¹²⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori 30.09.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-7132752>

Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiya

- Dunyoqarashni kengaytirish, ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlilni rivojlantirish.
- Ijtimoiy moslashish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Jamiyatga integratsiya qilish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va shaxsiy maqsadlariga erishish.
- O'zini o'zi qadrlashni oshirish va jamiyatga integratsiya qilish.
- Ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish.
- Yuqori ijtimoiy maqomga erishish.

Katta yoshdagilarning norasmiy ta'lim olishi O'zbekistonni rivojlantirishda, inson kapitalini oshirishda, ijtimoiy integratsiyaga ko'maklashishda va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi.

4.2. Norasmiy ta'limning afzalliklari

Rasmiy va norasmiy ta'lim o'zaro istisno qiluvchi tushunchalar hisoblanmaydi. Ular bir-birini to'ldirib, odamlarga to'liq va har tomonlama ta'lim olish imkonini beradi. Eng maqbul yondashuv eng yuqori samaraga erishish uchun rasmiy va norasmiy ta'limni birlashtirishdan iborat. Norasmiy ta'lim ko'pincha rasmiy ta'limning quyidagi kamchiliklarini qoplaydi:

- Qat'iy tuzilma va jadval.
- Bilimlarning bir qismi amaliyotga tatbiq etilmaydi.
- O'quv dasturlari eskirishi mumkin.

Shu bilan birga, norasmiy ta'lim ko'plab katta yoshdagilar uchun quyidagi imtiyozlar tufayli jozibador bo'lib bormoqda:

Moslashuvchanligi va qulayligi

- Norasmiy ta'lim ko'pincha rasmiy ta'limning qat'iy jadvalidan farqli o'laroq, qulay vaqtda o'qish imkonini beruvchi moslashuvchan ta'lim jadvalini taklif etadi. Bu ayniqsa ishlayotgan katta yoshdagilar uchun muhim. Turli formatlar mavjud, shu jumladan onlayn kurslar, vebinarlar, mahorat darslari, vorkshoplar, mustaqil o'qitish va boshqalar ta'limning eng mos usulini tanlash imkonini beradi.
- Onlayn kurslar va boshqa masofaviy formatlar, asosan, ta'lim muassasasida jismonan ishtirok etishni talab qiladigan rasmiy ta'limdan farqli o'laroq, dunyoning istalgan joyidan o'qish imkonini beradi.
- Norasmiy ta'lim ko'pincha rasmiy ta'limga qaraganda ayniqsa ta'lim olish, yashash va rasmiy ta'lim bilan bog'liq boshqa xarajatlarni hisobga olganda ancha arzonga tushadi.

Amaliy ko'nikmalar va dolzarblikka yo'naltirish

- Norasmiy ta'limning ko'plab dasturlari muayyan kasb yoki vazifa uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Rasmiy ta'lim ko'proq nazariy bo'lishi mumkin.
- Norasmiy ta'lim ko'pincha mehnat bozoridagi o'zgarishlarga tezroq javob beradi va yangi texnologiyalar va trendlar bo'yicha kurslar taklif etadi. Rasmiy o'quv dasturlari sekinroq yangilanishi mumkin.
- Norasmiy ta'lim tor ixtisoslikka e'tibor qaratish imkonini beradi, bu ayniqsa kasbiy rivojlanish uchun muhimdir.

Shaxsiy jihati

- Norasmiy ta'lim haqiqatan ham qiziq bo'lgan narsalarni o'quv dasturining bosimisiz o'rganish imkonini beradi.
- Norasmiy ta'lim ko'pincha o'qitishda ko'proq mustaqillikni nazarda tutadi, bu esa punktuallik va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.
- Ta'lim jadalligi o'qituvchi tomonidan belgilanadigan rasmiy ta'limdan farqli o'laroq, norasmiy ta'limda o'qitish jadalligini mustaqil ravishda tartibga solish mumkin.

Norasmiy ta'limda ishtirok etayotgan kattalar ko'pincha ko'proq motivatsiyaga ega bo'lishadi, chunki ular o'z xohishlari va qiziqishlari bo'yicha o'qishni tanlaydilar, bu esa jarayonga yanada chuqurroq jalb qilishga yordam beradi.

4.3. KYO' va UTB ning norasmiy sektori faoliyati uchun qonunchilik asosi

Norasmiy ta'limning ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, ushbu sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaqin vaqtgacha yetarlicha rivojlanmagan. Vaziyat bir qator qonunlar qabul qilinishi bilan o'zgara boshladi, ular orasida eng ahamiyatlisi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son) O'zbekiston qonunchiligida ilk bor ta'lim olishning turli shakllarini, shu jumladan KYO' va UTB ni belgilaydi hamda hayot davomida ta'lim olishning muhimligini ta'kidlab, rasmiy, norasmiy va informal ta'limni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" gi qonuni¹²⁶ "Ta'lim to'g'risida" gi qonun bilan bir qatorda asosiy faoliyat turi "shaxsning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim ehtiyojlarini qondirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish"ga bo'lgan madaniyat markazlari va boshqa madaniy-ma'rifiy tashkilotlarning ta'lim faoliyatini tartibga soladi. Madaniyat markazlari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim faoliyatini (madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kurslar, mahorat darslari va boshqa ta'lim dasturlarini tashkil etish) amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi" qonuni¹²⁷ "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan bir qatorda NNT va NTT larining ta'lim faoliyatini ham tartibga soladi. NNT va NTT larning ta'lim faoliyati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga, shu jumladan litsenziyalash va akkreditatsiyaga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori (2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345 son) norasmiy ta'lim nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Norasmiy va informal ta'limni bilim va ko'nikmalarni egallashning teng shakli sifatida e'tirof etish uning asosiy qoidalaridan biridir. Bu shuni anglatadiki, rasmiy ta'lim muassasalaridan tashqarida olingan tajriba malaka olishda baholanishi va hisobga olinishi mumkin. Norasmiy malakalar tan olinganligi tufayli xodimlar ish joylarini o'zgartirishlari va martaba ortishi uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

¹²⁶O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'RQ-668-son Qonuni, 20.01.2021-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5230682>

¹²⁷O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat Notijorat Tashkilotlari to'g'risida"gi 763-I-son Qonuni, 14.04.1999-y. <https://lex.uz/ru/docs/-11360>

Qarorga muvofiq, tarmoq kengashlari, milliy va tarmoq malaka ramkalari, Mashg'ulotlar milliy klassifikatori, tasdiqlangan kasbiy standartlar, ekspertizadan o'tgan va amaliyotga joriy etilgan ta'lim dasturlari reyestri, malakani baholash markazlari, shuningdek, Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va uslubiy qo'llanmalardan erkin foydalanish imkonini beruvchi Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi yaratilmoqda. 2026-yil oxiriga qadar ilg'or xorijiy tajriba asosida 1800 kasb bo'yicha kasbiy standartlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining kattalar uchun norasmiy ta'lim to'g'risidagi qonunchiligi quyidagi asosiy qoidalarni belgilaydi:

- Kattalar ta'lim olishning shakl va usullarini, shu jumladan norasmiy ta'lim shakllarini erkin tanlash huquqiga ega.
- Norasmiy ta'lim turli shakllarda, shu jumladan kurslar, treninglar, mahorat darslari, onlayn ta'lim va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.
- Norasmiy o'qitish natijalari ishga joylashishda, malaka oshirishda va faoliyatning boshqa turlarida e'tirof etilishi va hisobga olinishi mumkin.
- Davlat norasmiy ta'limni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, bu sohadagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi va norasmiy ta'limning jamiyat taraqqiyoti uchun muhimligini e'tirof etadi.

Biroq norasmiy ta'limning turli jihatlarini tartibga soluvchi batafsil qonunosti hujjatlari mavjud emas.

O'zbekistonda kattalar uchun norasmiy ta'lim iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun ulkan salohiyatga ega. Uni amalga oshirish uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etish, dasturlar sifatini oshirish va ulardan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur. Faqat tizimli va kompleks yondashuv jamiyatning zamonaviy tahdid va ehtiyojlariga javob beradigan kattalar uchun barqaror va samarali ta'lim tizimini yaratish imkonini beradi.

4.4. Pandemiya o'zgarishlar katalizatori sifatida

COVID-19 pandemiyasi hayotning turli sohalariga, jumladan, O'zbekistonda norasmiy ta'limga jiddiy tuzatishlar kiritdi. Ammo buning nafaqat salbiy, balki ijobiy oqibatlari ham bo'ldi.

Salbiy oqibatlari

- Karantin choralari va cheklovlarning ommaviy tadbirlarga joriy etilishi kunduzgi kurslar, seminarlar va mahorat darslari sonining qisqarishiga olib keldi.
- Barcha o'quvchi va o'qituvchilar barqaror internet va onlayn ta'limga o'tish uchun zarur bo'lgan texnikadan foydalanish imkoniyatiga ega emas edi.
- Norasmiy ta'lim bilan shug'ullanuvchi ko'plab notijorat tashkilotlar xayriya va grantlarning qisqarishi tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishdi.
- O'qituvchilar bilan bevosita muloqotning yo'qligi va onlayn mashg'ulotlarning bir xilligi ba'zi o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishiga olib keldi.
- Aholining barcha qatlamlari sifatli onlayn ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lmagani mavjud ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirdi.

Ijobiy oqibatlari

- Raqamlashtirishni jadallashtirish (ta'limni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, o'qitish uchun onlayn-platformalar va mobil ilovalarni rivojlantirish).
- Geografik chegaralarni kengaytirish (onlayn shakl ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali turli mintaqalar va hatto mamlakatlardan o'qituvchi va ta'lim oluvchilarni jalb qilish imkonini berdi).
- O'qitishning moslashuvchan formatlarini rivojlantirish (vebinarlar, qulay vaqtda va individual sur'atda o'qish imkonini beruvchi onlayn kurslar kabi yangi ta'lim formatlari).
- O'qitish uslubidagi innovatsiyalar (o'qituvchilar samarali onlayn ta'limni tashkil etish uchun yangi yondashuv va vositalarni izlashga majbur bo'lishdi).
- Mustaqil ta'lim olishning ahamiyatini oshirish (pandemiya mustaqil ishlash va ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatdi).

COVID-19 pandemiyasi norasmiy ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning katalizatoriga aylandi va quyidagi tendentsiyalar paydo bo'ldi:

- Ta'limning qo'shma formatlari (ta'limning onlayn va oflayn formatlarini uyg'unlashtirish).
- Ta'lim tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda tobora muhim rol o'ynaydigan raqamli texnologiyalarning rolini kuchaytirish.
- Ijtimoiy muammolarni hal etish va barqaror rivojlanish uchun norasmiy ta'limning ahamiyatini oshirish.

O'qituvchi rolini o'zgartirish

- O'qituvchining roli bilimlarni uzatishdan o'quvchilarning mustaqil o'qishi va hamkorligi uchun sharoit yaratishga o'tdi.
- O'qituvchilar raqamli texnologiyalardan foydalanish va onlayn ta'limni tashkil etish bilan bog'liq yangi kompetensiyalarni o'zlashtira boshladilar.

Muammolar va istiqbollar

Barcha ijobiy o'zgarishlarga qaramay, pandemiya bir qator muammolarni ham aniqladi:

- Raqamli tafovut (ta'lim oluvchilarning hammasi ham raqamli texnologiyalar va internetdan teng foydalana olmaydi).
- Ta'lim motivatsiyasi (onlayn muhitda o'qish uchun motivatsiyani saqlab qolish qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab qiladi).
- Jonli muloqotning yo'qligi (o'qituvchilar va boshqa ta'lim oluvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatining yo'qligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin).

Kattalar ta'limini rivojlantirish istiqbollari

- Ta'limning gibril formatlari (onlayn va oflayn ta'limning uyg'unlashtirilishi odatiy holga aylanadi).
- Mikro-sertifikatlash (yangi ko'nikmalarni tezda o'zlashtirish imkonini beruvchi qisqa onlayn kurslarning mashhurli oshadi).
- Sun'iy intellekt (ta'limni personallashtirish va odatiy vazifalarni avtomatlashtirish uchun tobora faol foydalaniladi).

- Ijtimoiy ta'lim (ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlarning roli ortadi).

4.5. Nodavlat tashkilotlarning aholi ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi

Nodavlat tashkilotlar (NNT va NTT) aholining ko'nikmalarini rivojlantirishda, ayniqsa, davlat tuzilmalari har doim ham to'liq qamrab ololmaydigan sohalarida tobora muhim o'rin tutmoqda. Ularning moslashuvchanligi, innovatsiyasi va mahalliy hamjamiyatlar bilan yaqin aloqasi ularga o'z dasturlarini aholining aniq ehtiyojlariga moslashtirish imkonini bermoqda.

Ko'nikmalarni rivojlantirish sohasida nodavlat tashkilotlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- Kasbiy o'qitish.
- Tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Raqamli savodxonlik.
- Ijtimoiy ko'nikmalar.
- Ekologik ta'lim.

Ushbu tashkilotlarning ko'nikmalarni rivojlantirish sohasidagi ishining afzalliklari:

- Moslashuvchanlik (o'z dasturlarini bozor va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda moslashtirishi mumkin).
- Innovativlik (ta'limning yangi usullari va texnologiyalaridan tez-tez foydalaniladi).
- Mahalliy hamjamiyatlar bilan yaqin aloqada bo'lish (mahalliy xususiyatlarni yaxshi biladi va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan dasturlarni ishlab chiqishlari mumkin).
- Aholining aniq guruhlariga e'tibor qaratish (ayollar, yoshlar, nogironlar kabi aholining zaif guruhlari uchun dasturlar ishlab chiqishlari mumkin).

Davlat nodavlat tashkilotlar faoliyatini grantlar, soliq imtiyozlari, xonalar va asbob-uskunalar bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'z navbatida, NNT va NTT davlat dasturlarini to'ldiradi va ularning manzilliligini ta'minlaydi.

2018-yildan boshlab mamlakatimizda "Ishga marhamat" monomarkazlari faoliyat ko'rsatib, ular Prezidentning "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹²⁸ qaroridan so'ng Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kasbiy ko'nikmalar markazlariga aylantiriladi.

"Ishga marhamat" monomarkazlari o'z vaqtida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹²⁹ gi qarori ijrosini

¹²⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-son Qarori, 04.10.2024-y. <https://lex.uz/docs/-7131782>

¹²⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3913-son Qarori 20.08.2018-y. <https://lex.uz/docs/-4213627>

ta'minlash maqsadida tashkil etilgan edi. Monomarkazlarning asosiy vazifalari band bo'lmagan aholini ishga joylashtirishni ta'minlash, turli yo'nalishlar bo'yicha kasb-hunar o'quv kurslarini tashkil etish, band bo'lmagan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uyushgan mehnat migratsiyasi va xorijga vaqtinchalik ishga ketayotgan fuqarolarni oldindan moslashtirishga ko'maklashishdan iborat edi. Ustuvor yo'nalish o'qitishning yuqori sifati va o'qitish uchun qulay sharoitlar edi.

Prezidentimizning "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori¹³⁰ asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va O'zbekistonning barcha viloyatlarida "Ishga marhamat" markazlarini tashkil etish boshlandi. "Ishga marhamat" monomarkazlari bitiruvchilarining kasbiy malakasini baholash WorldSkills standartlari asosida amalga oshirildi. O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda tan olingan WorldSkills pasportini muvaffaqiyatli olgan bitiruvchilar orasidan malakasi tasdiqlangan bitiruvchilarning yagona reyestri shakllantirildi. "Ishga marhamat" monomarkazlari tomonidan bitiruvchilarning o'qishni tugatganligini tasdiqlovchi sertifikat hamda Skills pasporti o'rta maxsus, kasbiy ta'limi to'g'risidagi diplomlarga tenglashtiriladi. Monomarkazlarda o'qitish kasbiy ta'limining turli yo'nalishlari va 5 ta chet tillari bo'yicha amalga oshirildi, kurslarning davomiyligi 2-3-4 oyni tashkil etdi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va moliyaviy savodxonlik bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Mutaxassisliklar bo'yicha murabbiylar tinglovchilarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qitdi:

- Qurilish mutaxassisliklari (g'isht teruvchi, suvoqchilik, bo'yoqchi, gipsokarton bilan ishlash, shuningdek alyuminiy profillar bilan ishlash ustasi).
- Texnik mutaxassisliklar (kranchi, elektrik, tokar-frezerchi, santexnik, payvandchi, santexnik-gidravlik, maishiy texnikani ta'mirlash ustasi).
- Xizmat ko'rsatish sohasi (oshpaz-qandolatchi-keytering, tikuvchi, sartarosh, vizajchi, neil-stilist, uqalovchi, bola parvarishi bo'yicha enagalar, batler-ofitsiant, kosmetolog).

Xorijda ishlash istagida bo'lgan ishsizlar uchun ishga joylashishga muhtoj fuqarolarni oldindan moslashtirish bo'yicha tayyorgarlik tadbirlari (chet tillarini o'rgatish: ingliz, yapon, xitoy, koreys, rus tillari) tashkil etildi. Til kurslaridagi mashg'ulotlar o'qish, yozish, og'zaki nutq va eshitish bilan tanishish soatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, dasturni qisqa vaqt ichida o'zlashtirish imkonini beradi.

Monomarkazlar korxonalar buyurtmalari bo'yicha ishchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qaytib kelgan migrantlarga professional yuridik va psixologik yordam ko'rsatdi. Tanlangan yo'nalish bo'yicha o'qishni tamomlagach, yuqorida ko'rsatib o'tilgan talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha ishlash imkonini beruvchi davlat namunasidagi xalqaro sertifikat berildi.

Tadbirkorlik asoslari bo'yicha 22 soatlik kurs tadbirkorlikni tashkil etish, biznes modellashtirish, ichki va tashqi ishbilarmonlik muhitini tahlil qilish va o'zaro bog'liqlik, to'g'ridan to'g'ri daromad olish usullari, biznes-strategiya va uning kelajakdagi istiqbollari, marketing va logistika, tijorat huquqi va bozor iqtisodiyoti asoslari, biznes-tartib-taomillar, moliyaviy savodxonlik, soliqqa tortish, eksport-import operatsiyalari va marketingni qamrab oldi. Monomarkazda o'qigandan so'ng respublikadan tashqariga chiqib ketayotgan fuqarolarga maslahat xizmatlari ko'rsatildi.

¹³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son Qarori. 11.08.2020-y. <https://lex.uz/docs/-4945748>

2025-yildan boshlab bu vazifalarning barchasi Monomarkazlar negizida tashkil etilayotgan Kasbiy ko'nikmalar markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

2024-yilning 11 oyi davomida (yanvar-noyabr) 65 ta Kasbiy ko'nikmalar markazlari va 217 ta nodavlat ta'lim tashkiloti 91 ta kasbiy yo'nalishi va 8 ta chet tili bo'yicha ta'lim berdi. Umuman olganda, 221,1 ming fuqaro kasbiy ta'lim bilan qamrab olindi. Shundan 105,5 mingtasi (47,7%) o'qishni tamomlagan, 91,9 mingtasi (87%) ishga joylashtirilgan. Dastlab o'qishga jalb qilingan o'quvchilarning yarmidan ko'pi ayollar - 126700 (57%), uchdan bir qismidan ozrog'i esa yoshlar (29%) edi. Kasbiy ta'limda xususiy sektorning ulushi ortib bormoqda. Bugungi kunda respublika bo'yicha 217 nodavlat ta'lim tashkiloti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yildagi 120% ga nisbatan 180% gacha, ularning kasbiy ta'limdagi ulushi esa 17% dan 26% gacha oshdi¹³¹.

NNT larning ham kasbiy tayyorgarlikka qo'shgan hissasi ortib bormoqda. Masalan, "SABR" RIIRM 12 ta hududdan ijtimoiy yo'naltirilgan NNT lar uchun muvofiqlashtiruvchi tashkiloti sifatida ko'p yillar davomida sherik NNT lari bilan birgalikda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ta'lim faoliyatini olib bormoqda. Ijtimoiy sheriklik asosida bir qator manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasbiy ko'nikmalarni, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni rag'batlantirish va shakllantirish maqsadida 12 viloyat va 13 qishloq tumanida eksperimental Mahalliy Taraqqiyot Markazlari (MTM) hamda Qishloq axborot-resurs markazlari (QARM) tashkil etildi. Respublika bo'ylab MTM va QARM da ishlash uchun 126 ta murabbiy va 44 ta trenerlar tayyorlandi.

Bugungi kunda 22 ta yo'nalishda maxsus ishlab chiqilgan o'quv moduli bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni singdirish ishlari olib borilmoqda. Biznes yuritish ko'nikmalari, moliyaviy va huquqiy savodxonlik, shaxsiy daromadlarni rejalashtirish va boshqarish, shuningdek, ijtimoiy va gender masalalar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari 28 soatlik va 35 soatlik seminar-treninglarda o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash (grantlar, imtiyozli mikrokreditlar, subsidiyalar) amalga oshirilmoqda.

Xalqaro donorlar turli loyihalar doirasida moliyaviy yordam ko'rsatmoqda, 2018-yildan 2024-yilgacha esa ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun ijtimoiy buyurtmalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Jamoat fondi tomonidan amalga oshiriladi. Bu vaqt mobaynida 15183 dan ortiq kishiga kasb mahorati o'rgatildi. Ularning 7000 nafari mikro-tadbirkor bo'ldi. Ko'nikmalarni rivojlantirish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining barcha afzalliklariga qaramay, muayyan qiyinchiliklar mavjud. Avvalo, bu NNT larining aksariyati uchun xalqaro donorlar tomonidan qo'llab-quvvatlash doirasidan tashqarida yetarli darajada moliyalashtirilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Jamoat fondi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun hamma ham g'alaba qozona olmaydigan tanlovdan o'tishi kerak.

Davlat hokimiyati va fuqarolik sektori organlarining nafaqat kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish, balki boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal etishdagi hamkorligi barqaror tendensiyaga aylanmoqda. Masalan, Andijon (Oltinko'l), Buxoro (Vobkent va Peshku), Samarqand (Oqdaryo va Urgut) va Sirdaryo (Guliston) viloyatlarining oltita tumanida amalga oshirilayotgan "Fuqarolik jamiyati ishtiroki orqali jamoalarda gender o'zgarishlariga ko'maklashish" loyihasi. Loyihaning asosiy natijalaridan biri ta'lim (kompyuter savodxonligi, sartaroshlik va tikuvchilik, kashtachilik, qandolatchilik san'ati) va safarbarlik orqali mahalliy aholining huquq va imkoniyatlarini

¹³¹Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari

kengaytirishdir, bu esa gender o'zgarishiga e'tibor qaratgan holda hududlar va jamoalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Loyiha doirasida o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy va gender tahlil natijalari bo'yicha jamoatchilik muhokamalarida 2024-yil oktabr oyida 150 dan ortiq jamoatchilik, mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

1-rasm.



2-rasm.



1-2-rasm. Kasbiy ko'nikmalarga norasmiy o'rgatish namunasi: DVVning O'zbekistondagi Filiali ko'magida amalga oshirilgan "Madaniyat markazlari salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashish" loyihasi doirasida "Qandolatchi" va "Dizaynerlik mebellarini tayyorlash" kurslari bitiruvchilari (Quvasoy shahar madaniyat markazi).

Jamoatchilik muhokamalari natijasida ta'limiy treninglar uchun moliyaviy savodxonlik, biznes yuritish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, sog'lom turmush tarzi, ayollar yetakchiligini rivojlantirish kabi eng dolzarb mavzular aniqlandi. Ishtirokchilarning ta'kidlashicha, har bir manzilda shunga o'xshash vaziyat kuzatilmoqda, respondentlarning ehtiyojlari esa deyarli bir xil, bu esa hamjamiyatlarni rivojlantirish va umumiy talablarni qondirishga yordam beradigan dasturlar va treninglarni ishlab chiqishda yagona yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Loyiha Yevropa Ittifoqi va Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi.

NNT lar aholining ko'nikmalarini rivojlantirishda, davlat tuzilmalari imkoniyatlarini to'ldirish va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Samarali ishlash uchun ularni barqaror moliyalashtirish, qulay qonunchilik sharoitlarini yaratish va nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro tashkilotlar bilan ham, davlat organlari bilan ham hamkorligiga ko'maklashish zarur.

5. ASOSIY TRENDLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

5.1. Raqamli va media-axborot savodxonligi (MAS)

Raqamli savodxonlik

Raqamli savodxonlik - kompyuter va boshqa raqamli qurilmalardan (smartfonlar, planshetlar va boshqalar) foydalanish qobiliyatidir. Raqamli dunyoda bu – Internetdan axborot izlash, elektron pochta jo'natish, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ko'plab ilovalardan foydalanish qobiliyatidir.

Media savodxonlik

Media savodxonlik - ommaviy axborot vositalari (OAV) - televideniye, radio, gazetalar, jurnallar,

internet - saytlar, ijtimoiy tarmoqlar qanday ishlashini tushunish qobiliyatidir. Bu media xabarlarini tanqidiy qabul qilish, ularni kim va nima uchun yaratganini, qanday ta'sir ko'rsatishini tushunish, faktlarni fikr va tashviqotdan ajratish, o'z media mahsulotlarini yaratish (masalan, blog yuritish yoki video suratga olish).

Axborot savodxonligi

Axborot savodxonligi raqamli va media savodxonlikni birlashtiradigan eng keng tushunchadir. U axborotni izlash, baholash, undan foydalanish va uni yaratish, uning ishonchliligini tekshirish va o'z vazifalarini bajarish uchun foydalanish, bu axborotni boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Savodxonlikning bu uch turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Hozirda axborot asosan raqamli muhitda va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotganda, raqamli va media savodxonligiga ega bo'lmasdan turib, axborot savodxonligiga erishib bo'lmaydi. Masalan, Internetda topilgan yangiliklarning ishonchliligini baholash uchun yangiliklar saytlari (media savodxonlik) qanday ishlashini tushunish va qidiruv tizimlari va boshqa onlayn vositalardan (raqamli savodxonlik) foydalana olish kerak.

Media-axborot savodxonligi

“Media-axborot savodxonligi” (MAS) – 2007-yilda YuNESKO tomonidan axborot savodxonligi va media-savodxonlik bilan bog'liq barcha vakolatlarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni qamrab oluvchi kompleks tushuncha ¹³² sifatida taklif etilgan atama. Bu atama xalqaro hamjamiyatda keng e'tirof etildi.

Raqamlashtirish: O'zbekistonda qonunchilik bazasi va tashabbuslari

Axborot texnologiyalari va xavfsizlik sohasida 30 dan ortiq qonun, 60 ga yaqin Prezident hujjatlari va 100 dan ortiq Hukumat qarorlari qabul qilindi¹³³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2020-yilda “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil etish va sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni ¹³⁴ amalga oshirish boshlandi. Ushbu strategiya ta'limning qulayligi va sifatini oshirish, yoshlarda raqamli vositalar va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashishga qaratilgan.

¹³²BMT. “Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi global haftaligi”. <https://www.un.org/ru/observances/media-information-literacy-week>

¹³³Институт законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан. Цифровая грамотность как инструмент повышения правовой осведомлённости молодежи. <https://illp.uz/цифровая-грамотность-как-инструмент/>

¹³⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida” Farmoni, (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6079-son Farmoni) 24.07.2021-y. PF-6268-son <https://lex.uz/ru/docs/-5525180>

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi: 2022-yilda tanqidiy axborot infratuzilmasi xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun¹³⁵, elektron savdo sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun¹³⁶ qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni¹³⁷ raqamli texnologiyalar sohasida islohotlarning "Yo'l xaritasi" ni tasdiqladi.

Bir qancha muhim qarorlar qabul qilindi: Prezidentning hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o'rgatish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "IT-shaharchalar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori¹³⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori¹³⁹ mamlakatimizda IT-kadrlarni rivojlantirishni rag'batlantirish imkonini beradi. "Network Readiness Index 2023"¹⁴⁰ hisobotida O'zbekiston 134 mamlakat orasida 82-o'rinni egallab, bu o'rtacha daromaddan past bo'lgan mamlakatlar sifatidagi mavqeiga mos keladi (5-rasm). Mamlakatning indeksdagi mavqei to'rtta asosiy toifadagi indikatorlar bo'yicha hisoblanadi:

- **Texnologik daraja** (67-o'rin). O'zbekiston texnologiyalardan foydalanishda nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda (44-o'rin), bu 3G qamrovi va xalqaro internet o'tkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi, ammo yangi texnologiyalarga investitsiyalar va mashinalar zichligi kabi kontent va kelajakdagi texnologiyalarni rivojlantirishda orqada qolmoqda.
- **Inson kapitali** (88-o'rin). Bu borada mamlakatimiz "Individual foydalanuvchilar", "Biznes" va "Hukumat" toifalarida zaif ko'rsatkichlarga ega. Bu aholining raqamli savodxonligi yetarli emasligini, biznes va davlat sektori raqamlashtirilishining sust ekanini ko'rsatmoqda.
- **Boshqaruv** (98-o'rin). Bu toifadagi past ko'rsatkichlar Internetga bo'lgan ishonchning pastligi, tartibga solishning zaifligi va inklyuzivlikning yetarli emasligi bilan bog'liq. Bu esa kiberxavfsizlikni mustahkamlash va onlayn moliyaviy xizmatlardan foydalanishni yaxshilash zarurligini nazarda tutadi.
- **Ta'sir (76-o'rin)**. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ta'siri indikator bo'yicha O'zbekiston 99-o'rinni egallab turibdi, bu esa raqamli texnologiyalardan iqtisodiyotda yetarli darajada foydalanilmayotganidan dalolat beradi. Biroq, mamlakat hayot sifati bo'yicha 34-o'rinda turadi, bu raqamlashtirish hayotning ayrim jihatlariga ijobiy ta'sirini ko'rsatayotganini anglatadi.

¹³⁵O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son Qonuni, 15.04.2022-y. <https://lex.uz/docs/-5960604>

¹³⁶O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonuni, 29.09.2022-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6213382>

¹³⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-son Farmoni, 24.05.2023-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6472528>

¹³⁸Norma.uz: В регионах создаются «IT-городки» https://www.norma.uz/ru/novoe_v_zakonodatelstve/v_regionah_sozdayutsya_it-gorodki

¹³⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-51-son Qarori, 01.02.2024-y. <https://lex.uz/ru/docs/-6786586>

¹⁴⁰Отчет «Network Readiness Index 2023». https://download.networkreadinessindex.org/reports/nri_2023.pdf

Network Readiness Index 2023 mamlakatlari reytingi.

5-rasm.

78	Georgia	45.25	● Upper middle income	Europe
79	Albania	44.98	● Upper middle income	Europe
80	Sri Lanka	44.14	● Lower middle income	Asia & Pacific
81	Egypt	44.07	● Lower middle income	Arab States
82	Uzbekistan	43.94	● Lower middle income	CIS
83	Mongolia	43.52	● Lower middle income	Asia & Pacific
84	Dominican Republic	43.49	● Upper middle income	The Americas
85	Ecuador	43.05	● Upper middle income	The Americas
86	Panama	43.03	● High income	The Americas
87	Iran (Islamic Republic of)	42.83	● Lower middle income	Asia & Pacific

2023-yil oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra:

- Mamlakatimizda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshdi.
- Xalqaro internet kanalining o'tkazish qobiliyati 3,5 barobar oshdi, bu esa internet aloqasi sifati va tezligini yaxshilashga xizmat qilmoqda.
- Aholining 100 nafariga internetning kirib borish darajasi ham oshdi.
- Qo'shni mamlakatlarga nisbatan O'zbekistonda yuqori tezlikdagi internet narxi yuqori.

Umuman olganda, O'zbekiston internetdan foydalanish bo'yicha dunyoda 23-o'rinda turadi¹⁴¹.

Media-axborot savodxonligi sohasidagi tashabbus va loyihalar

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida (AOKA) media va axborot savodxonligi bo'yicha yangi boshqarma ochildi. YuNESKO ning Toshkentdagi vakolatxonasi yaqin 5-7 yil uchun MAS (Media va axborot savodxonligi) milliy strategiyasini ishlab chiqishda AOKA ni qo'llab-quvvatlamogda. Dastlabki bosqichda davlat organlarida qarorlar qabul qiluvchi shaxslar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining ekspertlari ishtirok etadigan tadqiqot o'tkaziladi.

Bundan tashqari, YuNESKO ham davlat, ham nodavlat OAV mutaxassislarini O'zbekiston fuqarolariga yanada xolisona, faktlarga asoslangan va foydali ma'lumotlar¹⁴² olish imkonini beradigan ko'nikmalarga o'rgatishda hamda MAS bo'yicha o'qituvchilar uchun treninglar o'tkazilishini qo'llab-quvvatlaydi, ular ommaviy axborot vositalariga darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun axborot manbasi sifatida qaray boshlaydi, media-tahlil va bir nechta media manbalardan foydalanish muhimligini anglaydi.

O'zbekistonda media savodxonlikni rivojlantirish jarayonida fuqarolik jamiyati tashkilotlari faol ishtirok etmoqda. Misol uchun, 2020-yildan 2022-yilgacha ERIM (Fransiya) ko'magida Markaziy Osiyoning 4 mamlakatida (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) amalga oshirilgan BRYCA yirik xalqaro loyihasi doirasida Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi¹⁴³ O'zbekiston

¹⁴¹Kun.Uz. В Узбекистане количество интернет-пользователей превысило 31 миллион. <https://kun.uz/ru/news/2022/12/15/v-uzbekistane-kolichestvo-internet-polzovateley-prevysilo-31-million>

¹⁴²СМИ и цифровые возможности. Мастер-классы по МИГ для работающих журналистов и студентов факультетов журналистики <https://www.unesco.org/ru/articles/smi-i-cifrovye-vozmozhnosti>

hududlarida media va axborot savodxonligi bo'yicha qator kaskadli treninglar o'tkazdi, ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlar va "nafrat nutqi" tarqalishi bo'yicha monitoring olib bordi va Qlever.asia¹⁴⁴ o'quv o'yin platformasini ishlab chiqdi.

2023-2024-yillarda Markaz ushbu ishlarni "Mahalla" loyihasi doirasida davom ettirdi. <https://qlever.asia> o'yin platformasi oltita yangi o'yin bilan to'ldirildi. Endi axborot bilan ishlash, faktlarni tekshirish, media va axborot savodxonligi mavzusidagi ta'lim o'yinlarining umumiy soni 20 tadan ortdi, O'zbekistonda esa o'yin o'ynaydiganlar 37 000 dan ortiqni tashkil etadi. Shuningdek, Qlever-Factcheck¹⁴⁵ jurnalist-faktchekerlari va volontyor-faktchekerlarining factchecknet.uz¹⁴⁶ hamjamiyati faktlarini tekshirish resursi yaratildi. Markaz ekspertlari tomonidan DW-MIL-UZ loyihasi doirasida DW Academie ko'magida pedagoglar uchun Mediasavod¹⁴⁷ platformasi ishlab chiqildi.

2015-yildan buyon O'zbekistonda "Axborot-kutubxona sohasida islohotlarni chuqurlashtirish davrida O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislarining axborot madaniyati va media savodxonligini shakllantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 8 yildan buyon O'zbekistonning axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari YuNESKO va IFLA g'oyalarini ilgari surish metodikasi bo'yicha, Xalqaro kutubxona uyushmalari va muassasalari federatsiyasi (International Federation of Library Associations and Institutions) "Shaxsning axborot madaniyati asoslari"¹⁴⁸ o'quv kursi orqali media-axborot savodxonligi bo'yicha o'qitilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyoti strategiyasining 70-maqsadi¹⁴⁹, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi, yoshlarning raqamli va ommaviy axborot vositalari savodxonligini rivojlantirishga intilishi ta'kidlanadi. Ushbu strategiya doirasida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etish orqali ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish va iste'dodlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda media-iste'molning o'ziga xos xususiyatlari

2023-yili Internews¹⁵⁰ телевидение tomonidan o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida media iste'moli va media-axborot savodxonligi bo'yicha sotsiologik tadqiqotga ko'ra, O'zbekistonda televideniye asosiy axborot manbalaridan biri bo'lib qolmoqda (9-diagramma).

¹⁴³Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi <https://mjdc.uz/ozb>

¹⁴⁴Ta'lim o'yin platformasi <https://qlever.asia/ru/region>

¹⁴⁵Jurnalist-faktchekerlar va faktcheker-volontyorlar hamjamiyati https://t.me/qlever_factcheck

¹⁴⁶Faktlarni professional tekshirish uchun faktcheking platformasi <https://mjdc.uz/#!/tab/752267573-3>

¹⁴⁷O'qituvchilar, o'quvchilar, maktablar, uslubiyotchilar, kutubxonachilar, jurnalistlar, bloggerlar uchun ta'lim, interaktiv platforma. <https://msavod.uz/uz>


¹⁴⁸Информационно-библиотечный журнал «ИНФОЛИБ» <https://einfo.lib.uz/post/prodwijenie-mediino-informatsionnoi-gramotnosti-i-informatsionnoi-kultur-kak-odna-iz-form-kulturnoi-diplomatii-opt-rossii-i-uzbekistana>

¹⁴⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022-y. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

¹⁵⁰Социологическое исследование по изучению медиапотребления и медиаинформационной грамотности в странах Центральной Азии (Казахстан, Таджикистан, Узбекистан), 2023 https://newreporter.org/wp-content/uploads/2024/04/Internews_Izuchenie_mediapotrebleniya_i_mediagramotnosti_v_TSentralnoj_Azii_2023_sravnenie_5_let_RUS.pdf

Markaziy Osiyodagi axborot manbalari.

9-diagramma.



Onlayn axborot manbalari tobora ommalashib bormoqda. O'zbekistonda auditoriyaning 63% har kuni, yiliga o'rtacha 224 kun Internetga chiqadi. 53,1% o'zining media-axborot savodxonligiga ishonch bildirmoqda. Ammo yanada puxta tahlil qilinganda, bu ko'nikmalar har doim ham murakkab emasligi aniqlanadi. Masalan, so'rov ishtirokchilarining atigi 38,9% turli manbalardan kelib tushadigan ma'lumotlarni samarali tahlil qila oladi. Kamroq odamlar internet qidiruv, shu jumladan aniq so'rovlarni shakllantirish qobiliyatini namoyish etishdi (21,3%). Axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalari past - faqat 15% ishonchli ma'lumotlarni Internetdagi ishonchsiz ma'lumotlardan ajrata oladi. Qizig'i shundaki, tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan ishonch juda past darajada qayd etilgan bo'lsa-da, O'zbekistondagi respondentlarning qariyb yarmi (47%) ijtimoiy tarmoqlarni asosiy axborot manbalaridan biri sifatida qayd etgan. Umuman olganda, mamlakatda media va axborot savodxonligi darajasi tadqiqotchilar tomonidan past yoki o'rtacha deb baholanmoqda.

5.2. KYO' va UTB ni raqamlashtirish

O'zbekistonda ta'limning raqamli transformatsiyasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan umumiy raqamlashtirish fonida amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi ¹⁵¹ doirasida barcha sohalar, jumladan, ta'lim sohasini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada SI (sun'iy intellekt) sohasida aholiga, ayniqsa, yoshlarga axborot taqdim etish maqsadida davlat tilida onlayn ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishni

¹⁵¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni, 28.02.2023-y. <https://lex.uz/docs/-6396146>



nazarda tutuvchi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi¹⁵² kabi strategiyalar amalga oshirilmoqda.

Ko‘plab ta’lim muassasalari interaktiv doskalar, elektron kundaliklar va jurnallardan foydalanadi, audio va video darslar yaratadi, o‘qituvchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali maslahat beradi. Davlat siyosatiga ko‘ra, ta’limni raqamlashtirish jarayoni ushbu sohaning ko‘proq jihatlariga ta’sir qiladi va bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanadi:

- O‘quv jarayonini tashkil etish uchun onlayn platformalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalarni faol joriy etish.
- Ta’lim muassasalarining o‘zini raqamlashtirish, ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, raqamli kutubxonalar va axborot tizimlarini yaratish.
- Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, buning uchun o‘qituvchilar uchun raqamli instrumentlar va o‘qitish metodikalarini o‘zlashtirish bo‘yicha treninglar va kurslar o‘tkaziladi.
- Raqamli ta’lim muhitini yaratish va shu maqsadda barcha ta’lim muassasalarini birlashtiradigan va ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beradigan yagona raqamli platformani ishlab chiqish.

Ta’limni raqamli transformatsiyalashning afzalliklari:

- Ta’limni individuallashtirish va har bir ta’lim oluvchi uchun individuallashtirilgan o‘quv traektoriyalarini yaratish imkoniyati.
- O‘qitish samaradorligini oshirish (interaktiv jihozlar va multimedia materiallaridan foydalanish o‘qitishni yanada qiziqarli va samarali qiladi).
- Onlayn ta’lim geografik joylashuvi va ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, ta’lim olish imkonini berayotgani sababli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Bilimlarni baholashning zamonaviy usullari. Raqamli vositalar bilimlarni xolis va tez baholash imkonini beradi.
- IT-savodxonligi, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish va samarali muloqot qilish kabi yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- Raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash (raqamli vakolatlarga o‘qitish muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lib qolmoqda).

Shu bilan birga, ta’limni raqamlashtirish bilan bog‘liq muammolarni hisobga olish zarur:

- Raqamli tafovut (mamlakatning turli mintaqalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining bir xil emasligi).
- Moliyaviy cheklovlar tufayli nodavlat sektorining (NNT, MChJ va boshqalar) ta’limni raqamlashtirishda ortda qolishi.
- Raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar malakasining yetarli emasligi va ularning malakasini oshirish zarurati.
- Raqamli texnologiyalarni joriy etishning yuqori qiymati (asbob-uskunalar va dasturiy ta’minotga katta investitsiyalar).

¹⁵²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-358-son Qarori, 14.10.2024-y. <https://lex.uz/docs/-7158604>

- Ommaviy raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikning yetarli darajada tayyorlanmaganligi.

Mavjud muammolarga qaramay, O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish quyidagilarni ta'minlaydi:

- Ta'lim sifatini oshirish.
- Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yaxshilash.
- Inson salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy harakatchanlik.

Ta'limni raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni tanlashdagi ustuvorliklar quyidagi sohalarga taalluqli bo'lishi kerak:

- Qishloq tumanlarida va kam ta'minlangan oilalarning internet va raqamli qurilmalardan foydalanishi imkoniyatini kengaytirish.
- O'qitish jarayonlarini raqamlashtirishni rivojlantirishda nodavlat ta'lim muassasalarini, ayniqsa ijtimoiy yo'naltirilgan NNT larni qo'llab-quvvatlash.
- O'qituvchilarning, shu jumladan andragoglarning malakasini oshirish va ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yaratish.
- Raqamli ta'limning milliy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish.
- Ta'limning barcha darajalarini birlashtiruvchi raqamli ta'lim ekotizimini yaratish.

Ayrim yo'nalishlarda bu vazifalar amalga oshirila boshlangan, bu jarayonda oliy o'quv yurtlari yetakchilik qilmoqda. Ularning ba'zilarida muvaffaqiyatli natijalar bor va ular O'zbekistondagi ta'lim tizimining barcha darajalaridagi boshqa ta'lim muassasalariga tajriba o'tkazish maydoniga aylanishi mumkin. 2025-yilda oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida edu.uz raqamli ekotizimini ishga tushirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 10 ta yangi axborot tizimlarini ishlab chiqish va mavjud axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda. 2025-yilda barcha axborot tizimlarini integratsiyalash va takomillashtirish natijasida yagona **"DATAHUB"**¹⁵³ tashkil etiladi.

Texnologiyalar ta'lim landshaftini o'zgartiradi va o'qituvchilar raqamli vositalarni o'qitish, ta'lim va ma'muriyatchilik amaliyotiga moslashtirish va integratsiya qilish talablariga duch kelmoqdalar. YUNESKO ning Uzluksiz ta'lim instituti (UIL) Shanxay ochiq universiteti (SOU) bilan hamkorlikda 2024-yil oktabr oyida **"DELTA Framework"** tizimini sinovdan o'tkazish loyihasini ishga tushirdi. Loyihaning asosiy maqsadi kattalar uchun o'qituvchilar, shuningdek, kattalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi menejer va siyosatchilarning raqamli kompetensiyalarini mustahkamlashdan iborat.

Loyiha doirasida taklif etilayotgan tuzilma o'quv modullari misollari bilan birga o'qituvchilarga raqamli ko'nikmalarni samarali egallash va qo'llashga yordam beradi. 2024-yilda ushbu loyihada Xitoy, Misr, Keniya va O'zbekiston kabi 4 davlat (pilot variant sifatida) ishtirok etdi. 2024 va 2025-yillar mobaynida loyihada ishtirokchi mamlakatlarning milliy texnik ishchi guruhlar ishtirok etadi, ular raqamli kompetentlilik va o'quv modullari tarkibini kontekstlashtirish va aniqlashtirish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlik qiladi. Tashabbus 2025-yil oxiriga qadar ishlab chiqilgan resurslarni ishga tushirish bilan yakunlanadi. Loyihada O'zbekistonning ham davlat, ham nodavlat tashkilotlari vakillari ishtirok etmoqda.

¹⁵³Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining vebsayti. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/1334>

Jahon banki loyihasi doirasida barcha davlat oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga joriy etilgan **HEMIS** yagona integratsiyalashgan elektron tizim yaratildi. Tizim respublika bo'yicha barcha talabalarining ma'lumotlar bazasini (shu jumladan xususiy va xalqaro oliy o'quv yurtlari), ularning davomat va o'zlashtirishni, shuningdek, mamlakat o'qituvchilarini, elektron resurslarni, akademik dasturlarni, ta'lim mazmunini va boshqalarni o'z ichiga oladi¹⁵⁴.

Ta'lim xizmatlarining **MyEDU** yagona portali yaratildi. Platformaning asosiy maqsadi oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'limi tizimida interaktiv xizmatlar ko'rsatishdan iborat¹⁵⁵.

Unilibrary elektron kutubxona platformasi mavjud bo'lib, u o'quv-metodik ishlar va ilmiy materiallarning (maqolalar, monografiya va dissertatsiyalar) keng to'plamidan foydalanishni ta'minlaydi. Platforma talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarga zarur resurslardan elektron shaklda tezkor foydalanish imkoniyatini beradi¹⁵⁶. Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish imkonini beruvchi **Kontrakt** axborot tizimi ishlab chiqildi¹⁵⁷.

Mamlakatimiz ta'limini raqamlashtirish drayverlaridan biri Toshkentdagi Inha universiteti hisoblanadi. Universitetda o'quv dasturlarini ish beruvchilar uchun yanada moslashuvchan va talabchan qilish maqsadida SI qo'llaniladigan platformalardan foydalaniladi. Raqamli yondashuv virtual rektorlik, akademik boshqaruv, abituriyentlarni qabul qilish, resurs markazi, o'qituvchilarga xizmat ko'rsatish, talabalar faoliyatini nazorat qilish va boshqa yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, universitet Tier II standarti bo'yicha o'z data-markazini ochgan va turli xosting va kollokatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi birinchi ta'lim muassasalaridan biridir¹⁵⁸.

Poytaxtimizda saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 18 yoshdan oshgan har bir kishiga IT sohasida talab yuqori bo'lgan bepul ta'lim olish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar maktabi - "School 21" kampusi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorlikda ushbu loyihani amalga oshirilmoqda. O'qitish dasturi quyidagi turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- C tilida tarkibiy dasturlash;
- C++ obyektga yo'naltirilgan dasturlash;
- kompyuter tarmoqlari, algoritmlar, SQLdagi ma'lumotlar bazalari;
- Java, Python, Golang dasturlash;
- mobil ishlab chiqish, Frontend, Backend, ML&DS, Big Data, GameDev va boshqalar.

2024-yil dekabr oyidan boshlab "School 21" loyihasi Samarqandda amalga oshirilmoqda va unga talab katta. Ta'lim jarayoni qatnashchilari dasturlash yoki raqamli texnologiyalarning boshqa sohalarida amaliy ko'nikmalarni tasdiqlovchi bazaviy yoki ilg'or darajadagi davlat namunasidagi diplomni oladilar. Ushbu hujjat yirik IT-kompaniyalar va yuqori texnologiyali tarmoqlarda ishlash uchun eshiklarni ochib, mehnat bozorida raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydi¹⁵⁹.

¹⁵⁴«Всемирный банк запустит в Узбекистане два новых проекта в сфере высшего и профессионального образования», 14.02.2024 <https://yuz.uz/ru/news/vsemirny-bank-zapustit-v-uzbekistane-dva-novx-proekta-v-sfere-vsshego-i-professionalnogo-obrazovaniya>

¹⁵⁵MyEDU platformasi <https://my.edu.uz/>

¹⁵⁶Unilibrary platformasi, <https://unilibrary.uz>

¹⁵⁷Kontrakt platformasi <https://kontrakt.edu.uz>

¹⁵⁸Muzaffar Jalalov, Toshkent shahridagi INHA universiteti rektori. «Правда Востока», 15.06.2022 г. «Высшее образование в эпоху цифровизации: развивать и совершенствовать». <https://inha.uz/ru/obshaya/gazeta-pravda-vostoka-opublikovala-statyu-rektora-uit/>

¹⁵⁹<https://21-school.uz/ru/>

Raqamlashtirish sohasidagi mutaxassislarning fikricha, ta'limning raqamli transformatsiyasini tezlashtirish uchun ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy IT uskunalari bilan ta'minlash, talabalar va o'qituvchilarni bazaviy raqamli ko'nikmalarga o'qitish, masofadan o'qitish uchun davlat yoki xususiy integratsiyalashgan platformalarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni himoya qilishning zamonaviy standartlarini va kiberxavfsizlik bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish, elektron kutubxonalardan foydalanishni ta'minlash, platformalar va kontent yaratish uchun professional ishlab chiquvchilarni jalb etish zarur¹⁶⁰.

Mamlakatimizning raqamli kelajagi IT va yangi axborot texnologiyalari sohasidagi yoshlar va malakali mutaxassislarga bog'liq. Shu bois mazkur sohada ta'lim darajasi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda IT-markazlar soni 300 dan oshdi, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 1,2 million yoshlar o'qitildi. Fuqarolar, tadbirkorlar va yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv seminarlarida 20 mingdan ziyod kishi ishtirok etdi. Kelgusida har yili 5 ming nafar iste'dodli yoshlarni xalqaro mehnat bozoriga saralash, o'qitish va tayyorlash rejalashtirilgan¹⁶¹.

DVVning O'zbekistondagi Filiali tomonidan amalga oshirilgan KYO' va UTB sohasidagi loyihalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat ta'lim loyihalarining ajralmas qismiga aylanadi, balki odamni butun kasbiy va shaxsiy hayoti davomida kuzatib boradi. Biroq hududlarda kasbiy ko'nikmalarni oshirish bo'yicha kurslar tashkil etilgani qishloq va shahar o'rtasida raqamli tafovut yuqori ekanidan dalolat beradi. Raqamli kompetensiyani rivojlantirish sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar soni, sifati va xilma-xilligi shaharda ancha yuqori bo'lib, bu mamlakat ichida media savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

3-rasm.



3-rasm. Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) tomonidan moliyalashtiriladigan "Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali KYO' va UTB" loyihasi doirasida 12 ta ijtimoiy yo'naltirilgan NNT rahbarlari uchun trening. Tashkilotchilar - DVV ning O'zbekistondagi Filiali bilan hamkorligida Respublika "SABR" ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi Yoshlar tashabbuslari markazi.

Barqaror tezkor internet va raqamli texnologiyalardan (kompyuter, telefon, planshet va boshqalar) foydalanish O'zbekiston hududlarida, ayniqsa qishloq joylarda qiyinligicha qolmoqda, bu esa aholining onlayn ta'limda ishtirok etishini cheklamoqda. Shaharda ham, qishloqda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar, ayniqsa, keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishda yanada qiyinchiliklarga duch kelmoqda, ular ko'pincha sifatli va zamonaviy ta'lim dasturlaridan foydalanishdan uzilib qolishadi, bu esa raqamli tafovut va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Raqamli va media savodxonlik uchun qulay muhitni yaratish va rivojlantirish uchun zamonaviy resurs bazasini kuchaytirish muhim tarkibiy qism hisoblanadi, bu esa moliyalashtirishning barqaror modelini milliy darajada rivojlantirishni taqozo etadi. Raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi shaxsiy axborot va maxfiylikni himoya qilish borasida qonunchilik bazasini rivojlantirishni ham talab qiladi. Chunki raqamli savodxonlik darajasi past bo'lgan aholi raqamli fribgarlar noqonuniy maqsadlarda foydalanishi mumkin bo'lgan turli raqamli platformalar va ilovalarda shaxsiy axborotdan noto'g'ri va samarasiz foydalanishda himoyasiz bo'lishlari mumkin.

O'zbekistonda ta'limni raqamli transformatsiya qilish - davlat, ta'lim muassasalari (ham davlat, ham nodavlat), biznes va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan uzoq muddatli va kapitalni talab qiladigan jarayon.

5.3. Barqaror rivojlanish uchun “yashil” ko'nikmalar



O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o'tish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mavzusi mamlakatning uzoq muddatli siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu O'zbekiston iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ekologik va iqlim xavflariga duch kelayotgani bilan asoslanadi. Masalan, 1880 yildan boshlab mamlakatimizda o'rtacha yillik harorat 1,6 darajaga ko'tarilib, dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan oshib ketdi, 2090-yillarga kelib esa o'rtacha harorat 4,8 darajaga oshishi kutilmoqda. Suv resurslari muammosi tobora keskinlashmoqda. Aholi jon boshiga suv ta'minoti 20 yilda 3000 kub metrdan 1500

kub metrgacha ikki baravar kamaydi ¹⁶².

“Yashil” ko'nikmalar - barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuidir. O'zbekistonda ekologik toza texnologiyalar va resurslarni barqaror boshqarish yo'nalishlari faol rivojlanmoqda, shuning uchun “yashil” ko'nikmalar tobora ortib bormoqda:

- “Yashil” iqtisodiyotga o'tish ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga qodir mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi.
- “Yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratadi, ular uchun tegishli ko'nikmalarga ega mutaxassislar talab etiladi.
- “Yashil” ko'nikmalar atrof-muhitning ifloslanishi, tuproqning degradatsiyasi va suv tanqisligi kabi ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi.

“Yashil” ko'nikmalarga quyidagi tushunchalar bilan bog'liq bilimlar kiradi:

- Ekologik bilimlar (ekologik jarayonlarni tushunish, tabiiy tizimlar va inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik).
- Energiya jihatidan samarali (energiya jihatidan samarali texnologiyalarni loyihalashtirish va joriy etish qobiliyati).
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (qayta tiklanuvchi energiya manbalarining xilma-xil turlari va ularni qo'llash to'g'risidagi bilimlar).

¹⁶²«Освоение зелёных навыков предпринимателями — важный аспект устойчивого роста экономики Узбекистана», Высшая школа бизнеса. Spot. Бизнес и технологии. <https://www.spot.uz/ru/2024/12/25/higher-school/>

- Chiqindilarni boshqarish (chiqindilarni to'plash, saralash va qayta ishlashni tashkil etish ko'nikmalari).
- Ekologik loyihalash (faoliyatning turli sohalarida ekologik xavfsiz loyihalarni yaratishga qodir bo'lish).
- Barqaror qishloq xo'jaligi (atrof muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan qishloq xo'jaligini yuritish usullari to'g'risidagi bilimlar).

Kelajak “yashil” kasblariga misollar

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha mutaxassis
- Ekologiya muhandisi
- Energiya samaradorligi bo'yicha ekspert
- Chiqindilarni boshqarish bo'yicha mutaxassis
- Eko-agronom
- Eko-arxitektor

Respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida (shu jumladan mintaqaviy filiallarda) “yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun eng zarur bo'lgan quyidagi mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlandi:

- biotexnolog;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari muhandisi;
- muqobil (quyosh va shamol) energetikasi bo'yicha muhandis;
- suv, yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha muhandis;
- bioiqtisodiyot, iqlim xavflarini baholash va shu kabilar bo'yicha mutaxassis;
- energetik samarador inshootlarni loyihalashtirish, ulardan foydalanish, ularni qurish;
- energetik samarador texnologiyalarni, shu jumladan sun'iy intellektni loyihalashtirish, ulardan foydalanish va ularni ishlab chiqarish.

2022/2023-o'quv yilida tayyorlangan kadrlar umumiy sonining 30% dan ortig'i “yashil” iqtisodiyotga mos keladi (taqqoslash uchun 2019/2020-o'quv yilida 5%)¹⁶³.

“Yashil” ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagilar yordam beradi:

- Ta'lim (ekologik mavzularni o'quv dasturlariga kiritish).
- Kasbiy qayta tayyorlash (turli soha mutaxassislari uchun malaka oshirish kurslari va dasturlarini tashkil etish).
- Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilish (dunyoning yetakchi universitetlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish).
- Amaliy tayyorgarlik (olingan bilimlarni amaliyotda amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratish, masalan, stajirovka va loyihalar orqali).
- Ekologik bilimlarni ommalashtirish (axborot kampaniyalari, tanlovlar, festivallar va boshqa tadbirlarni o'tkazish).

Muammolar va istiqbollar

O'zbekistonda “yashil” ko'nikmalarni rivojlantirish muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liq:

- Malakali kadrlar yetishmasligi.
- Moliyalashtirish (kadrlar ta'limi va ularni qayta tayyorlashga katta investitsiyalar talab etiladi).
- Fikrlashni o'zgartirish (atrof-muhit va resurslarga munosabatni o'zgartirish kerak).

¹⁶³ «Освоение зелёных навыков предпринимателями — важный аспект устойчивого роста экономики Узбекистана», Высшая школа бизнеса. Spot. Бизнес и технологии. <https://www.spot.uz/ru/2024/12/25/higher-school/>

O'zbekistonda "yashil" ko'nikmalarni rivojlantirish istiqbollari:

- Yangi ish o'rinlari yaratish.
- Aholi turmush sifatini yaxshilash.
- Xalqaro imidjni mustahkamlash (O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish sohasida yetakchi bo'lishi mumkin).

O'zbekiston barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri "Yashil" ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Ushbu mavzu tadqiqotchilari "Hayot davomida ta'lim olish" milliy konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif qilmoqdalar, unda katta yoshlilar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va ta'limning boshqa turlari dasturlari "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar (IT ko'nikmalar) bilan ishlash vakolatlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim, kasbiy qayta tayyorlash va ekologik bilimlarni ommalashtirishga investitsiyalar kiritish mamlakatimizga "yashil" iqtisodiyotga o'tish va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash imkonini beradi.

5.4. Global fuqarolik ruhidagi ta'lim



Jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashayotgan zamonaviy O'zbekiston nuqtai nazaridan kattalar o'rtasida global fuqarolikni shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston global va mahalliy muammolarni - global iqlim o'zgarishi, Orolbo'yi ekologik ofati va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, tabiiy va antropogen ofatlar, doimiy mojarolar, ijtimoiy tartibsizliklar, adolatsizlik va tengsizlik, terrorizm va zo'rvonlik ekstremizmining tarqalishi va boshqalarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda bugungi kunda dunyoning barcha davlatlari bir-biriga qaram va murakkab dunyoda yashayotganini anglash kuchayib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) global fuqarolik va global fuqarolik ruhidagi ta'limni shunday ta'riflaydi:

Global fuqarolik ruhidagi ta'lim Global fuqarolik (BMTning ta'rifi)

Global fuqarolik - bu global miqyosda fikrlaydigan shaxslar va jamoalarning ijtimoiy, siyosiy, ekologik va iqtisodiy harakatlarini umumlashtiruvchi atamadir. Ushbu atama ayrim shaxslar izolyatsiya qilingan jamoalarning alohida subyektlari emas, balki ko'plab, turli mahalliy va xalqaro tashkilotlarning a'zolari ekanligi haqidagi iddaolarga asoslanadi. Global fuqarolikni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish odamlarga nafaqat o'z manfaatlarini, balki jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlari uchun ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkonini beradi¹⁶⁴.

Global fuqarolik ruhida ta'lim – adolatli va barqaror tinchlikka erishish jarayonida faol ishtirok etadigan jamiyatni shakllantirish; inson qadr-qimmatiga, etnomadaniy xilma-xilligiga va inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni rag'batlantirish, shuningdek atrof muhitga hurmat ko'rsatish va mas'uliyatli iste'mol madaniyatini rivojlantirish¹⁶⁵.

¹⁶⁴BMT veb-sayti. Global fuqarolik. <https://www.un.org/ru/120924>

¹⁶⁵BMT veb-sayti. Образование в духе глобальной гражданственности для перехода к более справедливому и равноправному мироустройству. <https://www.un.org/ru/85398>

Global fuqarolik konsepsiyasi BMTning 4-BRMdagi “Barqaror rivojlanish maqsadlari” hujjatiga kiritilgan. Shunday tarzda, ushbu maqsad doirasida 4.7 - vazifa quyidagicha ifodalangan:

4-BRM. 4.7-vazifa

2030-yilgacha barcha ta’lim oluvchilarning barqaror rivojlanishga ko’maklashish uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarini, shu jumladan barqaror rivojlanish manfaatlarini ko’zlab ta’lim va **global fuqarolik ta’limi** orqali egallashini ta’minlasin.

YuNESKOning bahosiga ko’ra, ilm-fan va texnologiyalar sanoatlashtirish, urbanizatsiya va globallashtirish sur’atlarini tezlashtirib, turli madaniyatdagi insonlar o’rtasidagi aloqani ta’minlaydigan kommunikatsiya va transport tarmoqlari va kanallarini kengaytirdi. Global fuqarolik dunyo hamjamiyatiga umumiy mansublikka qaratilgan. “Dunyo fuqarosi - bu kengroq dunyoni va o’z o’rnini anglaydigan va tushunadigan inson. U dunyo fuqarosi. U o’z hamjamiyati hayotida faol ishtirok etadi va sayyoramizni yanada tinch, barqaror va adolatli qilish uchun boshqalar bilan hamkorlik qiladi”¹⁶⁶. Ta’lim tashkilotlari, shu jumladan kattalar uchun tashkilotlarga global fuqarolik g’oyasini ilgari surish, o’z tinglovchilarini ushbu jamoatchilikka ko’maklashish uchun o’z ko’nikma va ta’limidan foydalanadigan katta global hamjamiyatning a’zosi bo’lishga tayyorlash mas’uliyati yuklatilgan.

Millatlararo fuqarolik turli madaniyat va millat vakillari o’rtasidagi o’zaro hamkorlikka qaratilgan bo’lib, madaniyatlar o’rtasidagi samarali muloqot va hamkorlikni, shuningdek, millatlar o’rtasidagi do’stlik va hamkorlikni o’z ichiga olgan “madaniyatlararo” va “baynalmilallik” tushunchalarini o’z ichiga oladi.

O’zbekiston Markaziy Osiyoda aholi eng zich joylashgan davlatdir. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko’ra O’zbekiston aholisi 37,5 milliondan ortiq kishini tashkil etdi¹⁶⁷. Bu yerda 130 dan ortiq millat va elat vakillari - o’zbek, qoraqalpoq, tojik, turkman, qozoq, qirg’iz, uyg’ur, dungan, rus, ukrain, belaruslar yashaydi. Koreyslar, eronliklar, armanlar, gruzinlar, ozarbayjonlar, tatarlar, boshqirdlar, nemislar, yahudiylar, litvaliklar, yunonlar, turklar va boshqa millat vakillari ko’plab diasporalardan iborat. O’zbekistonning tarkibi jihatidan xilma-xil bo’lgan etnik manzarasi mamlakatimiz din masalasiga bag’rikengligini va bu yerda turli konfessiyalar vakillari tinch-totuv yashayotganini ko’rsatadi. Lekin bu vaziyatni ta’lim va tarbiya orqali doimo qo’llab-quvvatlash **zarur**.

Diniy erkinlik kafolati ochiq fuqarolik jamiyatining muhim asosidir. Adliya vazirligi ma’lumotlariga ko’ra, 2020-yil boshida O’zbekistonda 2276 ta diniy tashkilot faoliyat yuritgan, ulardan 183 tasi islomiy bo’lmagan diniy tashkilotlardir¹⁶⁸. 2024-yilda O’zbekistonda 2357 diniy tashkilot va 16 diniy konfessiya faoliyat ko’rsatgan. Islom diniga mansub bo’lmagan 197 ta diniy tashkilot rasman ro’yxatga olingan. Ulardan 179 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 7 tasi bahoiiy, 1 tasi krishnaitlardir. 1 ta buddistlar ibodatxonasi va O’zbekiston dinlararo Injil jamiyati mavjud¹⁶⁹. Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonun¹⁷⁰ har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqini ta’minlaydi. Bu huquq O’zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo’yilgan (35-modda)¹⁷¹. U yoki bu dinni majburan qabul qildirish taqiqlanadi.

¹⁶⁶What is global citizenship?// OXFAM. 2015. <https://www.oxfam.org.uk/education/who-we-are/what-is-global-citizenship/>

¹⁶⁷O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi <https://stat.uz/ru/>

¹⁶⁸NUZ. Новости Узбекистана. «Минюст озвучил количество религиозных организаций, зарегистрированных в Узбекистане», 30.01.2020. <https://nuz.uz/2020/01/30/minyust-ozvuchil-kolichestvo-religioznyh-organizatsiy-zaregistrirovannyh-v-uzbekistane/>

¹⁶⁹O’zbekiston Respublikasi Din ishlari qo’mitasi, 08.05.2024 <https://gov.uz/ru/religions/news/view/11191>

¹⁷⁰O’zbekiston Respublikasining Qonuni, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida” 05.07.2021-y. O’RQ-699-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5491534>

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023-y. <https://lex.uz/docs/6445145>

O'zbekistonda vatanparvarlikni tarbiyalash, vatanimiz tarixini o'rganish, illatlarga qarshi kurashish, qonunlarga rioya etish, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini hurmat qilish, oilani mustahkamlash, atrof-muhitni saqlash kabi muammolarga jamoatchilik e'tibori sezilarli darajada kuchaymoqda. Shu bois nafaqat o'sib kelayotgan avlod, balki kattalar tarbiyasi, fuqarolik ta'limi muammolarini qo'yish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, aholining keng ommasini pedagogika, andragogika, psixologiya, axloq, huquq, ekologiya asoslariga o'qitish zarurligini taqozo etmoqda. Alohida shaxsning o'z shaxsini rivojlantirishda tobora ortib borayotgan va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ehtiyojlarini qondirish muammosi ham shu qatorda turibdi. Bunday sharoitda ta'lim faqat malakali kadrlar tayyorlashga qaratilmasligi kerak. Sifatli ta'lim fuqarolarga sog'lom va to'laqonli hayot kechirish, barqaror rivojlanish va global fuqarolik ruhidagi ta'lim orqali mahalliy va global muammolarga asosli qarorlar qabul qilish va munosabat bildirish imkonini beradigan ko'nikmalar, qadriyatlar va xulq-atvor yo'nalishlarini rivojlantirishi kerak, bu esa BMTning Global kun tartibini amalga oshirish imkonini beradi.

"Ijtimoiy fikr" markazi huzuridagi "Ijtimoiy o'zgarishlarni boshqarish" milliy qo'mitasi (Jamoatchilik fikri) ekspertlari tomonidan O'zbekistonning tanlangan mintaqalari (Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyati) mahalliy hamjamiyatlarida 2017-yil apreldan maygacha bo'lgan davrda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi. 210 ga yaqin yoshlar (YuNESKOning O'zbekistondagi Assotsiatsiyalashgan maktablari loyihasi tarmog'ining o'rta maktab o'quvchilari) global fuqarolik konsepsiyasidan xabardorligi yuzasidan so'rov o'tkazildi. So'rovnoma YuNESKOning "Global fuqarolik ruhidagi ta'lim: ta'lim mavzulari va maqsadlari" (2015) qo'llanmasi asosida tayyorlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, YuNESKOning "Global fuqarolik ruhidagi ta'lim" qo'llanmasi O'zbekistonda malaka oshirish institutlarida foydalanishga moslashtirildi va o'zbek tiliga tarjima qilindi. Qo'llanma APCEIU (Osiyo-Tinch okeani xalqaro hamjihatlik ta'lim markazi) ning tegishli o'quv kurslarini tamomlagan mahalliy mutaxassislar guruhi tomonidan tayyorlandi.

Shuningdek, "Global fuqarolik sohasidagi ta'lim konsepsiyasi", "Global fuqarolik ruhidagi ta'lim: tinchlik va barqaror rivojlanish sohasidagi ta'lim" "Demokratik muloqot ko'nikmalari", "Ekstremizmning oldini olishda global fuqarolik ruhidagi tarbiyaning roli", "Mahalliy, mintaqaviy va global fuqarolik tarbiyasi tizimi va tuzilmasi", "Ta'limdagi madaniy xilma-xillik va global sheriklik" kabi mavzularda global fuqarolikni tarbiyalash sohasida milliy salohiyatni oshirish bo'yicha treninglar o'tkazildi. Bir guruh multiplikatorlar tayyorlandi. Ishlab chiqilgan "Global fuqarolik ruhidagi ta'lim" kursi pedagoglarning malakasini oshirish o'quv dasturiga kiritildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda global fuqarolikning ustuvor sohalaridan biri bo'lgan ta'lim orqali zo'ravonlikekstremizmining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda turli xalqaro donorlar ko'magida hamda mahalliy davlat va nodavlat hamkorlarning faol ishtirokida ushbu mavzu bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. YUNESKO, OSCE, USAID, UNODC, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Nemis xalq universitetlari assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi Filiali kabi tashkilotlar ta'lim orqali zo'ravonlik ekstremizmining oldini olishga o'z hissasini qo'shmoqda. Loyihalar doirasida steykxolderlar uchun davra suhbatlari, konferensiyalar, treninglar o'tkazilmoqda.

2020-2023-yillar mobaynida mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda DVVning O'zbekistondagi Filiali tomonidan "Aholining himoyaga muhtoj guruhlarini radikallashtirishga chidamliligini oshirish, o'qitish va muloqot qilish orqali davlat va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda O'zbekistonda radikalizatsiya va ekstremizm profilaktikasiga ko'maklashish" loyihasi bir necha bosqichda amalga oshirildi. Loyiha Deutsche Gesellschaft fur Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH tomonidan amalga oshirilayotgan "Markaziy Osiyoda zo'ravonlik ekstremizmining

oldini olish” (Preventing Violent Extremism in Central Asia - PREVECA) nomli yanada keng ko‘lamli loyiha dasturi doirasida amalga oshirildi va Germaniya Federal Tashqi ishlar vazirligi tomonidan moliyalashtirildi.



Loyiha yakunida DVV ning O‘zbekistondagi Filiali rahbarligida Markaziy Osiyo mintaqasi ekspertlari va va O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda ekstremizmning oldini olish sohasida faoliyat yuritayotgan yangi boshlanuvchi va amaliyotchi murabbiylar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlari, psixolog va psixoterapevtlar, ruhoniylar va zo‘ravonlik ekstremizmining oldini olish sohasida faoliyat yuritayotgan boshqa soha mutaxassislarini o‘qitish uchun “PreViEx” (Zo‘ravonlik ekstremizmining oldini olish)¹⁷² o‘quv dasturi ishlab chiqildi va sinab ko‘rildi.

Dastur mavzuga oid treninglar tashkil etish uchun usullar va vositalarning tavsifini, treninglar o‘tkazish va o‘qitish natijalarini baholash bo‘yicha aniq tavsiyalarni, shuningdek ko‘plab amaliy mashqlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv dasturi Curriculum globALE,

Curriculum interculturALE va DVV International tomonidan ishlab chiqilgan boshqa dastur va vositalarga asoslangan.

“PreViEx” dasturida turli darajadagi ko‘nikmalarga ega guruhlarini jalb qilish imkonini beruvchi modulli yondashuv qo‘llanilgan. Dasturda bir nechta mavzular mavjud, jumladan, inson huquqlariga asoslangan gender-sezgir yondashuv va qadriyatlar. Modullar alohida birliklar sifatida o‘rganilishi mumkin, biroq butun o‘quv dasturini amalga oshirishda mavjud mavzuli aloqalarni hisobga olish zarur.

Kattalarda global fuqarolik shakllanishi turli yo‘llar bilan sodir bo‘lishi mumkin. O‘quv jarayoniga, shu jumladan murabbiylar uchun maxsus o‘quv dasturlarini to‘liq joriy etishdan tashqari, bu quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- Global fuqarolik mavzulari bo‘yicha onlayn kurslar.
- Turli soha mutaxassislarini kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashdagi modullar.
- Keksalar uchun global ongni shakllantirishga qaratilgan maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.
- Global fuqarolik sohasida ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi jamoat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish.
- Tajriba almashish va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro loyihalarda ishtirok etish.
- Ko‘ngillilar faoliyatini, ayniqsa xalqaro loyihalarda rag‘batlantirish.
- Ommaviy axborot vositalarida global muammolar to‘g‘risida xabardorlikni oshirishga va ularni hal etishda har bir shaxsning rolini oshirishga qaratilgan axborot kampaniyalarini o‘tkazish.
- Global fuqarolik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarqatish va munozaralarni tashkil etish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.

¹⁷²DVV International veb sayti. «PreViEx» o‘quv dasturi https://www.dvv-international.de/fileadmin/files/Inhalte_Bilder_und_Dokumente/Microsite_ALE_Toolbox/Curriculum_PreViEx/Curriculum_PreViEx_EN_21062024.pdf

- Turli madaniyatlar vakillari ishtirokida xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etish.
- Madaniyatlararo muloqotni osonlashtirish uchun chet tillarni o'rganishni qo'llab-quvvatlash.
- Xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan talabalar va o'qituvchilar almashinuvi dasturlarini tashkil etish.
- Shaharni obodonlashtirish va muhtojlarga yordam berish bo'yicha ko'ngillilar aksiyalarini tashkil etish.
- Xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan talabalar almashinuvi dasturlarini amalga oshirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat mamlakatning xalqaro qiyofasini mustahkamlash, balki fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Global fuqarolik tadbirkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Global muammolarni tushunadigan fuqarolar ularni hal etishda, masalan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yoki inson huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadilar. Global fuqarolik shaxsiy yuksalish, dunyoqarashni kengaytirish va bag'rikenglikni oshirishga xizmat qiladi.

5.5. KYO' va UTB sohasidagi tadqiqotlar

O'zbekistonda KYO' va UTB sohasidagi tadqiqotlar nisbatan yaqinda o'tkazila boshlandi. Internetdagi qidiruv tizimlari alohida mualliflarning ishlarini taklif qiladi. Bular asosan ilmiy jurnallardagi maqolalar va vaqti-vaqti bilan dissertatsiya ishlari, sotsiologik so'rovlar natijalarini yorituvchi ishlar ham uchraydi. Mualliflar ham juda keng rejaning nazariy jihatlariga (oldingi maqolalar), ham kadrlar malakasini oshirish, yangi texnologiyalarga moslashish kabi aniq muammolarni hal etishga (odatda 2015-yildan keyingi maqolalar) e'tibor qaratadilar. Andragogikani falsafiy nuqtai nazardan fan sifatida o'rganadigan nazariy xarakterdagi maqolalar kamroq uchraydi. Masalan, "O'zbekistonda kattalar ta'limi (andragogika)" so'roviga quyidagi mavzular to'plamini topish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tahlili va nazariy jihatlar (2023).
- Muzey kommunikativ muhitini shakllantirishda andragogikaning roli va ahamiyati (2023).
- Ta'limning uzviyligi - uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil etishning talab yuqori bo'lgan tamoyili (2017).
- O'zbekistonni innovatsion rivojlantirishda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (2020).
- Pedagoglar malakasini oshirish jarayoniga andragogik yondashuv (2021).
- Pedagog kadrlarni andragogik yondashuv asosida kasbiy rivojlantirish va boshqalar.

Dissertatsiya ishlari:

- M.R. Isxakova "Andragogik va o'zini o'zi rivojlantiruvchi yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish", 2023-y. (o'zbek tilida)¹⁷³.
- H.X. Xakimjonova "Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish (Malaka oshirish tizimi misolida)". 2024-y. (o'zbek tilida)¹⁷⁴.

¹⁷³ Dissertatsiya avtoreferati <https://library.ziyounet.uz/book/127877>

¹⁷⁴ Dissertatsiya avtoreferati <https://ipitvet.uz/uz/avtoreferat/>

Aytish mumkinki, KYO' va UTB sohasidagi tadqiqotlar tobora ko'proq amaliy tus olmoqda, bu ularning dolzarbligini oshirmoqda, ammo ularning rivojlanishida - cheklangan moliyalashtirish, ilmiy maktab, metodik baza, kasb-hunar uyushmalari yo'qligi, oliy o'quv yurtlarida "andragogika" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni keng tayyorlash kabi ba'zi to'siqlar mavjud bo'lishi mumkin.

Ko'plab asarlar o'zbek yoki rus tilida chop etilgan bo'lib, bu xalqaro ilmiy hamjamiyatning ulardan foydalanishini cheklaydi. Tadqiqotlarning ingliz tilida olib borilishi, o'z navbatida, mahalliy tadqiqotchilar uchun ham xuddi shu til sababiga ko'ra qiyin.

O'zbekistonda andragogika fanini rivojlantirish uchun bir qancha asosiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv zarur:

- Davlat tomonidan moliyalashtirishni, shu jumladan olimlar uchun grantlarni ko'paytirish, tadqiqot markazlari va laboratoriyalarini tashkil etish, shuningdek, nashrlarni qo'llab-quvvatlash.
- Moliyalashtirish va tajriba almashish uchun xalqaro grantlarni izlash va xorijiy universitetlar va tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilish.
- Andragoglarni tayyorlash va o'qitish dasturlarini taklif etuvchi universitetlar va tadqiqot institutlarida andragogika bo'yicha ixtisoslashtirilgan markazlarni tashkil etish.
- Andragogik tadqiqotlar, nashrlar va eng yaxshi amaliyotlar bo'yicha ommaviy ma'lumotlar bazasini yaratish.
- Andragogika sohasida tadqiqotchilar, o'qituvchilar va amaliyotchilar o'rtasida tajriba almashish uchun konferensiyalar, seminarlar va onlayn-forumlar tashkil etish.
- O'zbekistonda foydalanish uchun andragogika sohasidagi eng yaxshi jahon amaliyotlarini tarjima qilish va moslashtirish.
- Andragogika fani va amaliyotini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosatini ishlab chiqish.
- Andragogik tamoyillarni ta'limni rivojlantirish va kadrlar tayyorlashning milliy strategiyalariga kiritish.
- Normativ-huquqiy bazani yaratish: Andragogika sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish.
- O'zbekistonda andragogika fanini rivojlantirish uchun bir qancha asosiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv zarur.

6. O'ZBEKISTONDA KYO' VA UTB NI RIVOJLANTIRISHNING MUMKIN BO'LGAN SSENARIYLARI VA TAVSIYALAR

6.1. O'zbekistonda kattalar ta'limini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

O'zbekistonda KYO' va UTB ning rivojlanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Globallashtirish va texnologik o'zgarishlar bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda moslashtirish va yangilashni talab etadi, davlat siyosati esa asosiy ichki omil hisoblanadi.

Eng muhim ichki omillar:

Davlat siyosati (qonunchilik, moliyalashtirish va strategik ustuvorliklar)

Hayot davomida ta'lim olish, KYO' va UTB sohasidagi mavjud qonunchilik ta'limning ushbu sohasiga e'tiborini oshirishda boshqa mamlakatlar tajribasini izchil hisobga oladi. Hayot davomida ta'lim olish, KYO' va UTB rivojlantirishning milliy strategiyasi mavjudligi (yoki KYO' va UTB to'g'risidagi alohida qonunning qabul qilinishi), ayniqsa mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida kattalar ta'limining jadal rivojlanishiga ko'maklashadi, amalga oshirishning aniq maqsadlari, tamoyillari va mexanizmlarini belgilab, ularga yanada yuqori maqom berish orqali kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini batafsil ishlab chiqish imkonini beradi. Qo'shimcha resurslarni jalb qilish uchun kattalar ta'limida ishtirok etayotgan turli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini yanada samarali muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar (aholining turmush darajasi, ishsizlik darajasi, iqtisodiyot tuzilmasi)

Turmush darajasi kattalarni o'qitishning qulayligi, motivatsiyasi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'lim, o'quv materiallari, transport va boshqa qo'shimcha xarajatlar uchun haq to'lash bilan bog'liq. Talabalar erisha oladigan stipendiya va grantlarning mavjudligi ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Ishsizlik darajasi KYO' va UTB ni rivojlantirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin.

Ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kattalarni o'qitish uchun zarur infratuzilma (ta'lim muassasalari, kompyuter sinflari va boshqalar) mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga, davlat, nodavlat va tijorat tashkilotlari tomonidan ishsizlarni o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar taklif etilayotgani aholining ushbu toifasi uchun ta'limni yanada qulaylashtirmoqda. 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi yil boshiga nisbatan 1% punktiga, 6,8% dan 5,8 % gacha kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 26-dekabr holatiga O'zbekiston aholisi 37 540 000 kishini (18 638 830 nafar ayol va 18 638 830 nafar erkak) tashkil etdi¹⁷⁵. 15,8 mln (41%) aholi iqtisodiy faol. Shundan 14,2 mln kishi (94%) iqtisodiyotning turli sektorlarida (6,8 mln kishi rasmiy sektorda, 5,5 mln kishi yashirin sektorda, 1,9 mln kishi esa xorijda ishlagan) ish bilan ta'minlangan. Respublika bo'yicha ishga joylashishga muhtoj 876 ming kishi (01.11.2024). Yil boshida ularning soni 1,02 mln kishini tashkil etdi¹⁷⁶.

¹⁷⁵O'zbekiston aholisi. Statistika qo'mitasi. <https://www.stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>

¹⁷⁶KUN.UZ. В Узбекистане снизился уровень безработицы. 01.11.2024. <https://kun.uz/ru/news/2024/11/01/v-uzbekistane-snizilsya-uroven-bezrabotitsy>

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) tomonidan 2026-yilgacha¹⁷⁷ O'zbekiston mehnat bozorida talab shakllanishining prognoz hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, 2026-yilga borib sanoatda band bo'lganlar ulushi 2020-yildagi 13,6% ga nisbatan 17,2% ni tashkil etadi. Ushbu tarmoq uchun har yili o'rtacha **150 ming kishi** talab etiladi.

Sanoatda bandlikning eng yuqori ulushi Navoiy (28,9%), Toshkent (22,8%), Farg'ona (19,6%) viloyatlari va Toshkent shahri (20,3%) kabi hududlarga to'g'ri keladi. Ushbu sanoatlashgan hududlarda respublikaning sanoat sektoridagi barcha xodimlarning 45% dan ortig'i jamlanishi kutilmoqda. Eng quyi ulush Surxondaryo, Jizzax va Xorazmda kuzatiladi.

Iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining ulushi 8-10% gacha kamayadi. Shu munosabat bilan ushbu sohada band bo'lganlar ulushi 2020-yildagi 26,7% dan 2026-yilda 24,2% gacha qisqaradi (aholi soni o'sadi). Qishloq xo'jaligidan bo'shatish aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga jalb qilish yo'li bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida eksportni kengaytirish imkonini beradi. Har yili qishloq xo'jaligi uchun **35 mingga yaqin kishi** talab etiladi. Ushbu sohaga kadrlarga bo'lgan ehtiyojning pastligi ish bilan band aholini qishloq xo'jaligidan bo'shatish va uni ishlab chiqarishga jalb etish bilan asoslanadi. Qishloq xo'jaligida bandlarning eng yuqori ulushi Sirdaryo (46,8%), Jizzax (41,8%) va Surxondaryo (36,3%) viloyatlarida kuzatiladi. Qishloq xo'jaligidan bunday tez bo'shatish ishsizlar sonini ko'paytirishi mumkin. Bu sohada iqtisodiyotda band bo'lgan aholining yarmidan ko'pi mehnat qilmoqda.

2026-yilga borib xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda, bu sohada band bo'lganlar ulushi 58,6% ni tashkil etadi. Ushbu sohaga har yili kadrlarga bo'lgan ehtiyoj o'rtacha **220-250 ming kishini** tashkil etadi. Ushbu sohada asosiy e'tibor ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ish bilan band bo'lganlarni legallashtirishga qaratiladi, chunki aynan xizmat ko'rsatish sohasida norasmiy ish bilan band bo'lganlar soni ko'p.

Xizmat ko'rsatish sohalarida "axborot va aloqa" sektoriga ehtiyoj yuqori bo'ladi - har yili 3,3 mingdan ortiq kishi. Moliyalashtirish sohasida mutaxassislarga bo'lgan talab barqaror o'sadi - yillik ehtiyoj 2 ming kishini tashkil etadi.

Qurilish, transport, savdo va umumiy ovqatlanish kabi sohalarda ham bandlik o'sadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlashda ish bilan band bo'lganlar ulushi biroz oshadi. Ushbu tarmoqlarda kadrlar tayyorlash **sifatini yaxshilash** talab etiladi.

Uy-joy kommunal xo'jaligida bandlik barqaror o'sadi, bu sohada keskin tebranishlar kutilmaydi.

Kelgusida O'zbekiston mehnat bozori uchun shifokorlar, muhandislar, texnologlar, dasturchilar va yuqori malakali o'qituvchilar kabi yuqori malakali kadrlar zarur. Shu munosabat bilan KYO' va UTB ni yanada rivojlantirishga yana bir ichki omil katta ta'sir ko'rsatmoqda:

Kadrlar salohiyati (kattalar bilan ishlash uchun malakali o'qituvchilarning mavjudligi, o'qituvchilarning katta yoshdagi ta'lim oluvchilar bilan ishlashga rag'batlantirish va qiziqish darajasi). Hozir bu O'zbekistonda eng muammoli masalalardan biridir (3.3-bo'lim "Kattalarni o'qitish va ta'lim sifati" va 2.7-bo'lim "Xodimlar va KYO' va UTB institutlarini professionalashtirish" ga qarang.).

¹⁷⁷KUN.UZ. В Узбекистане снизился уровень безработицы. 01.11.2024. <https://kun.uz/ru/news/2024/11/01/v-uzbekistane-snizilsya-uroven-bezrabotitsy>

Kattalar uchun o'qituvchilar (andragoglar) malakasini oshirish va ularni rag'batlantirish yo'llari:

- Kattalar bilan ishlash uchun o'qituvchilar tayyorlashga yo'naltirilgan dasturlar yaratish.
- Kattalar bilan ishlash uchun o'qituvchilarning malakasini tasdiqlovchi sertifikatlashtirish tizimini joriy etish.
- O'qituvchilarning maqomini oshirish va malakali mutaxassislarni jalb etish uchun ularning ish haqini oshirish.
- Malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, konferensiya va seminarlarda ishtirok etish imkoniyatini berish.
- O'qituvchilarni zamonaviy asbob-uskunalar, qulay ish muhiti va ijodiy namoyon etish imkoniyati bilan ta'minlash.
- O'qitishning yangi usullarini ishlab chiqayotgan va joriy etayotgan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishga Prezidentning so'nggi farmon va qarorlari yo'naltirilgan bo'lib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda kattalar ta'limi sifatini oshirish va uni aholining keng qatlamlari uchun yanada qulay va jozibador qilish imkonini beradi.

Tashqi omillar:

O'zbekistonda KYO' va UTB ni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim tashqi omillar orasida:

- Mamlakatni jahon ta'lim makoniga integratsiyalash, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, tajriba almashish, donorlarga ko'maklashish.
- Ta'lim sifatining xalqaro standartlarini qabul qilish.
- Axborot texnologiyalarini rivojlantirish, onlayn o'qitish imkoniyatlari, raqamli vositalardan foydalanish.
- Avtomatlashtirish sharoitida ishlash uchun yangi ko'nikmalarga ehtiyoj.

Mavjud muammolarga qaramay, O'zbekistonda kattalar ta'limini rivojlantirish umuman ta'limni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy iroda, malakali kadrlarga bo'lgan talabning o'sishi, axborot texnologiyalari sohasidagi tendensiyalar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish tufayli katta istiqbolga ega.

O'zbekistonda ta'lim sektorini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun hayot davomida ta'lim olish va kattalar ta'limini rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lib, bu mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarni sezilarli darajada tezlashtiradi.

6.2. O'zbekistonda KYO' va UTB ni boshqa mamlakatlar bilan qiyoslash

O'zbekistonda KYO' va UTB ni rivojlantirishining o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollarini chuqurroq tushunish uchun boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi, bu shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning KYO' va UTB sohasini rivojlantirishga yondashuvi rivojlangan mamlakatlardagi KYO' va UTB tizimlaridan birmuncha farq qiladi. Norasmiy KYO' va UTB sohasida alohida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Milliy ta'lim tizimlaridagi tafovutlarga qaramay, ushbu kichik sektor ko'plab mamlakatlarda moslashuvchanlik, amaliy yo'nalish, imkoniyatlar va shakllarning xilma-xilligi kabi umumiy xususiyatlarga ega. Bunda har bir mamlakat o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tajriba bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlariga ega.



O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlarning KYO' va UTB parametrlarini taqqoslash 8-jadvalda keltirilgan bo'lib, unda O'zbekistonning asosiy farqlari quyidagi xususiyatlardan iborat ekanligi ko'rsatilgan:

- Asosan ta'lim tizimining markazlashtirilgan tarzda boshqarishi.
- Aholining KYO' va UTB hamda ushbu kichik sektorni boshqarishda yetarli darajada ishtirok etmasligi.
- Andragoglar tayyorlamasligi.
- KYO' va UTB sifatining yetarli darajada emasligi.
- Monitoring va statistikaning rivojlangan tizimi mavjud emasligi.
- KYO' va UTB ning rivojlangan tadqiqot tizimi va ilmiy maktabining mavjud emasligi.

Qolgan ko'rsatkichlar har doim ham yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa-da, ularning rivojlanish dinamikasi ijobiy va amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda ularni mustahkamlash va yaxshilash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlarning KYO' va UTB parametrlarining qiyosiy jadvali

8-jadval.

KYO' va UTB va hayot davomida ta'lim olish tizimi parametrlari	O'zbekiston	KYO' va UTB va hayot davomida ta'lim olish sektorini institutsionallashtirgan mamlakatlar
KYO' va UTB to'g'risidagi qonunning mavjudligi	"Ta'lim to'g'risida"gi umumiy qonunga KYO' va UTB ning asosiy tushunchalari kiritilgan	Ko'pincha KYO' va UTB yoki hayot davomida ta'lim olish to'g'risida alohida qonun mavjud
Qonunning xalqaro standartlarga muvofiqligi	Zamonaviy tendensiyalarga mos	Muvofiqlikning yuqori darajasi
Boshqaruv	Asosan markazlashtirilgan	Markazlashtirilmagan, xususi sektorning ishtiroki
Moliyalashtirish	Davlat va xususi, lekin hajmi har doim ham yetarli emas	Moliyalashtirishning turli manbalari
Standartlashtirish	Rivojlanish bosqichida	Standartlashtirishning rivojlangan tizimlari
Validatsiya va tan olish	Boshlang'ich bosqich	Validatsiya va tan olishning rivojlangan tizimlari
Ish beruvchilar bilan hamkorlik	Rivojlanmoqda, lekin mustahkamlashni talab qilmoqda	Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi yaqin aloqa
Aholining KYO' va UTB ni boshqarishdagi ishtiroki	Cheklangan	Fuqarolarning faol ishtiroki
Aholining norasmiy KYO' va UTB da ishtiroki	Yetarli emas	Yuqori
Foydalanish imkoniyati	Olis qishloq hududlarida kengaymoqda, lekin cheklangan	Yuqori darajadagi foydalanish
Andragoglarni tayyorlash	Oliy ta'lim tizimida mavjud emas	Universitetlar va kasb-hunar ta'limi tashkilotlari turli darajalarda (bakalavriat, magistratura, doktorantura) andragogika dasturlarini taklif etadilar.
Dasturlar mazmuni	Mehnat bozoriga yo'naltirilgan, ammo modernizatsiya qilishni talab qiladi	Bozor sharoitlarining tez o'zgarishiga moslashmoqda
O'qitish usullari	An'anaviy va zamonaviy	Asosan zamonaviy va innovatsion
Raqamlashtirish	Faol rivojlanmoqda, lekin cheklavl mavjud	Raqamlashtirishning yuqori darajasi

Aholini xabardor qilish	Yetarli emas	Keng axborot kampaniyalari
Sifat	Sifatni oshirish uchun salmoqli salohiyat	Yuqori sifat standartlar bilan ta'minlanadi
Monitoring va statistika	Bu boradagi vaziyatni yaxshilash borasida tushuncha va intilish bor.	Monitoring va statistikaning rivojlangan tizimlari
Tadqiqotlar	Rivojlanishning dastlabki bosqichi	Rivojlangan tadqiqot tizimi
Ta'limga asosiy motivatsiya	Martaba o'sishi, malaka oshirish	Martaba o'sishi, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik
Ta'lim shakllari	Asosan innovatsion shakllarni rivojlantirish tendensiyasiga ega bo'lgan an'anaviy	Turli shakllar, shu jumladan onlayn ta'lim
Aholi uchun asosiy to'siqlar	Moliyaviy qiyinchiliklar, vaqt yetishmasligi, axborot yetishmasligi, ta'lim beruvchi tashkilotlarning yetishmasligi.	Moliyaviy to'siqlar kamroq, ta'limning moslashuvchan formatlari
Xalqaro hamkorlik	Faol rivojlanmoqda, ammo ko'lami va chuqurligi aniq yo'nalishlar va hamkorlarga qarab o'zgarib turadi.	Keng tarqalgan amaliyot. Ko'plab mamlakatlar xalqaro hamkorlik tarmoqlariga ega bo'lib, qo'shma tadqiqotlarda ishtirok etib, o'zaro tajriba almashmoqda.

KYO' va UTB ning norasmiy sektorini qiyosiy tahlili

AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropa mamlakatlari

Bu mamlakatlarda norasmiy ta'lim eski an'analarga va yaxshi rivojlangan infratuzilmaga ega. Davlat norasmiy ta'limni qo'llab-quvvatlab, grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini taqdim etmoqda. Keng ko'lamli dasturlarni taklif etadigan ko'plab xususiy ta'lim markazlari mavjud.

O'zbekistondan farqlari

Norasmiy ta'lim yanada standartlashtirilgan va akkreditatsiyadan o'tgan. Norasmiy ta'lim natijasida olingan malakalarni tan olishning yanada rivojlangan tizimi mavjud. Norasmiy ta'limni standartlashtirish va akkreditatsiya qilish uning sifati va e'tirofini oshiradi. Rivojlangan mamlakatlarda norasmiy ta'lim ko'pincha sifat va muayyan talablarga muvofiqlikni ta'minlash uchun standartlashtiriladi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim dasturlari rasmiy malaka olishga olib kelmasa ham, muayyan standart va mezonlarga muvofiq ishlab chiqiladi. Masalan, chet tillari, kompyuter savodxonligi, professional treninglar va boshqa norasmiy ta'lim turlari uchun standartlar mavjud.

MDH mamlakatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Belarus)

MDH mamlakatlarida, shuningdek, O'zbekistonda ham norasmiy ta'lim faol rivojlanmoqda, lekin shunga o'xshash - moliyalashtirishning yetarli emasligi, yagona sifat standartlarining yo'qligi, aholining xabardorligi pastligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

O'zbekiston bilan o'xshashligi

Bu mamlakatlarda, O'zbekistonda bo'lgani kabi, norasmiy ta'limga, ayniqsa, kasbiy qayta tayyorlash sohasiga qiziqish ortib bormoqda.

Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur)

Bu mamlakatlarda norasmiy ta'lim milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Davlatlar innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun maxsus zonalar tashkil etib, norasmiy ta'limni rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlamogda.

O'zbekistondan farqlari

Bu mamlakatlarda norasmiy ta'lim mehnat bozori bilan yaqin integratsiyalashgan bo'lib, ta'lim dasturlari ko'pincha ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

O'zbekiston norasmiy ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Keyingi yillarda qonunchilikda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, xususi ta'lim markazlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratildi. Boshqa mamlakatlarga nisbatan farqlari ham, umumiy xususiyatlari ham mavjud. Bir tomondan, O'zbekiston norasmiy ta'limni rivojlantirishda umumiy jahon tendensiyalariga amal qilmoqda. Boshqa tomondan, mamlakatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bilan bog'liq bir qator o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud.

6.3. KYO' va UTBni rivojlantirishning ehtimoliy ssenariylari

O'zbekistonda 2030-yilgacha KYO' va UTB ni rivojlantirishning mumkin bo'lgan ssenariylari ko'plab omillarga, jumladan, davlat siyosati, iqtisodiy rivojlanish, texnologiyalardan foydalanish va ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liq.

Ssenariyga ta'sir qiluvchi omillar

- **Davlat siyosati** (KYO' va UTB ni moliyalashtirish, ta'lim xizmatlari bozorini tartibga solish, davlat standartlari va dasturlarini ishlab chiqish).
- **Iqtisodiy rivojlanish** (ishga joylashish imkoniyatlari, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj).
- **Texnologiyalardan foydalanish imkoniyati** (Internet va raqamli texnologiyalarni tarqatish, kompyuterlar va mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyati).
- **Ijtimoiy o'zgarishlar** (aholining qadriyatlari va yo'nalishlarini o'zgartirish, hayot davomida ta'lim olishga tayyorlik).
- **Xalqaro hamkorlik** (tajriba almashish va ta'lim sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish).

Bir nechta ehtimoliy ssenariylarni ajratish mumkin:

1-ssenariy. Optimistik (tez o'sish va modernizatsiya)

Alohida xususiyatlari

KYO' va UTB ni rivojlantirish, onlayn ta'lim va masofaviy texnologiyalarni faol joriy etish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish markazlarini tashkil etish, sifatli ta'lim resurslaridan keng foydalanish, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, xalqaro tajribani integratsiyalashtirishga katta davlat investitsiyalari kiritilmoqda.

Natija

Katta yoshdagi aholining malaka darajasini sezilarli darajada oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni yaxshilash, ishsizlik darajasini pasaytirish, innovatsion faollikni oshirish, turmush darajasini oshirish. Alohida fuqarolarning ham, umuman iqtisodiyotning ham ehtiyojlariga javob beradigan yanada egiluvchan va moslashuvchan ta'lim tizimi.

2-ssenariy. Mo'tadil (bosqichma-bosqich o'sish va qisman modernizatsiya qilish)

Alohida xususiyatlari

Mo'tadil davlat investitsiyalari, onlayn ta'limni qisman joriy etish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ta'limning an'anaviy shakllarini saqlab qolish, sifatli ta'lim resurslaridan cheklangan foydalanish, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi aloqaning yetarli emasligi.

Natija

Katta yoshdagi aholining malaka darajasini mo'tadil oshirish, mehnat bozoridagi vaziyatni bosqichma-bosqich yaxshilash, mehnat unumdorligini biroz oshirish, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qisman qondirish. Ta'lim tizimi notekis rivojlanib, bo'shliqlar sifati va qulayligi saqlanib qolmoqda.

3-ssenariy. Pessimistik (turg'unlik yoki pasayish)

Alohida xususiyatlari

Davlat investitsiyalarining yetishmasligi, onlayn-ta'limning faol rivojlanmaganligi, ta'limning an'anaviy, eskirgan shakllarini saqlab qolish, ta'lim resurslaridan cheklangan foydalanish, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi aloqaning zaifligi, katta yoshdagi aholining o'qishga motivatsiyasining yo'qligi.

Natija

Katta yoshdagilar malakasining pastligi, ishsizlikning yuqori darajasi, mehnat unumdorligining pastligi, jahon standartlaridan orqada qolish, ijtimoiy keskinlikning kuchayishi. Ta'lim tizimi iqtisodiyot va aholi ehtiyojlariga javob bermaydi.

2030-yilgacha O'zbekistonda KYO' va UTB rivojlantirishning real ssenariysi, ehtimol, turli yillarda taklif etilgan ssenariylarning turli kombinatsiyalarini ifodalaydi. Ushbu sharhni muhokama qilish doirasida turli ekspertlar bilan ushbu ssenariylarni muhokama qilish ularni batafsil ko'rib chiqish va prognozlash funksiyasini oshirishga yordam beradi.

6.4. Xulosalar va tavsiyalar

O'zbekistonda KYO' va UTB sektorini rivojlantirish shart-sharoitlarini o'rganish yaqin yillarda hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi asosiy muammolarni aniqladi:

- Hozircha O'zbekistonda KYO' va UTB ning umummilliy ta'lim tizimiga integratsiyalashga qaratilgan aniq shakllantirilgan davlat strategiyasi mavjud emas.
- KYO' va UTB ni moliyalashtirishda mahalliy hokimiyatning roli etarli emas, ammo xalqaro tajriba ana shunday moliyalashtirish sxemasi (Germaniya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar) muvaffaqiyatli bo'lganidan dalolat beradi.
- Norasmiy va informal ta'lim doirasida olingan bilim va ko'nikmalarni sertifikatlash va tan olishning samarali mexanizmi hali mavjud emas, ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mexanizm ishga tushirilgan va vaziyat yaqin kelajakda o'zgarishi kerak.
- Katta yoshdagi aholining ta'lim ehtiyojlari, KYO' va UTB ning qulayligi va ularning aholini qamrab olishi, dasturlar sifati va ularning natijadorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli to'plashning yo'qligi.
- Kattalar uchun norasmiy ta'lim sektori davlat tomonidan yetarli moliyalashtirilmayapti,

xalqaro grantlardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

- KYO' va UTB sohasidagi loyihalarning aksariyati grantlar va xalqaro yordam tufayli amalga oshirilmoqda, bu esa sektorning barqarorligini pasaytirmoqda.
- Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xususiy sektorning kattalar uchun norasmiy ta'lim sohasidagi hamkorligi yetarli darajada rivojlanmagan.
- Aksariyat kattalar norasmiy ta'lim dasturlari mavjudligi yoki ularning imkoniyatlaridan bexabar.
- Jamiyatda, ayniqsa, keksalar yoki ayollar uchun ta'lim muhim emas, degan stereotip saqlanib qolmoqda.

KYO' va UTB sohasidagi zamonaviy vaziyatni hamda ushbu ta'lim kichik sektorini yanada rivojlantirishning taxminiy ssenariylarini tahlil qilish asosida qilingan ana shu xulosalardan kelib chiqib, KYO' va UTB ni yanada rivojlantirish strategiyasining quyidagi yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

- "Kattalar ta'limi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish yoki "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga KYO' va UTB tizimini alohida sektor sifatida rivojlantirishni nazarda tutuvchi tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, manfaatdor vazirlik va idoralarning ushbu sektorni rivojlantirishdagi mas'uliyatini mustahkamlovchi bir qator boshqa qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish. Moliyalashtirish va resurslarni ajratgan holda KYO' va UTB ni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga kiritish.
- KYO' va UTB tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash uchun mexanizmlar va qoidalarni yaratishda, shuningdek davlat ta'limi doirasida KYO' va UTB ni tartibga solish, ko'maklashish, rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va monitoring qilishda hukumatning rolini yanada kuchaytirish.
- Davlat budjeti, mahalliy boshqaruv organlari, xususiy kompaniyalar va korxonalar, notijorat tashkilotlari, xorijiy kreditlar va grantlar, tinglovchilarning o'zlari, xayr-ehsonlar mablag'larini jalb etgan holda moliyalashtirishning innovatsion va ko'p kanalli shakllarini rivojlantirish va ulardan foydalanish.
- Barcha darajadagi hamma uchun hayot davomida ta'lim olishni ilgari surish uchun sektorni institutsionallashtirishni kuchaytirish. Kasb-hunar ta'limi va o'qitishning turli obyektlari, oliy ta'lim muassasalari, kutubxonalar, muzeylar, san'at va madaniyat, sport va dam olish muassasalari, ish va jamoat joylari, oila va boshqa obyektlarni kattalar uchun o'quv maydonlari sifatida e'tirof etish.
- Ushbu sohada sifatli siyosatni shakllantirish uchun KYO' va UTB quyi sektorining holati, aholining KYO' va UTB dasturlarida ishtirok etish darajasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni, ishonchli, shaffof va arzon axborotlarni hamda gender-sezgir monitoring tizimlarini to'plash va tahlil qilish choralari ko'rish.
- Norasmiy va informal ta'lim doirasida olingan bilim va ko'nikmalarni sertifikatlash va tan olish mexanizmlari Prezident qarori va Milliy malaka doirasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Katta yoshdagilarning kelgusida o'qishi va mehnat bozoriga chiqishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida ushbu yo'nalishni samarali va sifatli rivojlantirishni ta'minlash zarur.
- Maktablar, kasbiy va oliy ta'lim muassasalari, kutubxonalar, diniy yoki madaniy markazlar va dam olish markazlari, korxonalar va tashkilotlar huzurida, aholi yashaydigan joylarda keng tarmoqli o'quv va maslahat punktlari, ma'rifiy markazlar tashkil etish. Qishloq joylarda ko'rsatib o'tilgan punktlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilsin.
- Aholini ta'lim va o'qitish jarayonlariga jalb etishni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.
- Aholining ehtiyojmand guruhlari, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan yoshlar, ayollar, migrant mehnatkashlar, ishsizlar, nogironlar, mahkumlar, keksalar, fuqaroligi bo'lmagan

shaxslarni o'qitish va ta'limdan unumli foydalanishga ko'maklashish va sifatli o'qitishdan foydalanishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Kattalar tomonidan KYO' va UTB imkoniyatlaridan foydalanishga ko'maklashuvchi axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirish.

- KYO' va UTB sohasida pedagog kadrlar salohiyatini oshirishni ta'minlash uchun andragog o'qituvchilarni (o'qituvchilar, maslahatchilar, tyutorlar, boshqaruvchilar, axborot-yo'naltirish xizmatlari xodimlari, ishlab chiqarishdagi kattalarni o'qitish tashkilotchilari) maqsadli tayyorlashni tashkil etish.
- KYO' va UTB va andragogika sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish.
- KYO' va UTB sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hamkorlik geografiyasini kengaytirish hamda O'zbekistonning xalqaro dastur va loyihalardagi ishtirokini faollashtirish zarur, bu esa yangi bilim va texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekistonda KYO' va UTB ni rivojlantirishning eng optimistik ssenariysini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- KYO' va UTB chegaralarini "yuvish" xavfini yumshatish choralari belgilash (tarmoqlararo muvofiqlashtiruvchi organi tashkil etish, amalga oshirish maqsadlari, vazifalari va mexanizmlarini aniq belgilagan holda KYO' va UTB ni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish).
- O'quv yurtlarini modernizatsiya qilish, yangi dasturlar ishlab chiqish va o'qituvchilar/andragoglar malakasini oshirishni zarur mablag'lar bilan ta'minlagan holda KYO' va UTB tizimini moliyalashtirishni oshirish.
- Bozor ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda KYO' va UTB tizimini mehnat bozori bilan integratsiyalash.
- Ta'limda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, onlayn platformalar, elektron o'quv materiallari va boshqa raqamli vositalarni keng joriy etish.
- Muntazam malaka oshirish kurslarida o'qituvchilar/andragoglarning malakasini oshirish.
- Jamiyatda kattalar ta'limining ijobiy qiyofasini shakllantirish orqali uzluksiz ta'lim g'oyasini ommalashtirish.

6.5. Xulosa

O'zbekistonda «Lifelong learning» (hayot davomida ta'lim olish) konsepsiyasiga kiritilgan KYO' va UTB tizimi mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun asos bo'ladigan rivojlanish uchun salmoqli salohiyatga ega.

Davlat organlari, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan hayot davomida ta'lim olish tamoyilini amalga oshirish katta yoshdagi aholining malaka darajasini oshirish, zamonaviy ta'lim xizmatlaridan foydalanishni ta'minlash va ijtimoiy integratsiyaga ko'maklashish imkonini beradi.

KYO' va UTB tizimini barqaror rivojlantirish, uning inklyuzivligi, moslashuvchanligi va jamiyat ehtiyojlariga yo'naltirilishini oshirish nafaqat fuqarolarning hayot sifatini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlaydi, uning global maydonda raqobatbardoshligi uchun sharoit yaratadi. O'zbekistonda KYO' va UTB ning noyob imkoniyatlari mavjud bo'lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va bilimlar jamiyatini barpo etishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Халқаро ҳужжатлар

1. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt 28.12.1995-y. <https://lex.uz/docs/2686024>
2. Международная стандартная классификация образования (МСКО) ЮНЕСКО, 2011 г. <https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/iscsd-2011-ru.pdf>
3. Рекомендации 38-ой сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО «Об обучении и образовании взрослых», 2015 г., Париж. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245179_rus
4. Марракешские рамки действий CONFINTEA VII «Использование трансформационного потенциала обучения и образования взрослых» (2022) Коллективный автор: Институт ЮНЕСКО по обучению на протяжении всей жизни. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382306_rus
5. Модельный Закон об образовании взрослых, принятый Межпарламентской Ассамблеей государств-участников Содружества Независимых Государств (Постановление № 45-5 от 25.11.2016.) https://iacis.ru/baza_dokumentov/modelnie_zakonodatelnie_akti_i_rekomendacii_mpa_sng/modelnie_kodeksi_i_zakoni
6. Первый Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых, 2009 год. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000186431> (GRALE 1).
7. Второй Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых «Переосмысление грамотности», 2013 год. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000222407> (GRALE 2).
8. Третий Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых «Влияние образования взрослых на здоровье и благополучие, занятость и рынок труда, социальную, гражданскую и общественную жизнь», 2018 год. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000261223_rus (GRALE 3).
9. Четвёртый Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых «Не оставлять никого позади: участие, равенство и инклюзивность», 2019 год. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373742> (GRALE 4).
10. Пятый Глобальный доклад об обучении и образовании взрослых «Гражданское образование: расширение прав и возможностей взрослых для перемен», 2022 год. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381666?posInSet=6&queryId=b5a12404-f3ea-4303-918c-3d77573a2db8> (GRALE 5).
11. Концептуальная записка к Шестому Глобальному Докладу об обучении и образовании взрослых). https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000391600_rus (GRALE 6). Recommendation concerning Technical and Vocational Education and Training (TVET), 2015 г. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245178>
12. Рекомендация о техническом и профессиональном образовании и подготовке (ТПОП), 2015 г. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245178_rus
13. Марракешские рамки действий CONFINTEA VII «Использование трансформационного потенциала обучения и образования взрослых» https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382306_rus

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023-y. <https://lex.uz/ru/docs/6445147>
15. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 30.04.2023 <https://lex.uz/ru/docs/6257291>
16. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 27.09.2024-y. O'RQ-967-son "Aholi bandligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida". <https://lex.uz/ru/docs/7124189>
17. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 07.09.2024-y. O'RQ-957-son "Ma'muruy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/7093738>
18. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 15.04.2022-y. O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/5960609>
19. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 02.09.2019-y. O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4494873?ONDATE=12.04.2023>
20. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 20.01.2021-y. O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5230686>
21. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 14.04.1999-y. O'RQ-763-1-son "Nodavlat Notijorat tashkilotlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/10863>
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021-y. PF-6181-son "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5319760>
23. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 29.09.2022-y. O'RQ-792-son "Elektron tijorat to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/6213428>
24. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 05.07.2021-y. O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5491541>
25. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 23.09.2020-y. O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida". <http://lex.uz/ru/docs/5013009>
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024-y. PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/7166625>
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.06.2024-y. PF-91-son "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/6975306>
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.05.2023-y. PF-76-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/6472530>
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023-y. PF-27-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/6396150>
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-y. PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/6600404>
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022-y. PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/6324798>
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-y. PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.2021-y. PF-6268-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zR Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni)". <https://lex.uz/ru/docs/5525182>
34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020-y. PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5086015>
35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020-y. PF-6012-son "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/4872357>
36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024-y. PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/7158606>
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10. 2024-y. PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/7131784>
38. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2024-y. № PQ-345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <http://lex.uz/ru/docs/7132771>
39. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024-y. PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/7109782>
40. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.06.2024-y. PQ-239-son "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimini samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/6986657>
41. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2024-y. PQ-54-son "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/6788000>
42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.02.2024-y. PQ-51-son "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/acts/6786592>
43. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.07.2022-y. PQ-307-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" . <https://lex.uz/ru/docs/6102468>
44. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2021-y. PQ-5140-son "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5449380>
45. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.08.2021-y. PQ-5241-son "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5610996>
46. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.08.2020-y. PQ-4804-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <http://lex.uz/ru/docs/4945780>
47. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019-y. PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqoro malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/4320719>
48. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2019-y. PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga

oid chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/4230938>

2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида қонун лойиҳаси https://api.mf.uz/media/filestore/qonun_loyiha.pdf

49. О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.07.2024-й. 415-son "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/7016859>

50. О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.03.2024-й. 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/6837773>

51. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.03.2025-й. PQ-103 -son "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/7433422>

Dissertatsiyalar avtoreferatlari va ilmiy maqolalar

52. Абдуллаханова Г., Алиматова Н.»Цифровизация системы образования в Узбекистане», Журнал «Мировая наука» №1 (46) 2021 г., Ташкент, Узбекистан https://www.science-j.com/_files/ugd/b06fdc_2ae114a6e956415c92b9e954a33e57fc.pdf?index=true

53. Бекбаев Г.А. «Цифровизация системы высшего образования республики Узбекистан: основные проблемы и преимущества» Журнал "Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social sciences", ноябрь 2024. <https://www.oriens.uz/journal/article/tsifrovizatsiya-sistemi-visshego-obrazovaniya-respubliki-uzbekistan-osnovnie-problemi-i-preimushstva>

54. Ибрагимова Н., руководитель проекта ИПМИ «Как высшее образование влияет на зарплату.». 2022 г. <https://imrs.uz/files/publications/en/970983.pdf>

55. Исмаилова М.А., Нарметова Ю.К. «Особенности системы образования Республики Узбекистан», 2024 г., Научный электронный журнал «Innovations in Science and Technologies» <https://www.innoist.uz/index.php/ist/article/view/48?articlesBySimilarityPage=2>

56. Исхакова М.Р. «Совершенствование процесса повышения квалификации педагогов дошкольных образовательных организаций на основе андрагогического и саморазвивающего подходов.», 2023 г. Автореферат диссертации. <https://api.ziynet.uz/uploads/books/7007/64a53222805d2.pdf>

57. Каримов Н.Г. «Особенности узбекской модели непрерывного образования», 2011 г. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-uzbekskoy-modeli-nepreryvnogo-obrazovaniya>

58. Г. С. Колесникова «Использование информационных технологий для обеспечения M-learning», 2017 г. <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/5993/1/22Kolesnikova2.pdf>

59. Матмуратова, Ш. У., Нарметова Ю. К. «Перспектива использования мобильных приложений учениками для выполнения домашних заданий», Электронный журнал «Innovations in Science and Technologies», 2024 г. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/49>

60. Султонова Н.А., Толибджонова Ф., Мамаджонова С., «Развитие системы образования Узбекистана и Турции» 2024 г. <https://zenodo.org/records/11198535>

61. Тулкинов М.Э. «Трудоустройство студентов в Узбекистане».

<https://cyberleninka.ru/article/n/trudoustroystvo-studentov-v-uzbekistane/viewer>

62. Хакимжонова Х.Х. «Развитие профессиональной компетентности руководящих и педагогических кадров системы профессионального образования на основе андрагогического подхода (на примере системы повышения квалификации)». 2024 г. Автореферат диссертации. <https://ipitvet.uz/uz/avtoreferat/>

Elektron OAV va veb saytlarda e'lon qilingan maqolalar

63. «Более 30 тысяч граждан Узбекистана учатся за рубежом», Podrobno.uz, 07.11.2024. <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/bolee-30-tysyach-grazhdan-uzbekistana-uchatsya-za-rubezhom-statagentstvo/>
64. «В регионах создаются «IT-городки», Norma.uz https://www.norma.uz/ru/novoe_v_zakonodatelstve/v_regionah_sozdayutsya_it-gorodki
65. «В Узбекистане «усыхает» система академических лицеев». NUZ - Новости Узбекистана <https://nuz.uz/2023/07/04/v-uzbekistane-usyhaet-sistema-akademicheskikh-liczeev/>
66. «В Узбекистане будут открывать по 100 новых школ на основе ГЧП ежегодно» <https://m.kun.uz/ru/news/2024/09/25/v-uzbekistane-budut-otkryvat-po-100-novykh-shkol-na-osnove-gchp-yejyegodno>
67. «В Узбекистане количество интернет-пользователей превысило 31 миллион», Kun.Uz. <https://kun.uz/ru/news/2022/12/15/v-uzbekistane-kolichestvo-internet-polzovateley-prevysilo-31-million>
68. «В Узбекистане расходы на образование и здравоохранение увеличат на 20%». Kun.uz 18.10.2024 <https://kun.uz/ru/news/2024/10/18/v-uzbekistane-rasxody-na-obrazovaniye-i-zdravooxraneniye-velichat-na-20>
69. «В Узбекистане снизился уровень безработицы». KUN.UZ.01.11.2024
70. <https://kun.uz/ru/news/2024/11/01/v-uzbekistane-snizilsya-uroven-bezrabotitsy>
71. «Высшее образование в эпоху цифровизации: развивать и совершенствовать», Джалалов Музаффар, ректор Университета Инха в Ташкенте. «Правда Востока», 15.06.2022 г., вебсайт Университета УИТ, <https://inha.uz/ru/obshaya/gazeta-pravda-vostoka-opublikovala-statyu-rektora-uit/>
72. «Всемирный банк запустит в Узбекистане два новых проекта в сфере высшего и профессионального образования», «Янги Ўзбекистон», 14.02.2024 <https://yuz.uz/ru/news/vsemirny-bank-zapustit-v-uzbekistane-dva-novx-proekta-v-sfere-vsshego-i-professionalnogo-obrazovaniya>
73. «Госбюджет на 2025 год: сколько бюджетных средств получают министерства и ведомства?» Kun.uz 31.10.2024. <https://kun.uz/ru/news/2024/10/31/gosbudjet-na-2025-god-skolko-budjetnyx-sredstv-poluchat-ministerstva-i-vedomstva>
74. «Итоги: как Узбекистан переходит на онлайн-обучение и почему растет популярность частных вузов» <https://www.spot.uz/ru/2023/12/25/private-education/>
75. «Как государство помогает выпускникам найти работу». Kadry.uz <https://www.kadry.uz/news/788-kak-gosudarstvo-pomogaet-vypusknikam-nayti-rabotu>
76. «Минюст озвучил количество религиозных организаций, зарегистрированных в Узбекистане», NUZ. Новости Узбекистана. « 30.01.2020. <https://nuz.uz/2020/01/30/minyust-ozvuchil-kolichestvo-religioznyh-organizacij-zaregistrirovannyh-v-uzbekistane/>
77. «На начало 2023/2024 учебного года количество действующих образовательных учреждений составляло 10 750» <https://weekly.uz/articles/9560/>
78. «Образование в Узбекистане: стремление к равному доступу» <https://anhor.uz/society/education-equality/> ANXOR.UZ, 2023 г.
79. «Обсуждены вопросы обеспечения работой выпускников образовательных учреждений», «Янги Ўзбекистон», 24.09.2021 <https://yuz.uz/ru/news/obsujden-vopros-obespecheniya-rabotoy-vpusknikov-obrazovatelinx-uchrejdeniy>
80. «Освоение зелёных навыков предпринимателями – важный аспект устойчивого роста экономики Узбекистана». Высшая школа бизнеса. Spot. Бизнес и технологии. <https://www.spot.uz/ru/2024/12/25/higher-school/>
81. «Особенности системы образования Республики Узбекистан», Информационный портал Узбекистана <http://www.moymir.uz/obrazovanie.html>
82. «Президент ознакомился с результатами и дальнейшими планами в сфере цифровых

технологий». Вебсайт президента Республики Узбекистан, 20.12.23 <https://president.uz/ru/lists/view/6937>

83. «Прогнозные оценки формирования спроса на рынке труда Узбекистана до 2026 года», Ахмедова М., Институт прогнозирования и макроэкономических исследований (ИПМИ). <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/labor%20market>

84. «Система образования Республики Узбекистан», Постоянное представительство Республики Узбекистан при Отделении ООН и других международных организациях в г. Женева <http://uzbekistan-geneva.ch/sistema-obrazovaniya-respubliki-uzbekistan.html>

85. «Учиться, чтобы действовать». Ташмухамедова Д. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/09/23/education-for-adults/>

86. «Цифровая грамотность как инструмент повышения правовой осведомлённости молодёжи». Институт законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан. <https://illp.uz/цифровая-грамотность-как-инструмент/>

87. «Через призму устойчивости». Д. Ахмедов, депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса. Вебсайт Законодательной Палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан. <https://parliament.gov.uz/ru/articles/1800>

Sharhlar, hisobotlar, tadqiqotlar, tahliliy eslatmalar

88. Sustainable Development Report 2024. The SDGs and the UN Summit of the Future Includes the SDG Index and Dashboards. <https://s3.amazonaws.com/sustainabledevelopment.report/2024/sustainable-development-report-2024.pdf>

89. Первый Добровольный Национальный обзор о реализации Повестки дня до 2030 года в области устойчивого развития. 2020. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/26381VNR_2020_Uzbekistan_Report_Russian.pdf

90. Второй Добровольный Национальный Обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года (второй) https://api.mf.uz/media/document_files/DNO_IPMI_ru.pdf

91. ЮНЕСКО «Обеспечение возможности обучения на протяжении всей жизни для всех в Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане и Узбекистане. Опыт отдельных стран и рекомендации по вопросам политики». <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374201?posInSet=17&queryId=4057c82d-bef5-4512-901d-129cb337359f>

92. «Участие в обучении и образовании взрослых в Узбекистане. Результаты социологического исследования, 2020 https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications_and_other_media/Publications/2020_%D0%A3%D0%97%D0%91/AES-UZ-2020_final_version.pdf

93. «Опрос работодателей по получению информации об удовлетворенности качеством образования». Филиал «Астраханского государственного технического университета» в Ташкентской области <https://astu.uz/wp-content/uploads/2023/10/Опрос-работодателей.pdf>

94. Социологическое исследование по изучению медиапотребления и медиаинформационной грамотности в странах Центральной Азии (Казахстан, Таджикистан, Узбекистан), 2023 https://newreporter.org/wp-content/uploads/2024/04/Internews_Izuchenie_mediapotrebleniya_i_mediagramotnosti_v_TSentralnoj_Azii_2023_sravnenie_5_let_RUS.pdf

95. Мини исследование ННО «САБР» в рамках проекта «Развитие социального партнёрства для повышения благосостояния уязвимых групп населения», реализованного при финансовой поддержке Филиала DVV в Узбекистане. Самарканд, 2023 г. Электронная база данных Филиала.

96. National Report on Adult Learning and Education, 05.05.2022 https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications_and_other_media/Publication_2024/National_Rep_ALE_05.05.2022_en_fin.pdf

97. Первый «Национальный доклад по обучению и образованию взрослых», Филиал DVV в Узбекистане, Ташкент, 2022 г. Электронная база данных Филиала.
98. «Развитие профессиональных навыков в Узбекистане». Доклад об оценке сектора, Asian Development Bank, 2022 <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/859636/skills-development-uzbekistan-sector-assessment-ru.pdf>
99. Аналитическая записка «Обзор законодательства и политики в области инклюзивного образования в Узбекистане», UNICEF, Ташкент, 2018 г. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3561/file/Inclusive%20policy%20brief%20rus.pdf>
100. «Разработка национальной модели качества образования и дизайн системы его мониторинга», UNICEF, Ташкент, 2017 г. <https://www.unicef.org/uzbekistan/quality-education-framework>

Ma'lumotnoma va statistika resurslari

101. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://stat.uz/ru/>
O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi BRM
<https://www.stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>
102. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. <https://nsdg.stat.uz/>
103. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi veb-sayti. <https://unstats.un.org/wiki/display/sdgGoodPractices/Countries%3A+SDG+platform++2022#Countries:SDGplatform2022-Uzbekistan>
104. Статистический сборник «Цели устойчивого развития в Республике Узбекистан». – Ташкент: Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан, 2024 – 68с. <https://nsdg.stat.uz/publications/28>
105. Отчёт «Network Readiness Index 2023 https://download.networkreadinessindex.org/reports/nri_2023.pdf
106. UNESCO, news: «International Literacy Day 2021 and UNESCO's support to Uzbekistan's Government in prioritizing access to education» <https://www.unesco.org/en/articles/international-literacy-day-2021-and-unescos-support-uzbekistans-government-prioritizing-access>
107. The Global Economy.com. Business and economic data for 200 countries https://ru.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/literacy_rate/
108. UNESCO. Global Education Expenditure 2024. <https://gtmarket.ru/ratings/global-education-expenditure>
109. World Bank Enterprise Surveys (WBES). <https://www.enterprisesurveys.org/en/data/exploreeconomies/2019/uzbekistan>
110. Eurostat «Providers of non-formal adult education and training» https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Adult_learning_statistics_-_characteristics_of_education_and_training
111. «Оценка нужд целевых групп и диагностика организационного и институционального развития региональных ННО», Социологическое исследование, 2021. База данных Филиала DVV в Узбекистане.
112. Развитие социального партнёрства для повышения благосостояния уязвимых групп населения», мини-исследование РЦСЭР «САБР», 2023. База данных Филиала DVV в Узбекистане

Vebsaytlar

113. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. O'zbekiston mamlakat platformasi 2024: Ta'lim, ko'nikmalarni rivojlantirish, texnik va kasbiy ta'lim va tayyorgarlik sohalaridagi taraqqiyotga strategik e'tibor. <https://asr.gov.uz/ru/news/13336>

114. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2023-y. <https://stat.uz/ru>
115. BMT veb-sayti. Global fuqarolik. <https://www.un.org/ru/120924>
116. BMT veb-sayti. Yanada adolatli va teng huquqli dunyo tuzumiga o'tish uchun global fuqarolik ruhida ta'lim olish. <https://www.un.org/ru/85398>
117. CONFINTEA VII konferensiya veb-sayti – <https://www.uil.unesco.org/en/seventh-international-conference-adult-education>
118. OXFAM: Xalqaro kambag'allikka qarshi kurash tashkiloti What is global citizenship? //. 2015. <https://www.oxfam.org.uk/education/who-we-are/what-is-global-citizenship/>
119. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari qo'mitasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" 08.05.2024 <https://gov.uz/ru/religions/news/view/11191>
120. DVV International veb-sayti. "PreViEx" o'quv dasturi https://www.dvv-international.de/fileadmin/files/Inhalte_Bilder_und_Dokumente/Microsite_ALE_Toolbox/Curriculum_PreViEx/Curriculum_PreViEx_EN_21062024.pdf
121. A. Avloniy nomidagi Milliy pedagogik mahorat instituti veb-sayti <https://avloniy.uz/uz/menu/masters-degree>
122. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'lim instituti. <https://ipitvet.uz/ru/home/>
123. BMT. "Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi global haftaligi" <https://www.un.org/ru/observances/media-information-literacy-week>
124. Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi <https://mjdc.uz/>
125. "ИНФОЛИБ" Axborot-kutubxona jurnali <https://einfo.lib.uz/post/prodwijenie-mediino-informatsionnoi-gramotnosti-i-informatsionnoi-kultur-kak-odna-iz-form-kulturnoi-diplomatii-opt-rossii-i-uzbekistana>
126. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining veb-sayti <https://gov.uz/ru/edu/news/view/1334>

Onlayn platformalar

127. "My dars" onlayn ta'lim platformasi <https://www.spot.uz/ru/2022/02/23/my-dars/>
128. OAV va raqamli imkoniyatlar. Ishlayotgan jurnalistlar va jurnalistika fakultetlari talabalari uchun MIG bo'yicha mahorat darslari <https://www.unesco.org/ru/articles/smi-i-cifrovyevozmozhnosti>
129. Ta'lim o'yin platformasi <https://qlever.asia/ru/region>
130. Faktlarni professional tekshirish uchun faktcheking platformasi <https://mjdc.uz/#!/tab/752267573-3>
131. O'qituvchilar, o'quvchilar, maktablar, metodistlar, kutubxonachilar, jurnalistlar, bloggerlar uchun ta'lim, interaktiv platforma. <https://msavod.uz/>
132. MyEDU platformasi <https://my.edu.uz/>
133. Unilibrary platformasi, <https://unilibrary.uz>
134. Kontrakt platformasi <https://kontrakt.edu.uz>

Ijtimoiy tarmoqlar

135. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali https://t.me/Press_Secretary_Uz (20.11.24, 28.06.24, 11.09.24, 30.09.24, 22.02.23, 20.06.24).
136. Faktcheker jurnalistlar hamjamiyati https://t.me/qlever_factcheck
137. Professional ta'limni rivojlantirish instituti rasmiy telegram kanali https://t.me/ipi_uz
138. Bandlik vazirligi <https://t.me/mehnatvazirligi>



DVV ning O'zbekistondagi Filiali (DVV International Uzbekistan) 2002-yildan buyon mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi hukumatlararo bitim asosida faoliyat yuritib kelmoqda. DVV International Nemis Xalq Universitetlari Assotsiatsiyasi – Deutscher Volkshochschul-Verband (DVV) xalqaro hamkorlik instituti hisoblanadi. Assotsiatsiya 900 dan ortiq kattalar ta'lim markazlari yoki Germaniyada nomlanganidek – Xalq universitetlari (VHS) va ularning davlat birlashmalari manfaatlarini ifodalaydi. Kattalar ta'limi va taraqqiyot bo'yicha hamkorlik sohasida yetakchi professional tashkilotlardan biri bo'lgan DVV International 50 yildan ortiq vaqtdan beri Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Yevropaning 35 davlatida katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning milliy tizimlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. DVV International butun dunyo bo'ylab hamkorlar, jumladan, fuqarolik jamiyati, davlat va akademik tuzilmalar vakillari (jami 200 dan ortiq) bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlikning asosiy maqsadi - har bir insonning hayot davomida ta'lim olish/o'qish huquqini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

Bizning manzil:

100031 O'zbekiston, Toshkent, Zanjirbog' ko'chasi, 27

Telefon: +998 78 120 60 57

email: dvviuz@dvv-international.uz

вебсайт: <https://www.dvv-international-central-asia.org/ru/uzbekistan>

facebook: <https://www.facebook.com/dvv.international.Uzbekistan>

instagram: https://www.instagram.com/dvv_international_uzb

telegram: <https://t.me/dvviuz>